

4  
136.2

19

5-80

GEORGE ALONOV

О ЗРЕК ТИДА ГАР СИНТАКСИСИ  
И СОЗ-ГАПЛАРНИНГ  
СИСТЕМ-СТРУКТУРА ТАЛОҚИ

8P.633.1

O'zbek filologiyasi  
fakulteti  
O'QUV ZAL

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

R. BOBOKALONOV

O'ZBEK TILIDA GAP SINTAKSISI VA  
SO'Z-GAPLARNING SISTEM-STRUKTUR  
TALQINI

*O'ZMU*  
*O'zbek tilshunosligi*  
*kafedrasini uchun*  
*muallifdan*

TOSHKENT

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

"Fan" nashriyoti

2006

722P  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
MARKAZI

05.05.2006

O'zbek filologiyasi  
fakulteti  
O'QUV ZAL

Monografiyada tilning substansional tadqiq usuli va o'zbek tilshunosligining so'nggi tadqiqot natijalariga tayangan holda leksik, morfologik, sintaktik sath birliklariga ajratish qiyin bo'lgan leksik birliklar — so'z-gaplarning sistem tuzilishi, morfologiyadagi tizimiy o'rni, uning leksik-semantik sathdagi chegaralari va sintaktik qurilishdagi xususiyatlari kabi masalalar tadqiq etiladi.

Monografiya tilshunoslik masalalari bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar, o'zbek va xorijiy filologiya ixtisosligi mudarrisu talabalariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:** filologiya fanlari doktori, professor  
H.G'.Ne'matov.

**Taqrizehilar:** filologiya fanlari doktori, professor  
R.R.Sayfullayeva,  
filologiya fanlari doktori G'.N.Zikrillayev.

Tadbirkor Erkinjon Jo'rayevga ushbu kitobga homiylik qilgani uchun minnatdorchilik bildiraman.

## MUNDARIJA

So`zboshi.....	5
Muharrirdan .....	6
<b>I qism:</b> Gap sintaksisi va semantik-funksional shakllangan so`z-gaplar. ....	10
1 — <b>bo`lim:</b> O`zbek tilshunosligida gap qurilishi tavsifi.....	11
1.1. O`zbek tilshunosligida gap sintaksisini o`rganish tarixidan.....	11
1.2. Hozirgi o`zbek adabiy tilida gap qurilishi talqini .....	15
1.3. Gapga lisoniy bosqichda yondashish va gapning eng kichik qurilish qolipi masalalari .....	18
1.4. Predikatsiya va kesimlik .....	24
1.5. O`zbek tilida so`z-gaplar va ularning talqini muammolari .....	29
1.6. Semantik-funksional shakllangan so`z-gaplar .....	35
<b>2-bo`lim:</b> SFSHSGlarning leksik-semantik turlari va sintaktik xususiyatlari.....	40
2.1. [Wp] qolipli gaplarning leksik-semantik turlari .....	40
2.2. [Wp] qurilishli so`z-gaplarning sintaktik xususiyatlari.....	42
2.3. [Wp] qurilishli so`z-gaplarning mustaqil va nomustaqil kesimlik xususiyatlari .....	50
<b>II qism:</b> Semantik-funksional shakllangan so`z-gaplarning leksik-semantik guruhleri va ularning nutqiy voqelanishi .....	53
<b>1-bo`lim.</b> [Wp] qurilishli modal so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanishi xususiyatlari.....	57
<b>2-bo`lim.</b> [Wp] qurilishli tasdiq-inkor so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.....	76
<b>3-bo`lim.</b> [Wp] qurilishli taklif-xitob so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.....	85
<b>4-bo`lim.</b> [Wp] qurilishli undov so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.....	91
Xotima.....	103
Foydalanilgan adabiyotlar .....	104
Shartli qisqartmalar.....	121

morfologik, sintaktik sath birliklariga ajratish qiyin bo`lgan leksi  
— so`z-gaplarning sistem tuzilishi, morfologiyadagi tizimiy o`  
leksik-semantik sathdagi chegaralari va sintaktik qurilishdagi xu  
kabi masalalar tadqiq etiladi.

Monografiya tilshunoslik masalalari bilan shug`u  
tadqiqotchilar, o`zbek va xorijiy filologiya ixtisosligi mudarrisu ta  
mo`ljallangan.

Mas`ul muharrir: filologiya fanlari doktori

H.G`

Taqrizehilar: filologiya fanlari doktori

R.R.Sa

filologiya fanlari doktori G`.N.Z

Tadbirkor Erkinjon Jo`rayevga ushbu kitobga homiylik qi  
uchun minnatdorchilik bildiraman.

## MUNDARIJA

Soʻzboshi.....	5
Muharrirdan .....	6
<b>I qism:</b> Gap sintaksisi va semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplar. ....	10
1 – boʻlim: Oʻzbek tilshunosligida gap qurilishi tavsifi.....	11
1.1. Oʻzbek tilshunosligida gap sintaksisini oʻrganish tarixidan.....	11
1.2. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida gap qurilishi talqini .....	15
1.3. Gapga lisoniy bosqichda yondashish va gapning eng kichik qurilish qolipi masalalari .....	18
1.4. Predikatsiya va kesimlik .....	24
1.5. Oʻzbek tilida soʻz-gaplar va ularning talqini muammolari .....	29
1.6. Semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplar .....	35
<b>2-boʻlim:</b> SFSHSGlarning leksik-semantik turlari va sintaktik xususiyatlari.....	40
2.1. [Wp] qoliqli gaplarning leksik-semantik turlari .....	40
2.2. [Wp] qurilishli soʻz-gaplarning sintaktik xususiyatlari.....	42
2.3. [Wp] qurilishli soʻz-gaplarning mustaqil va nomustaqil kesimlik xususiyatlari .....	50
<b>II qism:</b> Semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplarning leksik-semantik guruhlari va ularning nutqiy voqelanishi .....	53
<b>1-boʻlim.</b> [Wp] qurilishli modal soʻz-gaplar va ularning nutqiy voqelanishi xususiyatlari.....	57
<b>2-boʻlim.</b> [Wp] qurilishli tasdiq-inkor soʻz-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.....	76
<b>3-boʻlim.</b> [Wp] qurilishli taklif-xitob soʻz-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.....	85
<b>4-boʻlim.</b> [Wp] qurilishli undov soʻz-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.....	91
Xotima.....	103
Foydalanilgan adabiyotlar .....	104
Shartli qisqartmalar.....	121

## SHARTLI QISQARTMALAR

1. SFShSG – semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplar
2. LMG – lugʻaviy-maʼnoviy guruhlar
3. GKQQ – gapning eng kichik qurilish qolipi
4. GMT – gapning minimal tarkibi
5. NKSh – nomustaqil kesimlik shakli
6. MKSh – mustaqil kesimlik shakli
7. MQSM – mustaqil qoʻllaniladigan modal soʻzlar
8. NQM – nomustaqil qoʻllaniladigan modal soʻzlar
9. [M, N, T, P] – kesimlik maʼnolari (ramzlari)
10. [M] – modallik, mayl/munosabat maʼnosi
11. [N] – tasdiq/inkor maʼnosi
12. [T] – temporallik, zamon maʼnosi
13. [P] – personallik, shaxs maʼnosi
14. [WPm] – grammatik (morfoloqik) shakllangan gaplarning lisoniy qurilish qolipi ramzi
15. [Wp] – semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplarning lisoniy qurilish qolipi ramzi
16. [W] – atov birligi (soʻz) ramzi
17. [Pm] – kesimlikni shakllantiruvchi grammatik vositalar ramzi

## So`zboshi

O`zbek tilshunosligining so`nggi tadqiqotlarida sodda gapning mohiyati va uning lisoniy qurilish qolipi kesimlik ko`rsatkichlari bilan shakllangan atov birligida ko`rildi. Morfologik vositalar bilan shakllanganligi — kesimlik ko`rsatkichlariga ega bo`lganligi uchun bunday gaplar grammatik shakllangan gaplar (qisq. **GShG**)ga ajratildi. Lekin tilshunoslikda morfologik ko`rsatkichlar bilan shakllanmagan, kesimlik ko`rsatkichlarini qabul qilmaydigan gaplar ham bisyor. Bunday gaplar predikativ munosabat ifodalaydi, ammo predikativ shakl qabul qilmaydi. Natijada, sodda gapning bo`linishida — gaplarning shakllanish usuliga ko`ra semantikada va chegaralangan sintaktik vazifada alohida qurilishga ega bo`lgan **semantik-funksional shakllangan so`z-gap** (qisq. **SFShSG**)lar **GShG** lardan farqlanadi. Tadqiqot ishi ana shu muammoni yechishga xizmat qiladi.

Monografiya ikki qismdan iborat. Birinchi qismda gap sintaksisi va gapga lisoniy bosqichda yondashish, **SFShSG** larning qurilish qolipi, o`zbek tilida so`z-gaplar va ularning talqini muammolari, **SFShSG** larning leksik-semantik turlari, [Wp] qurilishli so`z-gaplarning [WPm] dan keskin farqli jihatlari, uning mustaqil va nomustaqil kesimlik xususiyatlariga aloqadorligi yoritiladi. Ularning leksik, morfologik va sintaktik sathlardagi sistem tuzilishiga e`tibor qaratiladi. Ikkinchi qismda **SFShSG** larning leksik-semantik guruhlari: [Wp] qurilishli modal, tasdiq-inkor, taklif-xitob, undov so`z-gaplarning ichki guruhchalari va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari alohida-alohida olinib aniqlashtiriladi. Bu guruhlarda kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlarining [N, M, T, P] ma`nolari: modallarda — [MNPT]; undovlarda — [TMNP]; tasdiq-inkorlarda — [NPTM]; taklif-xitoblarda — [PTMN] unsurlaridan biri yetakchilik qiladi. **SFShSG**larning bu to`rt turi o`ziga xos mikrosistemani hosil qiladi va bu mikrosistemada so`z-gaplarning leksik-semantik turlarida sof so`z-gaplar, so`z-gaplashgan, so`z-gaplashayotgan, so`z-gapsimon birliklarni va voqeliklarni ajratish mumkin bo`ladi.



Lisoniy tizim murakkab, tabiatan bir-biriga zid birliklardan tuzilgan, lekin yaxlit va bir butunlikdir. U birliklari bir-biridan keskin farqlanuvchi fonetik, leksik, grammatik, stilistik kabi har xil sathlardan iborat bo'lsa-da, voqelanishda, o'zining asosiy vazifalarini bajarish jarayonida bu sathlar birgalikda, bir butunlikda nutqda namoyon bo'ladi. Biz, tilshunoslar, tilni sathlarga bo'lib, har bir sath birliklarini maxsus nomlab, lisoniy butunlikdan ajratib, alohidaliklar sifatida (yoki sathlar doirasida tizimu tizimchayu paradigmalarga birlashtirib) o'rganamiz. Biz ularning har birini ma'lum bir sath birliklari sifatida xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, bu birliklarning, eng avvalo, ma'lum bir lisoniy sathning emas, balki yaxlit lisoniy tizim birligi ekanligini esdan chiqarib qo'yamiz. Tabiiyki, bunday yondashish notabiiy, til zotiga, ontologiyasiga zid usuldir. Zeroki, butunning mohiyati bilan shu butunning bo'laklari mohiyati aynan bir narsa emas va, hattoki, ba'zan bir-biriga zid bo'lishi ham, bir-birini inkor etishi ham mumkin. Butun, bu — bo'laklar majmuasi emas, undan katta bo'lgan alohidalik va mustaqillikdir.

Butundan ajratilgan bo'lak falsafada, xususan, tasavvufning zot va tajalli nazariyasida (Haq va borliq munosabatini aks ettiradigan, faqat idrok etiladigan butunlik va uning bo'laklarning alohida-alohida voqelanishi haqidagi ta'limotda) nochor, nogiron sanaladi va zot mohiyatini aks ettira olmaydi. Chunonchi, tanadan ajratilgan bosh — o'lik bosh, boshning faqat bir zohiriy ko'rinishi, xolos; biz bunday boshni qanchalik chuqur o'rganmasak, tirik organizm mohiyati va unda boshning o'рни haqida hech qanday ma'lumot hosil qilolmaymiz — butundan ajratilgan nochor va nogiron bo'lak na o'z mohiyatini namoyon qila oladi, na-da o'zi mansub bo'lgan butunligini. Tilni sathlarga ajratib, har bir sath birliklarining tabiatini ochmoqchi bo'lgan tilshunos tirik tandan uzilgan bosh tahlili asosida uning mohiyatini o'rganmoqchi bo'lgan nochor tabiatshunos holatidadir — hech qachon tadqiq qilayotgan narsasining zotiy tabiatiga muvofiq, haqqoniy bilim hosil qila olmaydi.

Til behad murakkab butunlik bo`lib, borliqning barcha qirra va tomonlari bilan zotan va tabiatan uzviy bog`liqdir. Shuning uchun uning ayrim sathlari ob`ektiv borliqning ayrim tomonlari bilan o`xshash, hamohang bo`ladi. Chunonchi, fonetika — fizikaviy birliklar, leksika — atash va shakllantirish vositalari, sintaksis — birikish qonuniyatlari va vositalari, morfologiya — birliklarni bir-biriga bog`lash vositalari, stilistika — tasvir va ifoda vositalari tizimlari bilan zohiran o`xshash va bog`langan. Biz lisoniy sath birligida bu sath qisman yaqin yoki o`xshash bo`lgan, lisonidan ancha sodda bo`lib, bizning fahmiy tadqiqimizda berilgan borliq tomonining xususiyatlarini ko`rishga, topishga o`zaro tenglashtirib bo`lmas hodisalarni o`zaro tenglashtirishga intilamiz. Chunonchi, tovush va akustikaning tadqiq manbaini, fonema va semiotikada differensial belgi mohiyatini tenglashtirishga harakat qilamiz. Haqiqatan ham, lisoniy tizimning turli sath birliklarida borliqning u yoki bu qirradi bilan mohiyatan o`xshash bo`lgan, ularga yaqinlashadigan birlik va hodisalar bor va xuddi mana shunday o`xshashliklar moddiy va ma`naviy olam butunligi va yaxlitligini — vahdat-ul-vujudni ta`minlaydi, olamning bir xil qonuniyatlar bilan yaralganligi va yashashini isbotlaydi, lekin lisoniy tizim mohiyatini aks ettira olmaydi. Lisoniy sath birliklarining moddiy borliq birliklari qirralari bilan yaqinlashgan tomonlari lisoniy tizimning o`zi uchun chekka nuqtalar bo`lib, ular lisonni borliqning boshqa tomonlari bilan bog`lashga xizmat qiladi va lisoniy tizimning o`ziga xos zotiy, ontologik xususiyatlarini to`liq, ya`ni borliqning lison ko`rinishi uchun xos va mos shaklda aks ettirmaydi. Lisoniy tizimning tom mohiyati lisoniy sathlar bir biridan ajralmagan, aniqrog`i lisoniy sathlarni bir biridan ajratib bo`lmaydigan birliklarda u yoki bu sathga mansub bo`lgan birliklardan ko`ra yorqinroq va to`laroq aks etadi - ma`lum bir sath birliklari tavsifi jarayonida "g`ayrioddiy", "favqulodda", "mustasno" ko`ringan bu hodisalar orqali lison o`z tabiatini to`liqroq va yorqinroq namoyon qilishga, tilshunoslarga yo`llanma berishga intiladi. Afsuski, biz, tilshunoslar, bu haqqoniyatni "g`ayrioddiy", "favqulodda", "mustasno" sanab, chetlab o`tamiz va xatomizga chuqurlashib, o`ralib

ketaveramiz, bunday hodisalar tadqiqini kelasi zamonlarga, maxsus izlanishlarga havola qilib, o'zimizni qutultirishga harakat qilamiz.

Fan ma'lum bir taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilgach, xuddi mana shunday "g'ayrioddiy", "favqulodda", "mustasno" sanalgan hodisalar tadqiqotchilar diqqat markazida turadi. "Me'yoriy", "yorqin" hodisalar tahlili tadqiqi asosida ishlab chiqilgan qonuniyatlarning taqdiri, ob'ektivlik, moddiy va ma'naviy borliq tabiatiga muvofiqlik darajalari, ulardan amaliy foydalanish va inqilobiy, ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan manfaatlar olish mana shu — tadqiqi yaxshi zamonlarga havola etilgan "g'ayrioddiy", "favqulodda", "mustasno" larni qanchalik aniqlik va peshbinlik bilan **t u s h u n t i r a o l i s h i**, ularning tabiatini ochib bera olishi bilan hal bo'ladi.

Ramazon Bobokalonovning qo'lingizdagi tadqiqoti o'zbek tilining mana shunday "g'ayrioddiy", "favqulodda", "mustasno" sanalgan hodisalaridan biri — ma'no jihatdan "hech qanday so'z turkumi" (yoki "alohida so'z turkumi") va sintaktik vazifasiga ko'ra "hech qanday gap bo'lagi" tarkibiga kiritiladigan undov, modal, tasdiq-inkor, taklif-ishora ma'no va vazifali so'zlarning o'zbek substansial (formal-funksional) tadqiq usuli yutuqlari asosidagi talqiniga bag'ishlangan. Bu tadqiqot "me'yoriy" leksik, morfologik, sintaktik birliklar talqinida o'zini oqlagan va ta'lim tizimiga shaxdam qadamlar bilan, tipologik tilshunoslikka tetapoya bo'lib kirib, ommalashayotgan o'zbek zotiy lingvistik tahlil usuli istiqbollarini belgilashda — uning ob'ektivlik darajasini, "nome'yoriy" hodisalarni qanchalik aniqlik bilan tushuntira olishini ko'rsatishda bir dadil qadamdir. Muallif o'zbek tilida fikr almashtirishning asosiy birligi bo'lmish gaplarning alohida tarkibli qurilishga ega bo'lgan (ya'ni leksik, morfologik, sintaktik sath birliklarini ajratib bo'ladigan) *grammatik shakllangan gaplar* va bunday birliklarni ajratish qiyin yoki sun'iy bo'lgan *semantik-funksional shakllangan gaplar-so'z-gaplar* ko'rinishlarini farqlar ekan, tilimizning sathlarga bo'linuvchan murakkablik va bu sathlarning butunligidan iborat bo'lgan yaxlitlik kabi bir-biriga dialektik zid tomonlardan iborat ekanligiga tayanadi. Shu bilan u tilning ontologik tabiati mana shunday

bo`linmas butunliklarda yorqinroq aks etishini ta`kidlaydi. *So`z-gaplarning so`z-gaplashgan, so`z-gaplashayotgan va so`z-gapsimon* ko`rinishlarini ajratish va tavsiflash bilan esa tadqiqotchi bu hodisaning tilimizning hozirgi holati va taraqqiyot xususiyatiyu qonuniyalari uchun qandaydir qoldiq, relik, begona, "g`ayrioddiy", "favqulodda", "mustasno" bo`lmay, aksincha, kunda sodir bo`layotgan, lisoniy tizim o`zligini, o`z tabiatini namoyon qilayotgan hodisa ekanligini ko`rsatadi. Muallifning so`z-gaplarni so`z turkumlarining — mustaqil va yordamchi so`zlar guruhlarini bilan bir qatorda alohida bir guruhi, ular tuzadigan gaplarni tilimizga xos bo`lgan gap qurilishining bir ko`rinishi sifatida baholashi, bunday birlik va qurilmalarning boshqa "me`yoriy" birlik va qurilmalar bilan teng huquqligini ta`kidlashi tadqiqotchilar diqqatidan chetda qolmaydi va tilimizdagi mana shularga o`xshagan "nome`yoriy" hodisalar tahlil va tavsifiga ularning e`tiborini tortadi deb umid qilamiz.

**Filologiya fanlari doktori,  
professor Hamid Ne`matov**

Buxoro. 2006 yil 12 fevral

## I qism: GAP SINTAKSISI VA SEMANTIK-FUNKSIONAL SHAKLLANGAN SO`Z-GAPLAR

Borliqdagi har bir narsa, voqea-hodisa o`z ijtimoiy taraqqiyotiga ega. Barcha fanlar qatorida bu taraqqiyot tilshunoslikni ham chetlab o`tmagan. O`zbek tilshunosligi o`z rivojlanishida bir necha bosqichlardan o`tdi. Ayniqsa, bu holat Mustaqillikka erishganimizdan keyin yaqqol ko`zga tashlanadi. Haqiqatdan ham, leksik va sintaktik sathni, undan keyin sistem tilshunoslik nazariyasini o`rganish jarayonida qorishiq diffuz hodisalarni o`zida aks etgan so`z-gaplar hodisasi alohida bir tizimga solinmagan ekanligi ma`lum bo`ladi. Mana shu tarqoq, ba`zi bir chegaralarni o`zida mujassam etmagan hodisalarni tizimga solish va ularga aniqliklar kiritish tadqiq ishimizning muhim vazifasidir.

Tilshunoslikda so`z-gaplarni "**bo`lamlarga ajralmaydigan gap**"lar sifatida e`tirof etib kelishgan. Darhaqiqat, tilning mohiyatini aniqlash jarayoni uning taraqqiyoti bilan bog`liqdir. Shu bois uning qaysi bir xususiyatlarini boshqa bir tillar bilan qiyoslab o`rganish natijasi uchundir balkim, so`z-gaplar termini ham o`zbek tilshunosligida boshqa baynalmilal terminlar singari olib kirilgan. Lisoniy tizimning, jumladan, leksik tizimning nisbiy yaxlitligi va doimiy taraqqiyotda bo`lganligi sababli boshqa so`z turkumlaridan o`tish jarayoni so`z-gaplarda ham o`z aks-ifodasini topadi. Shunga muvofiq modal, undov, tasdiq-inkor, taklif-xitob so`zlarning *guruh* va *guruhchalari*, o`z navbatida har bir leksik-semantik guruhning markaziy so`zlariga ma`no va vazifasi jihatdan yaqinligi darajasiga ko`ra to`rt ichki ma`noviy guruhlarini beradi va bular sintaktik sathda [Wp] lisoniy qurilish qolipiga birlashadi:

- 1) *sof [Wp] leksik birliklar;*
- 2) *[Wp]-lashgan leksik birliklar;*
- 3) *[Wp]-lashayotgan leksik birliklar;*
- 4) *[Wp]-simon leksik birliklar.*

Bu qolip asosida nutqda reallashadigan leksik birliklar *sof so`z-gaplar*, *so`z-gaplashgan*, *so`z-gaplashayotgan*, *so`z-gapsimonlar* sifatida baholanadi. Ular manbaiga ko`ra turli so`z turkumlaridan shakllanganligi monografiyada ta`kidlab o`tilgan.

## 1 – bo`lim: O`zbek tilshunosligida gap qurilishi tavsifi

### I.I. O`zbek tilshunosligida gap sintaksisini o`rganish tarixidan

O`zbek tilshunosligida gap sintaksisini o`rganish, yozma, og`zaki, badiiy, ilmiy, va shunday uslublarida gapning nutqiy ko`rinishlari tavsifi, gap qurilishiga lison//nutq bo`linishi nuqtai nazaridan yondashish, **semantik-funksional shakllangan gaplarning** *semantik* va *sintaktik* mohiyati, ma`noviy turlari kabi masalalar tahlil etilgan.

Sintaksisni, xususan, gap va uning qurilishi bilan bog`liq masalalarni chuqur tahlil etish, asosan, XX asrning 20-yillaridan boshlandi. Ammo gap sintaksisida muammoli masalalar uzoq vaqtgacha muallaq turaverdi. Bular xususida professor R.R.Sayfullayevaning doktorlik tadqiqotida maxsus to`xtalgan. Tadqiqotchi-olimning ishida o`zbek tili qurilishini Yevropa tilshunosligi mezonlari asosida o`rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib keng ommalasha borgani, 1920 yillargacha o`zbek tili sintaksisi e`tibordan chetda qolganligi alohida ta`kidlanadi. Bunga XIX-XX asrlarda Yevropada hukmron bo`lgan “Yosh grammatistlar”ning, jumladan, F.Vostokov, F.F.Fortunatovlarning tadqiqot yo`nalishlari, asosan fonetika, leksika, morfologiyani o`rganish bilan bog`liqligi sabab ko`rsatilib, sintaksis esa ko`p hollarda ularning nazaridan chetda qolganligi va bu jarayonlar boshqa xalqlar tilining tadqiqida ham o`z ta`sirini ko`rsatganligi to`g`ri qayd etiladi (66, 28-64).

O`zbek tilshunosligida, 20-yillardan keyin uning grammatikasini o`rganish bobida davr talabi bilan birmuncha o`zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1924 yilda nashr etilgan A.Fitratning “Nahv” (Sintaksis) kitobi fikrimizga yorqin dalildir (78). Bu kitob o`zbek maktablari uchun qaldirg`och, nisbatan tugal darslik bo`lib, 1925-30 yillar davomida uch marta qayta nashr etildi va bu ma`rifatparvar qomusiy olimning lingvistik qarashlari maxsus tadqiqotlar manbai bo`lganligi ma`lum (66,10). Bu mazkur darsliklarni o`z davri uchun gap sintaksisi bo`yicha Yevropa tilshunosligi mezonlari asosida yozilgan ilk mukammal asar hisoblash mumkin. A.Fitratning “*Nahv*”i bilan bir qatorda, 1929 yilda Q.Ramazon, Sh.Zunnunlarning “*O`zbek tili*” (Ish kitobi, 2-bo`lim) darsligi

ham nashr qilindi. Aytish mumkinki, bu darsliklar o'zbek tili nazariy grammatikasining vujudga kelishiga zamin hozirladi. Shundan so'ng 1933 yilda N. Said, A.Yo'ldoshevlarining "*Grammatika*"si (2-qism. Nahv. O'rta maktabning 7-sinfi uchun darslik) bosib chiqarildi va bu kitob ham 1936 yilda ba'zi bir to'ldirishlar hamda o'zgartirishlar bilan qayta nashr etildi. Bu darslikda sintaksisning ko'pgina masalalari o'sha davr saviyasiga mos ravishda yoritilgan edi. Bundan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili sintaksisini o'rganishga qiziqish dinamik tarzda orta borayotgan edi. 1938-40 yillar mobaynida H.G'oziyevning "*O'zbek tili grammatikasi*" (II, Sintaksis, to'liqsiz va o'rta maktablar uchun darslik) ham ikki marta bosmadan chiqdi. Bu darslikda "**Ega va kesim**" bilan "**sub'ekt va predikat**"ni qorishtirish hollari kuzatiladi. Zero, o'sha davrning muhim ahamiyatli xususiyati Yevropa, asosan, rus tilshunosligidan *gap, sodda gap, gap bo'laklari, ega, kesim* — bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, ularni ifodalash usullari kabi sintaksisning tayanch tushunchalarini o'zbek tilshunosligiga olib kirilishidir. Biroq bular gap sintaksisi haqida hali mukammal ta'limot emas edi.

O'zbek tilshunosligi tarixida (1940) birinchi marta pedagogika bilim yurtlari sirtqi talabalari uchun sintaksisdan darslik Ayub G'ulomovning "*O'zbek tili grammatikasi*" kitobi hisoblanadi (89). Unda sodda va qo'shma gaplar, dastavval, to'liqsiz va o'rta maktablar uchun yaratilgan darsliklarga nisbatan ancha puxta yoritilgan edi. Shunday qilib, bu kitobning o'zbek tilshunosligi maydoniga kirib kelishi bilan 1941 yildan boshlab, o'zbek tilining ilmiy grammatikasini yaratishda birinchi qadam qo'yildi. Bu asarda "**Bog'langan qo'shma gaplar**", "**Ergash gapli qo'shma gaplar**"ning o'n bir turi, Shuningdek, "**Bir necha ergash gapli qo'shma gaplar**" haqida ham fikr bayon etiladi. Bu kitobning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, unda biz hozir o'rta va oliy maktablarda o'rganishga ko'nikkan va bugungi kunda "**an'anaviy sintaksis**" deb nomlangan sintaksisning nazariy tahlil usullari mukammal shakllangan bo'lib, bular, asosan quyidagilarda ko'rinadi:

1. Sodda gap ikki bosh bo`lakdan — “**ega va kesim**”ning birikishidan tashkil topadi.

2. Qo`shma gap ikki va undan ortiq sodda gaplarning birikishidan hosil bo`ladi.

3. **Kesim** ega haqidagi biror xabarni tasdiq yoki inkor formada ifodalaydi va bosh bo`laklar ichida **egadan keyin hokim** bo`lak sanaladi.

4. Sodda va qo`shma gaplarni aniqlashda **egaga** tayaniladi, ya`ni qo`shma gapda **har bir kesimning** egasi bo`ladi.

Bosh bo`laklarga bunday yondashish gap sintaksisi tushunchasini mantiqiy “**sub`ekt-predikat**” munosabatlari bilan qorishtirib yuborishga olib keldi. Ma`lumki, 1941 yilda A.G`ulomov, dastlab “**O`zbek tilida aniqlovchi**” (O`zbek tili ilmiy grammatikasi uchun materiallar /I-seriya/) ilmiy asarida aniqlovchi gap bo`laklaridan biri ekanligi, uning gap qurilishidagi vazifasi haqida tushuncha berib, “**Aniqlovchi gap**” sarlavhasi ostida sifatdosh oborotlar ishtirok etgan gaplarga ham qo`shma gap deb qaragan edi. Keyinchalik esa muallif bu fikridan qaytdi va “**aniqlovchi gap**” deb berilgan misollar “**yoyiq aniqlovchi**” sifatida ta`riflandi. Bu ikkilanish 1955 yilda nashr etilgan uning “**Sodda gap**” kitobida ko`zga tashlanadi. Ta`kidlash muhimki, bu kitob gap haqidagi dastlabki mukammal ta`limot bo`lib, ilmiy grammatikani yaratishga asos bo`lib xizmat qildi. Darhaqiqat, unda A.G`ulomov o`zbek tilshunosligida sintaksis uchun juda muhim hisoblangan masalalarni nazariy jihatdan bekamu ko`st yoritib berishga harakat qildi va bu yo`nalishda o`z davri uchun ulkan natijalarga ham erishdi. O`sha davrlarda zukko tilshunos olimning e`tiboridan kesim bilan aloqador “**tobe kesim**” masalalari ham chetda qolmadi (89; 91; 93). “**Tobe kesim**” muammosini ko`tarib chiqish tilshunoslar oldida turgan o`ta nozik va ancha mushkul vazifa bo`lganligi uchun ham, olimning keyingi darsliklari nashrlarida buning izini yo`qotishga majbur bo`lishdi. Bu muammoning oxirigacha yechim topmagani gap sintaksisini bir qator sun`iy nazariyalar bilan to`ldirilishiga olib keldi.



Ana shular bilan bir qatorda, 1948 yilda A.N.Kononovning “Грамматика узбекского языка” kitobi ham oliy o`quv yurtlari talabalarini tayyorlashga mo`ljallangan ilk darslik bo`lib xizmat qildi. A.G`ulomov va A.N.Kononovning bu asarlaridagi umumiy jihatlar juda ko`p edi: **ega** bilan **sub`ektning**, **kesim** bilan **predikatning** bir planga qo`yib o`rganilishi ularda aniq sezilib turadi. Garchi A.N.Kononov 1960 yillargacha shu fikrda qolgan bo`lsa-da, A.G`ulomov sal ilgariroq 1955 yillarda bu fikrdan qisman voz kechgan edi (Q.: 89, 84; 90, 12-18).

Bu davrda F.Kamolning gap sintaksisi haqidagi fikrlarini birmuncha farqli qarash deb baholash mumkin. Uning “**Qo`shma gaplarga doir masalalar**” (61, 50-64) kitobida sodda va qo`shma gaplarni farqlashda, bir tomondan, eganing ifodalanishi materialini hisobga olsa, ikkinchi tomondan, ega va kesimning **distant holatini**, uchinchi tomondan esa, kesimlarning o`ziga mos keluvchi ega bilan ta`minlash mumkin yoki mumkin emasligi nazarda tutildi. Biroq olim bir umumiy egaga ergashuvchi kesimlarning morfologik tuzilishiga ahamiyat bermadi. F.Kamol qo`shma gapni baholashda ega bilan cheklanib qolmaslik masalasini birinchi bo`lib ko`tarib chiqdi; diqqatni kesim va uning tuzilishiga ham qaratilishi lozimligini ta`kidladi (66, 17). Ammo uning bu fikri 80-yillargacha rivojlantirilmadi.

Yevropa tilshunosligining gapning ikki tarkib (“**Ega-kesim**”)dan iborat bo`lishi, **egasiz gaplarning bo`lishi mumkin emasligi** haqidagi ta`limoti **sub`ektning hokimligi**, predikatning unga tobeligi bilan, ya`ni mantiqiy hukm bilan mustahkamlanar edi. Shuning uchun o`zbek tili sintaksisini o`rganishda, dastavval, ega yo`nalishi bosh yo`nalish bo`ldi. Shunday asosda prof. A.G`ulomov, G`Abdurahmonov, M.Asqarovalarning tadqiqot ishlarida sodda va qo`shma gap haqidagi mukammal ta`limot ishlab chiqildi. Sodda gapning sintaktik qurilishi Yevropa tilshunosligi negizida yaratilgani bois, gapning minimal qurilishi ikki bosh (ega va kesim) bo`lakli degan yondashish, sodda gap qurilishi talqinida tayanch yo`nalish mavqeini kashf etdi. Qo`shma gap sintaksisi ham shu yo`nalishda rivojlantirildi (7; 9; 25; 27; 33; 63; 70; 90; 114).

80-yillardan keyingi davrida o'zbek tilshunosligi sistem grammatika tomon yuz burdi. Bunga "Tezislar" mualliflarining xizmatlari alohida e'tiborga sazovordir. Bu yo'nalish bo'yicha keyingi tadqiqotlarning lisoniy yondashuviga ahamiyat berilib, **gapning eng kichik qurilishi qolipi** alohida asos sifatida qabul qilindi. M.Abuzalova, Sh.Akramov, M.Boshmonov, Z.Yeraliyeva, B.Mengliev, S.Nazarova, L.Raupova, R.Sayfullayeva va boshqalar sodda va qo'shma gaplarni lisoniy bosqichda o'rganishga e'tibor qaratib, ijobiy natijalarga erishdilar(13; 29; 38; 42; 54; 66).

Xullas, o'zbek tili ilmiy grammatikasi yarim asrdan ziyod davr mobaynida shakllanish bosqichini boshidan kechirdi. Ammo sintaksis bilan aloqador til va nutq masalalari uzil-kesil hal etilmay qoldi.

## **1.2. Hozirgi o'zbek adabiy tilida gap qurilishi talqini**

Sistem tilshunoslik sohasida olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ravshan bo'ladiki, gap haqida berilgan yuzlab ta'riflar uning yagona asosini topishga yordam bermaydi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, **til va nutq** hodisalari uzoq yillardan buyon farqlanmasdan kelindi va bunga zamin tayyorlashga o'sha davr tuzumi yo'l bermasdi. Bu haqda yuqorida qisman bayon qilindi. Ammo shu o'rinda aniqlik kiritish uchun takidlash joizki, **til va nutq** hodisalarini farqlanishi, bu - hodisalarni bir-biridan ajratib tushunish emas, balki sistem-strukturaviy jihatdan ularning nazariy xosalariga aniqliklar kiritishni soddalashtirishdan iboratdir. Bizningcha, tadqiqotchilarimiz (ba'zi bir an'anaviy yo'nalish tarafdorlari) o'rtasida har bir tilshunoslikda erta yo kech yuz berishi mumkin bo'lgan bu tabiiy holat va o'zgarishlarni — jahon tilshunosligida tan olingan strukturalizm g'oyalarini o'zbek tilshunosligiga ham zoram-zuraki olib kiritilishi deb baholashlari to'g'ri emas. Zero, V. Gumboldt qarib ikki asr avval: «**Har qaysi tilning o'z sistemasi bor, tilshunos shuni tadqiq qilishi kerak**» deb bejiz aytmagan edi. Shuningdek, sistem-struktur tilshunoslik nazariy qarashlarini rukach qilib, an'anaviy tilshunoslik natijalaridan uzoqlashib ketish ham yaramaydi. Biz tilimizning tizimiy xususiyatlarini strukturalizmdan emas,

balki uning o'zidan izlashimiz lozimdir. Har qanday nazariya ma'lum darajada tadqiqot ishi uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi, xolos. Tilshunos ana shu jihatlarni ham inobatga olishi foydadan xoli bo'lmaydi. Ayni kunda bu ham muhim dolzarb masalalardan biri va uning tobora o'z yechimini topayotgani XXI asr o'zbek tilshunosligi taraqqiyoti uchun quvonchli holat sifatida qabul qilinishi ayni muddaodir... .

O'zbek tili sintaksisi darslik va qo'llanmalarida gap haqida turli-tuman ta'rif va talqinlar uchraydi. Biroq aytish mumkinki, bularning barchasi gap sintaksisi haqidagi yagona qoida bo'lmasdan, balki umumiy xulosalardir: ularning barchasida ham gap haqida qat'iy va mukammal ta'rif berilmagan. Bu shundan dalolat beradiki, uzoq yillar davomida gap haqidagi ta'limot tilimizning ichki xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganilmagan va yaratilmagan. Shuning uchun ham ularning barchasida gap sintaksisiga doir umumiy va takroriy xulosa va natijalarning rang-barang jihatlarni fahmlab olishimiz qiyin bo'lmaydi. Chunonchi, buni "*Hozirgi o'zbek adabiy tili*" darsligida (97) berilgan ta'rifdan ham bilib olish mumkin: "**Ma'lum fikrni ifodalovchi gap nutqning bir qismidir. Til, nutq orqali kishilar o'z fikrlarini, maqsadlarini, his-hayajonlarini ifodalaydi**". Shunday xulosa M.Asqarova, H.Abdurahmonovlarning "*O'zbek tili grammatikasi praktikumi*" (14, 131) darsligida birmuncha to'ldirish bilan berilgan: "**Gap fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradigan, turli his-tuyg'ularni ifodalaydigan bir so'z yoki bir necha so'zlar yig'indisi, nutqning grammatik jihatdan shakllangan nisbiy intonasion tugallikka ega bo'lgan qismidir**". Xuddi shunday ta'rif "*O'zbek tili grammatikasi*" (II, Sintaksis. Fan, Toshkent, 1976) da aynan o'z ifodasini topgan va davom ettiriladi: "**Gapdagi so'zlar bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ularning har biri gapda biror grammatik funksiyani - gap bo'lagi vazifasini bajarib keladi**." O'z-o'zidan ravshanki, gapning bu ta'rifida ham «O'zakademnashr»dagi qonun qoidalar asos qilib olingan. Shuning uchun ham qator tilshunos olimlar o'z darsliklarida shu yo'lni tutishadi. Buni A.R.Sayfullayevning "*O'zbek tili*" (Eksperimental darslik, 7-sinf)sida ham

uchratamiz: “Tugal fikr anglatgan soʻz yoki soʻz birikmasi gap deyiladi. Gap tugal fikr anglatadi. U soʻzlar vositasida tarkib topadi. Har bir gap intonatsion tugallikka ega boʻladi.” (61, 210).

X.Abdurahmonov va E.Shodmonovlarning taʼriflari birmuncha farqli koʻrinadi: “Fikr gap orqali bayon qilinadi. Gap orqali fikr bayon qilish bilan birga voqelikka munosabat ham bildiriladi. Fikr bayon qilish uchun grammatik shakllangan, intonatsion va mazmun jihatidan nisbiy tugallikka ega boʻlgan yakka soʻz yoki soʻz bogʻlamasi gap deyiladi” (6, 156). Bulardan xulosa shuki, gap haqidagi taʼrifu tavsiflar, rus tilshunosligi maktabi namoyandalari V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiylarning qarashlari asosida oʻzbek tiliga oʻgʻirilgan edi. V.V.Vinogradov yozadi: “Gapning xarakterli ikki belgisi bor: 1. Xabar yoki darak intonatsiyasi. 2. Predikativlik. Ana shunday ikki belgi mavjud boʻlganida soʻzlovchining obʻektiv borliqqa munosabatini va taqriban tugallangan jihatdan tashkil topgan nutq birligi, yaʼni gap tuza oladi (104, 79-80).

Oʻzbek tilshunosligida bu nazariyaga asosan bajarilgan barcha tadqiqot ishlarida “Gapning xususiyati, birinchidan, soʻz yoki soʻzlarning grammatik butunligini tashkil etishi, ikkinchidan, gap fikr, buyruq yoki biron emosiya, his va tuygʻuni ifodalash uchun xizmat qilishi, gap grammatik shakllangan nutq birligi” ekanligi taʼkidlanadi (4; 6; 8; 33; 52; 57; 61; 69; 70; 72; 75; 80; 93; 94).

Shunday tadqiqotlar ichida A.Gʻulomov, M.Asqarovalarning gap haqidagi taʼriflari ancha mukammaldir: “Nutqning bundan keyingi qismlarga ajralishi uning fikr bayon qilish xususiyatini yoʻqotadi... . Gap (grammatik jihatdan tashkil topgan, sostavidagi elementlari bir yaxlit holga kelgan, semantik, intonatsion butunlikka ega boʻlgan sintaktik birlik, u fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradi, shu bilan birga, emotsiyalarni – his-tuygʻularni bildirish uchun ham qoʻllaniladi. Nutq-tilning realizatsiyasi. Nutq gaplardan iborat boʻladi. Gap-nutqning tugallangan (nisbiy tugallangan), fikr ifodalaydigan boʻlagi. Har bir tugallangan fikr soʻzlar yigʻindisi yoki ayrim

bir soʻz bilan ifodalanadi: gap, odatda, soʻzlarning grammatik qonun-qoidalar asosida birikuvi bilan hosil boʻladi. Soʻzlarning birikuvidan tuzilgan bu konstruksiya nutqning fikr anglatadigan eng sodda qismidir” (92, 154-157).

Koʻrinishidan bir-birini toʻldiradigan bu fikr-xulosalar gap sintaksisi haqida, umuman, chuqur va puxta maʼlumot hisoblansa-da, biroq gapga bir yoqlama – nutq birligi sifatida yondashilgani ayon. Shuning uchun ham anʼanaviy grammatikaga doir koʻpgina tadqiqotlarda (4; 6; 7; 18; 25; 55; 71; 75; 91; 114; 132) gap asosini topish borasida bahs-munozaralar uzoq tortishuv va ziddiyatlarga sabab boʻlib keldi. Buning asosiy sababi gʻarb tillariga xos boʻlgan **“Subʼekt — predikat” (S — P)** munosabatlari asosida qurilgan gaplarda mantiqiy asos birlamchi hisoblanadi. Bu esa, oʻzbek tilida gap qurilishini **“Ega + kesim”** munosabatlarida koʻrish mumkin degan xulosaga olib keldi (8; 14; 52; 92; 93; 114). Bunday tushuncha oʻzbek tili gap sintaksisi uchun gʻayri tabiiy hodisa edi. Aniqrogʻi, oʻzbek tilini rus grammatikasi andozalariga solish, uni sunʼiylashtirishga yoʻl qoʻyib berildi. Shu sababdan **“ega — kesim”** qurilishidan chetda qolgan hodisalar ham koʻzga yaqqol tashlanadi. Chunonchi, bir bosh boʻlakli gaplar (yaʼni shaxsi aniq, shaxsi topilmas, shaxsi umumlashgan, shaxssiz, atov va soʻz-gaplar) va boʻlaklarga ajralmaydigan gaplar **“ega gapda mutlaq hokim vaziyatda boʻladi. Kesim egada ifodalangan shaxs, predmet, hodisaning umumiy belgisini bildiradigan boʻlakdir. Kesim egaga tobe, oʻziga taalluqli boʻlaklarga nisbatan hokim boʻladi”** degan nazariy qarashga zid edi (92, 154-157). Zukko tilshunoslarimiz ushbu masalaning bunday jihatlariga ham amaliy javob izlab topishga harakat qilishdi. Gʻ. Abdurahmonov (8, 7-8) bu ziddiyatli fikrga nisbatan oʻziga xos taʼrif berdi: **“Gap boʻlishi uchun, albatta, oʻz egasi bilan shaxsda, sonda moslashgan feʼl (Verbum finitum) boʻlishi shart emas. Maʼlum maqsad, fikr ifodalagan, predikativ munosabati mavjud boʻlgan qurilmalar, hatto ayrim soʻzlar ham gap sanaladi. Gapning asosiy belgilari predikativlik, modallik, unda maxsus ohangning boʻlishidadir”**.

Ko`rinadiki, sintaksis o`nlab tadqiqotlar markazida bo`lib, biroq uning nutqiy hosilalardagi asosiy belgilaridan tashqarida, ya`ni til bosqichida gap qurilishining qolipi mavjud bo`lishi haqida hech qanday fikr aytilmagan. Bunga sabab o`zbek tilshunosligida gap sintaksisini lisoniy bosqichda o`rganishga ancha kech kirishilganidir.

80-yillardan boshlab, til va nutq ixtilofiga asoslanib, sistemaviy yo`nalishda *“Tezislar”* mualliflarining (127, 5-10; 128, 3-8) bunga qat`iy jur`at etganliklari quvonchli hodisa bo`ldi va amalga oshirilgan keyingi tadqiqotlarni shunga javob deb baholash mumkin (15; 27; 34; 37; 54; 66; 103). Tadqiqotchi M.Abuzalova gapga lisoniy birlik sifatida yondashib, uning mohiyatini quyidagilarda ta`riflaydi: **“Gaplar nutqiy hosilalar sifatida qanchalik cheksiz ko`rinishlarga ega bo`lmasin, ular tilda alohida umumiylikka ega. Bu umumiylik gap vazifasida kela oladigan istagan qurilmada mavjud bo`lishi shart va zarur. Bu umumiylik o`zbek tilidagi gapning eng kichik qolipi tushunchasini yoritish bilan bog`liq”** (13, 10-36) dir. Tadqiqotchi-olima sodda gapning lison//nutq munosabatidagi hodisalarni aniqlab isbotladi.

### **1.3. Gapga lisoniy bosqichda yondashish va gapning eng kichik qurilish qolipi masalalari**

O`zbek tilshunosligida tilning sistemaviy talqinida sintaksis boshqa sohalarga qaraganda nisbatan nomukammal va kam o`rganilgan. A.G`ulomov (90; 92, 20), G`. Abdurahmonov (6, 7-8), M.Asqarova (14, 117), A.Sayfullayev (61, 67), X.Abdurahmonov, E.Shodmonov (6, 15) kabi o`nlab tadqiqotchilar tomonidan sodda gapga berilgan ta`riflarda gapga *“nutq parchasi”* deb tavsif beriladi. Boshqacha qilib aytganda, bunday tadqiqotlarda gap nutq birligi sifatida qaraladi. Nutq birligi esa mohiyatan hodisadir. Hodisalar esa, cheksiz va rang-barangdir (90, 20-30). Shuning uchun bu tadqiqotchilarning bergan ta`riflaridan birortasi ham gapning barcha nutqiy ko`rinishlarini o`zida mukammal qamrab olmaydi va nutqiy gaplarning bir turiga berilgan ta`rifdan nariga o`tolmaydi. Shu sababdan so`nggi yillarda til sintaktik kurilishining sistemaviy tahlilini

o'rganishga katta e'tibor berildi. M.Abuzalova, A.Berdialiyev, O.Bozorov, N.Mahmudov, S.Nazarova, H.Ne'matov A.Nurmonov, R.Rasulov, H.Saidova, R.Sayfullayeva, I.Qo'chqortoyev (13; 17; 24; 31; 48; 50; 59; 66; 88) kabi olimlarning ishlarida gapning sistemaviy tadqiq asoslariga tayanildi. Natijada, o'zbek nutqida sodda va qo'shma gaplarning umumiy qoliplari aniqlab berildi; gap qurilishini lisoniy bosqichda o'rganish o'zbek tilshunosligida muhim hodisa bo'ldi va uning nazariy asoslari yaratildi (13; 39; 40; 45; 48; 66; 126; 127).

O'z ildizini shveysariyalik tilshunos-olim F. de Sossyur ta'limoti (136, 695;) dan olgan sistemaviy tilshunoslikda gap nutqiy hosila sanalib, til birligi sifatida gapning o'zi emas, balki uning qurilish qolipi (modeli) mavjud ekanligi faqatgina XX asrning 80-yillarida o'zbek tilshunosligida ham tan olindi. Bu ta'limot asoslari bir guruh olimlarning **"Tezislar"**ida yoritib berildi (126, 206-208; 127, 5-10). Bunda gapning eng kichik qurilish qolipi shartli ravishda [WPm] belgisi ostida ifodalanadi. Bu ramz gapning umumiy mohiyati va qolipi hisoblanib, lisoniy bosqichda ma'lum bir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun u sistemaviy tilshunoslikning tadqiq manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Chunki lison va nutq hodisalarini farqlash, lisoniy va nutqiy bo'laklarga alohida-alohida qarash hamda o'zgacha yondashish va nisbat berish sistemaviy tilshunoslikning negizini tashkil etadi. Demak, [WPm] gap modelidir. Bu model gap sintaksisining markaziy tushunchasi hisoblanadi. **"Gap modeli qanaqadir "formal sxema" bo'lmay, balki o'zida turli xil maxsus belgilarni mujassam etgan gap qurilishidir"** (127, 5-10).

Formal-funksional **"Tezislar"** mualliflari to'g'ri ta'kidlaganlaridek, [WPm] **"gap sintaksisining – bu tillarning ichki xususiyatlaridan kelib chiqadigan holda yangi talqini ishlab chiqish uchun tayanch nuqtalar ko'rsatkichi"**dir, ya'ni kesimlik kategoriyasini o'zida ifodalagan lisoniy belgidir (128, 3-8). M.Abuzalova ham o'z tadqiqotida **"Tezislar"** mualliflarining fikrlarini asos qilib olgan holda, [WPm] – **"shakl-vazifaviy talqini bo'yicha sodda gapning eng kichik qolipini – atov birligi + kesimlik kursatkichlari"** dan iborat deb baholaydi. Shuningdek, bu qolipning nutq sharoitida minglab

muayyan shakllarda yuzaga chiqishini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, [WPm] gapni o'rganish uchun til sathidagi eng kichik qolip hisoblanib, u gapning "joni"dir (13; 103; 27; 37; 65). Ya'ni, til va nutq dixotomiyasida bu lisoniy qurilma (qolip) sintaktik gapdan ana shu ma'noda farqlanadi va gapning xuddi mana shu lisoniy qolipi – [WPm] o'zining modal, shaxs-son, zamon va makon kengaytiruvchilarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun gap kesimini shakllantiruvchi vositalarning xilma-xilligi ularning bir morfologik kategoriya – kesimlik kategoriyasi sifatida tan olinishiga monelik qilmasligi kerak. Bu morfologik kategoriyaning umumiy ma'nosi tasdiq//inkor, mayl//zamon, shaxs//son paradigmatlari ma'nolari butunligidan, barqaror yig'indisidan hosil bo'ladi (13, 10-36; 65, 42-47; 66, 28-64; 103, 16; 128, 3-8). Umuman, [WPm] modeli bilan berilgan gapning eng kichik qurilish qolipi (qisq.: GKQQ)da atov birligi va kesimlik kategoriyalari ma'nolari sof lisoniy ma'nolar tarzida ifodalanadi, ya'ni [WPm] ramzining ifodalanishi mohiyatan lisoniy bo'lib, falsafiy tabiatiga ko'ra umumiylik (sabab, mohiyat, imkoniyat) sifatida mavjuddir. U nutqda xususiylik (natija, hodisa, voqea) tarzida sodda gaplar orqali namoyon bo'ladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, [WPm] lisoniy bosqich bo'lib, bevosita kuzatishda berilgan gaplar esa, shu qolipning hosilalari hisoblanadi. Bu qolip sodda gapning "o'zagini" tashkil etadi. Ixcham ifodalanishda (so'z kengaytiruvchilari bilan kelmagan holatlarda) gap kesimiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda sintaktik nazariyaning gap haqidagi quyidagi talqiniga asoslanadi:

1. GKQQ til birligi (ongimizda mavjud) umumiy birlik bo'lib, u nutqimizda fikrni til qoidalariga mos shakllangan tarzda yuzaga chiqishi uchun imkoniyatdir.

2. GKQQni belgilashda uning tashqi ko'rinishi, ichki qurilishi va mohiyatini ajratish lozimdir.

3. GKQQdan o'rin oladigan tarkibiy qismlarning mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik) jumladan, lug'aviy birliklarning ma'noviy-sintaktik



birikuvchanligiga asoslaniladi. GKQQdan lug'aviy birliklarning kengaytiruvchilari (aktantlari) va ularni ifodalovchilar chiqarilishi lozim.

4. O'zbek tilida GKQQni belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy farq hamisha diqqat markazida bo'lishi zarurdir.

Ana shunday to'rt asosga tayanib, GKQQning tarkibi [WPm] sifatida belgilangan. Bunda [W] kesimning, gap kesimining atash, ma'no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo'lib, mustaqil so'z turkumiga oid bo'lgan, ya'ni kesim vazifasida kela oladigan so'zga, so'z birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, ibora, harakat nomlari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, [W] til qolipidagi imkoniyat bo'lib, u nutqda atov birligi vazifasini o'tay oladigan istagan birlik bilan nutqqa kiritilishi mumkin. [Rm] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo'lib, u nutqda kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari sifatida voqelanadi. Ya'ni [Rm (kesimlik ko'rsatkichlari shakli) = N+M+T+P] dir (13, 10-36; 66, 28-64; 127, 5-10). Bu yerda N-inkor/tasdiq, M-modallik, T-zamon, R-shaxs/son ma'no va ko'rsatkichining majmuasidir. Gapning minimal tarkibi (qisq. GMT) deganda, kesim tarkibidagi ma'lum bir semantik informatsiyani (axborotni) tashuvchi so'z formasi (shakl) tushuniladi (127) va kesimning bu qismi so'z va so'z birikmasi, hatto frazeologik birlikka (13,127) ham teng bo'ladi. Misol uchun, "Baxt. Orziqib kutilgan baxt. Uning baxti kuldi" gaplari bir-biriga bir tarkiblilik bilan o'xshash, biroq qurilish materiali bilan farqlanadi: birinchi gap ot so'z turkumi bilan, ikkinchisi so'z birikmasi va uchinchisi ibora bilan ifodalangan. Uolles L.Cheyfnig (138, 116) "gap asosida fe'l (kesim) va uning atrofidagi boshqa so'zlar yotsa, yuqoridagi misollar kabi gaplarga qanday yondashish kerak?" degan savoliga GKQQ asosida javob berish mumkin. "Tezislar" mualliflari GMT deganda, kesimlikning belgilarini o'z ichiga olgan har qanday so'z forma (shakl) larini tushunadilar (127, 5-10). Bu fikr, darhaqiqat, to'g'ri. Chunki yuqoridagi so'z formalari grammatik nuqtai nazardan to'la shakllangan, ya'ni GMT [W] atov birligi [Rm] kesimning formal

ko'rsatkichlariga mos tushadi. Demak, [WPm] modeli o'zbek tilida qo'llaniladigan turli xil tuzilishli gaplarni o'z ichiga qamrab olishi tabiiydir (65, 42-47).

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida bu masala faqat bir yo'nalishda — morfologik shakllangan, ya'ni [WPm] qurilishiga ega bo'lgan gaplar tahlili nuqtai nazaridan o'rganilgan. Bunday qurilishga ega bo'lgan gap larning asosiy xususiyati shundan iborat bo'ladiki, bu gaplarda [Pm] ko'rsatkichlari [W] -atov birligidan ajralgan bo'lib, turli zamon, mayl, shaxs-son shakllariga ega bo'la oladi. Bu gaplar doim morfologik paradigmalarda turadi va xilma-xil shakllarda yuzaga chiqadi. Chunonchi, “*Mustaqillik. Bahor. Tinchlik.*” kabi ( atov, nominativ) gaplar ham zamon (hozirgi zamon), mayl (aniq mayl), shaxs-son (birluk, III shaxs) kesimlik ko'rsatkichlariga egadir. Bunday misollarda [W] — atov birligining (Rm) kesimlik ko'rsatkichlari mavjud. Bulardan tashqari yana bir xil gaplar ham borki,<sup>1</sup> ular zamon, mayl, shaxs-son, tasdiq-inkor shakllariga to'laqonli ega bo'la olmaydi (20, 44-47). Lekin bu gaplarda predikativ ma'no va predikativ vazifa (kesimlik ma'nolari — fikrni shakllantirish, borliqqa, nutq momentiga munosabatni ifolash) yo'q emas. Shuningdek, bunday gaplar ma'lum bir paradigmani ham hosil qilmaydi. Ta'kidlash muhimki, bunday gaplarda predikatsiya bor, lekin predikativ shakl o'z ifodasini topmagan. Shuning uchun bunday gaplarning gap sanalishiga sabab ularning semantik-funksional shakllanganligidadir. Bu turkum gaplar alohida o'ziga xos o'lchovga ega.

Aytish mumkinki, bunday atov birliklarida predikatsiya shu so'zlarning lug'aviy ma'nosida yashiringan va lug'aviy ma'noning tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Shu jihati bilan tadqiq qilinayotgan gaplarning eng kichik qurilish qolipi — [WPm] dan farqlanadi. “**Tezislar**” mualliflari ishlarida ham, sistem

---

<sup>1</sup>Misol uchun *Albatta, Rahmat, Ehtimol* kabi; ularning gaplik xususiyatlarini aniqlab berishda chalkashliklar mavjud... Qarang: 19,42-46; 20,53-56; 22,44-45.

tilshunoslik nuqtai nazaridan qilingan tadqiqotlarda ham bu turkum gaplar xususida ba'zi bir ma'lumotlar ta'kidlab o'tilgan. Ammo bunday hodisalar sodda gap qurilishining alohida o'ziga xos bir ko'rinishi ekanligi, uning lison//nutq bosqichida asoslanishi qanday bo'lishi kerakligi masalasi o'zbek tilshunosligida tadqiq etilmagan (Q. ; 20,44-47).

Yuqorida ma'lum bo'ldiki, o'zbek tilidagi ko'p so'zlar [Rm] ifodalaydigan ma'nolar (tasdiq//inkor, mayl//zamon, shaxs//son)ga neytral (befarq)dir. Shuning uchun ham [Rm] bunday so'zlarga qo'shilib har xil kesimlik ko'rsatkichlari ma'nolarini yuzaga chiqaradi va gap markazini shakllantiradi. Chunonchi, bularni quyidagi paradigmalardan yana bir karra ko'rib o'tish foydadan xoli bo'lmaydi:

.....kelaman.	.....kelmayman .
.....kelsam .	.....keldim .
.....kelarman.	.....kelmoqchiman va h.z.

Ko'rinib turibdiki, [W] atov birligidagi **kel** so'zining imkoniyat darajasini belgilaydigan vosita, ya'ni [Pm] kesimlik ko'rsatkichlari turli xil ma'nolarni yuzaga chiqishida asosiy markaz vazifasini o'taydigan shunday leksemaga yordam beradi. Yana bir misol:

*Muhandis.*

*Muhandisman.*

*Muhandis esam.*

*Muhandis edim.*

*Muhandis bo'lsam*

kabi gaplarda ham bir so'z-leksema atrofida [Pm] ning turli xil ma'nolari o'z ifodasini topganini ko'ramiz. Bunday gaplar [Pm] uchun xos bo'lgan ma'nolar bilan birga o'z ichki qatlamidagi paradigmalarga ham egadir — ular bir nechtadir:

*1. Tasdiq-inkor,*

*2. Mayl,*

*3. Modallik,*

*4. Zamon,*

*5. Shaxs-son.*

Bundan ma'lum bo'ladiki, [Pm] istagan atov birligiga nutqiy gap mavqeini ta'minlab beradi, ya'ni istagan atov birligi [Pm] vositasida ma'lum bir paradigmada turgan muayyan bir shaklni qabul qilgach, ma'noviy va intonasion butunlikka ega bo'lgan nutqiy gap sifatida yuzaga chiqadi. Bundan biz [Pm]

GKQQ ni shakllantiruvchi asosiy grammatik omil ekanligi va u atov birliklaridan tashqari turishi haqida xulosa chiqara olamiz. Boshqacha qilib aytganda, atov birliklari (*so`z, so`z birikmasi, kengaygan birikma, iboralar*) ning kesim mavqeini egallashlariga [Pm] imkoniyat yaratib beradi va bu potensial gapning negizini tashkil etadi. Endi shu masalani batafsil ko`rib o`tishga o`tamiz.

#### **I.4. Predikatsiya va kesimlik.**

Sistem tilshunoslikda **til** va **nutq** hodisalarini farqlash asosiy mezon hisoblanadi (49, 42-46;). Dialektik qonuniyatlarga ko`ra til aloqa-aralashuv vositasi sifatida umumiylik, nutq esa xususiylik belgisidir (105, 201-245; 106, 248; 54, 28-43). Har bir inson o`z nutqini til orqali ifoda etadi. Shu sababdan bunday birliklarning farqli jihatlarini aniqlab olinadi. Chunonchi, **fonema, leksema, morfema, qolip** til birliklarini tashkil etsa, **harf, bo`g`in, so`z, so`z birikmasi, gap, mikrotekst va makrotekstlar** nutq birliklarini tashkil etadi (43, 20-30).

F. de Sossyur ta`limoti bo`yicha **til tashqi tomoniga ko`ra ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko`ra belgi va ishoralar sistemasidir** (136, 695). Tildan jamiyatda hamma kishilar foydalanadi, chunki til hamma uchun umumiy va majburiydir. Nutq esa xususiy bo`lib, u hamma uchun har xil. Kimning fikri ravshan, nutqi ravon bo`lsa, u chiroyli gapiradi, oratorlik (va`zxonlik) qobiliyatiga ega bo`ladi. Aksincha bo`lsa, u shundan mahrumdir. Demak, bu imkomiyatdan hamma bir xil foydalana olmaydi. Gapira olmaydigan odam (soqov bo`lsa) dan nutqning hamma turini teng talab qilib bo`lmasligini hamma biladi. Darhaqiqat, til imkoniyat bo`lsa, nutq natijadir. Bundan anglashiladigan xulosa shuki, kesimlik kategoriyasi ham lison//nutq talqini asoslaridan biri sifatida gap qurilishini asoslash uchun xizmat qiladi.

«*Tezislar*» mualliflari ta`kidlaganlaridek, kesimlik kategoriyasi sof morfologik kategoriya hisoblanadi. Shu sababdan uni predikativlik tushunchasidan farqlash zarur. Ko`plab lingvistik tadqiqotlarda predikativlikni

gap bilan aloqadorlikda, ya'ni gapning gapligini "ega — kesim" va "predikativlik" munosabatida o'rganib kelishgan (9; 10; 23; 52; 61; 30; 70; 81; 89; 91; 114; 132). Ma'lumki, gap nutqiy hodisa sifatida g'arb tilshunosligida ancha oldinroq atroflicha o'rganilgan va ta'riflangan edi. Chunonchi, V.A.Admoning ta'rificha (99, 365), gap ko'p aspektli hodisadir. Uning yetti aspekti mavjud:

1. Gapning mantiqiy grammatik aspekti;

2. Modallik aspekti;

3. Fikr tugalligi aspekti;

4. Gapning nutq holatidagi o'rni aspekti;

5. Gapning qurilish shakli aspekti;

6. Gapning emotsionallik aspekti;

7. Gapning kommunikativlik maqsadi aspekti.

Olimning fikricha, **predikativlik** gapning mantiqiy grammatik va qurilish shakli aspektlarida namoyon bo'ladi. Shu sababdan u predikativlikni ega va kesim (*qurilish darajasiga ko'ra*), hodisa va voqelik (*kommunikativ maqsadiga ko'ra*), shuningdek, sub'ekt va predikat (*mantiqiy, hissiy-emotsional va ma'naviy holatiga ko'ra*)ning o'zaro hukmiy munosabatlari asosida belgilashni ma'qullaydi. Bundan ayon bo'ladiki, predikativlik, ya'ni mantiqiy hodisa grammatik hodisa bilan aralash holda ta'riflanadi. O'zbek tilshunosligida, jumladan, A.G'ulomovning gap sintaksisiga oid ta'limotida (92, 5-29) bu hodisalar to'g'ri farqlangan. Ammo unda "grammatik **ega + kesimning logik sub'ekt + predikatga** mos kelmaslik hollari tildagi real hodisa" ekanligi ta'kidlangan bo'lsa-da, "**gapning xarakterli belgilari predikativlik va intonasiyadan iborat**" ligi, bu belgilar gap tushunchasi uchun asos, gapni shakllantirish vositasi bo'lishi kabi bir-biriga zid fikrlarga duch kelinadi (Q. 92,5-6). Bizningcha, A.G'ulomov Yevropa tilshunosligi, jumladan, rus grammatikasi o'zbek tili uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilayotgan o'sha davrda V.A.Admoning yuqoridagi fikrini tasdiqlagan ko'rinadi. Jumladan, gap sintaksisini otaxon tilshunosimiz shunday ta'riflaydi: "**Gapni predikatsiya shakllantiradi, bu grammatik kategoriya umuman gapga xos xususiyat. Predikativlikni kesim ko'rsatadi**" (92, 37). Biroq bu fikrga qo'shilib

bo'lmaydi, chunki har qanday holatda ham predikativlik mantiqiy hodisadir. Zero, unda mantiqiy omil birlamchi hisoblanadi. Uning asosida esa hukm yotadi. Shuning uchun ham u gapning grammatik asosini belgilashga xizmat qilmaydi. Bu fikrni tadqiqotchi-olima M.Abuzalova ham o'zining dissertasiyasida tasdiqlaydi: **“Predikativlik sof mantiqiy kategoriya bo'lib, harakat va uning sohibi kabi voqelikdagi munosabatlarning inson ongida aks etishidir”**(13, 10-16). Kesimlik kategoriyasi predikativlik kategoriyasidan mohiyatan farq qiladi. Sistem tilshunoslikda, chunonchi, turkiy tillar grammatikasini o'rganishda bu kategoriya alohida grammatik kategoriya sifatida qaraladi (15; 18; 20; 27; 31; 34; 41; 48; 54; 59; 65; 103; 123; 125). Ko'rib o'tganimizdek, bu kategoriya maxsus morfologik kategoriya hisoblanadi va uning ahamiyatli jihatlari formal-funksional tahlil mualliflari **“Tezislar”**ida ajratib ko'rsatilgan (Q.: 127, 5-10; 128, 3-8). Undan ma'lumki, kesimlik kategoriyasi turkiy tillar uchun o'ziga xos o'zgacha qarash bo'lib, unda dialektik qonuniyatlar asosida lison/nutq hodisalari farqlanadi.

Avvalgi bandlarda o'zbek tilida gapning lisoniy bosqichdagi eng kichik qurilish qolipi **[WPm]** ekanligini ta'kidlab o'tgan edik. Shu asosga tayanib, sodd gapning nutqiy va lisoniy qurilishidagi farq va tafovutlar ochib berildi. Turkiy tillar oilasida eganing gap qurilishidagi zaruriy va majburiy bo'lagi hisoblanmasligini faqatgina shu kategoriya zamirida isbotlash mumkin. Shuning uchun bu kategoriya bir tarkibli gaplarni tamoman yangicha, turkona talqin etishga asos bo'la oladi (5; 20; 39,31-34; 46,22-28, 59,21-35; 123; 125,44-50).

Mantiqiy **“sub`ekt + predikat”** (ya'ni predikatsiya, predikativ aloqa)ning mohiyatan **“ega + kesim”** — gap tarkibiy qismlari orasidagi grammatik munosabatlardan farqlanishi Arastu zamonidan hozirgacha tilshunoslar va mantiqshunoslar tomonidan takror va takror ta'kidlanib kelinsa-da, amaliy grammatik talqinlarda tilshunoslar bu ikki hodisani tez-tez qorishtiradi. Yuqorida biz o'nlab tilshunoslarning gapga berilgan ta'riflarida **“predikatsiya”, “predikativ aloqa”** til uchun muhim hodisa qilib olinganligining guvohi bo'ldik. Vaholanki, **predikatsiya mantiqiy atama va mantiqiy hodisa in'ikosidir**. Tilshunos yarim

mantiqiy, yarim lisoniy, aralash-quralash hodisa bilan emas, balki lisoniy grammatik mohiyatni aks ettiruvchi tushuncha va hodisalar bilan ish tutmog'i lozim. **GKQQ** dan ko'rinib turibdiki, "gapning joni" **[Pm]** dadir. **[Pm]** gap kesimini, ya'ni uning markazini *grammatik jihatdan shakllantiruvchi kategoriyaning son-sanoqsiz nutqiy ko'rinishlari umumiy ramzidir*. Bu umumiy ramzning muayyan shakllari nechta? degan savol tug'ilishi mumkin. Biz bunga faqat bitta javob bera olamiz: **uning nutqiy ko'rinishlari cheksizdir**. Buni faqat  $(a+v)^2 = a^2+2ab+v^2$  algebrik formulasida **a** va **v** ning muayyan ko'rinishlarining soni nechta bo'la olishi bilan qiyoslash mumkin. Ma'lumki, bu formulada **a** va **v** mavqeini istagan musbat yoki manfiy, butun yoki kasr son egallay oladi va bunday sonlarning miqdori cheksizdir.<sup>1</sup> **[Pm]** ham xuddi shundaydir—**o'zbek tilida grammatik kesimning barcha muayyan shakllari shu ramz tomonidan qamrab olinadi**. Tasdiq//inkor, mayl//zamon, shaxs//son ma'nolari va qo'shimchalarining nutqiy, ma'noviy va moddiy rang-barangligiga bu ramz neytral (befarqdir). Bu yerda ishga aloqador bo'lgan bir xususiyatni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu ham bo'lsa, **GKQQda [W]** va **[Pm]** kabi alohida qismlar mavjud bo'lishidir. Ma'lumki, mustaqil so'zlar: **ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l va taqlid so'zlar** turkumiga oid istagan bir so'z gapda kesim vazifasida kela oladi va gap markazi mavqeini egallaydi. Bular haqidagi ma'lumotlarni o'zbek tili sintaksisi bo'yicha qalam tebratgan har bir tadqiqotchining ishidan topish mumkin. Qiziq tomoni shundaki, **[WPm]** qolipida **[W]** ham, **[Pm]** ham nisbatan mustaqil bo'lib, ular o'zaro faqat gap markazi mavqeida kelgandagina birikadi. **[W]** esa gapda xilma-xil mavqelarda kelishi mumkin. Chunonchi, (**W**<sup>qar.kel=aniqlovchi</sup>) yoki (**W**<sup>tush.kel=vostasiz to'ldiruvchi</sup>) (Q.: 37, 5 - 24). Lekin **[Pm]** qanday atov birligi bilan bog'lanmasin, unga potensial gap mavqeini beradi. Shu bois **[Pm]** atov birligi vazifasida kela olmaydigan lisoniy birliklar (Chunonchi, *fonema, grammatik morfema* va h.z.) bilan birika olmaydi. Biz bundan xulosa qila olamizki, **[Pm]** – ya'ni **kesimlik gapning negizini, asosini tashkil etadi. Demak, potensial gap mavqeini istagan [W]**

<sup>1</sup>Alimov Sh.O. va boshqalar. Algebra. Darslik. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.

ga shu [Pm] beradi. [W] ning o'zi esa kesimlikka nisbatan befarqdir. Chunonchi, [o'quvchi] leksemasini olib ko'raylik. Bu leksema gapda qanday mavqeda kelishiga nisbatan tamoman befarqdir; grammatik shakllanishiga ko'ra bu leksema gapda har xil o'rinni egallashi mumkin. Ta'kidlaganimizdek, u (W<sup>tush. kel</sup>) ning hosilasi sifatida o'quvchini shaklida gapda vositasiz to'ldiruvchi, yoki (W<sup>qar. kel</sup>) ning hosilasi sifatida qaratqichli aniqlovchi mavqelarida kela oladi. Shuningdek, [WPm] qolipining hosilasi sifatida o'quvchiman, o'quvchi emasman, o'quvchi edim, o'quvchi bo'lsam v.h. kabi minglab shakllarda kesim mavqeda ham kelishi mumkin. Demak, bunday gaplar qolipi [Rm] ning [W] ga nisbatan alohidaligi va kesimning kesimligi [Pm] bilan belgilanishi haqida muhim xulosa chiqarishga imkon beradi. Ya'ni **gapni lisoniy bosqichida – umumiy qolip bosqichida shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi yoki [Pm]dir. Bunday yondashilganda, gap mohiyatini belgilash uchun mantiqiy predikatsiyaga murojaat qilishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi.** Shuning o'zi har qanday gapda tasdiq//inkor, mayl//modallik, zamon va shaxs//son ma'nolarining mavjudligini e'tirof etadi. Lekin **gapning barcha turlarida ham kesimlik shakllari va qo'shimchalari bo'lishi shartmi?** degan savolga javob berish qiyin. Chunki nutqimizda shunday gaplar borki, ularning tarkibida kesimlik va kesimlik qo'shimchalarining moddiy ko'rinishlarini ajratish mumkin emas. O'z-o'zidan tushunarliki, bu o'rinda "Bahor. Kel. Ko'nglingni yoz" matnidagi atov va buyruq gaplar nazarda tutilmaydi; bu gaplarda kesimlik ko'rsatkichi ( moddiy ko'rinishda, morfema sifatida ) mavjud va bu hech qanday munozara-muhokamani talab etmaydi. Muhokamaga sabab bo'ladigan narsa o'zbek tilida so'z-gaplar atamasi ostida birlashtiriladigan hodisalar majmuasidir. Bu tushunchaning hajmi va chegarasi ko'p tilshunoslar tomonidan turlicha belgilanadi va uni **ko'rib chiqish, bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirish, so'z-gaplar chegarasi va mohiyatini aniqlab olish** zarurdir. Navbatdagi band shu masalaga bag'ishlanadi.



### I.5. O'zbek tilida so'z-gaplar va ularning talqini muammolari

Hozirgi o'zbek adabiy tili darsliklari, shuningdek, bir qator qo'llanma va tadqiqot ishlarini kuzatganda so'z-gaplar xususida ziddiyatli va izohtalab fikrlarga duch kelinadi (33, 53; 52, 234; 61, 67-84; 71, 32-36; 77, 3-25; 81, 37-53; 92, 37-43). Buning asosiy sabablari xususida yuqorida qisman ta'kid va izohlar berildi. Darhaqiqat, masalaga bir yoqlama – nutqiy holat deb qarash so'z-gaplarning ham o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga to'sqinlik qiladi. Zero, har bir gapning til bosqichida o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi so'z-gaplarning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish qolipi bo'lishi shart va zarurdir. An'anaviy grammatikada ham, sistem tilshunoslikda ham bu masala yetarlicha o'rganilmagan va hal etilmagan muammodir. Monografiya oldida turgan bosh vazifa ana shu muammoga munosabat bildirish, bunday turkum so'z-gaplarning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, sintaktik qurilishda uning o'rini belgilashga doir oydinliklar kiritish maqsad qilib qo'yilgan. Shu boisdan bu band zimmasiga quyilgan masala ikki tarkibdan iborat:

1. So'z-gaplarning an'anaviy tilshunoslikdagi tavsifi;

2. So'z-gaplarni lison/nutq dixotomiyasi nuqtai nazaridan o'rganish va ularning lisoniy qurilish qolipini aniqlash.

Har bir masalani alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Dastlab, shuni aytish kerakki, so'z-gaplarni ajratish o'zbek tilshunosligida V.V.Vinogradov tahriri ostida 1952 yilda Moskvada nashr etilgan "Грамматика русского языка". Т II, Ч. 2.-М., 1952 (104,30-80) da bayon etilgan nazariy qarashlar asosida shakllandi. Bu tadqiqotda, jumladan, "So'z-gaplarning umumiy tavsifi" bo'limida (1105-) shunday yozilgan: "Sintaktik jihatdan tugallangan mazmun anglatuvchi sodda gaplar orasida bir so'z yoki gap bo'laklariga bo'linmaydigan va izohlovchi so'zlari bo'lmagan butun boshli so'z birikmalari mavjud. Bunday gaplarning mazmuni oddiy ma'qullash yoki inkor etish, unga qo'shilish yoki qo'shilmaslik, yoxud oldingi aytilgan fikrga umumiy ekspressiv - modal baho berish kabilardir. Bularni "Ha" va "Yo'q" singari ma'qullash va inkor

etish soʻzlari, modal soʻzlar va yuklamalar, alohida gaplar vazifasini bajaradigan (*Toʻgʻri! Bir oz! kabi*) soʻzlar, biron bir sodir boʻlayotgan harakatga yoki fikrga emotsional baho beruvchi undovlar tashkil qiladi. **Bunday gaplar soʻz-gaplar deyiladi**” (104, 79-80). Soʻz-gaplarga shunday tavsif bergan rus akademgrammatikasi soʻz-gaplarning quyidagi turlarini ajratadi:

1. Tasdiq soʻz-gaplar (§1107-1111);
2. Inkor soʻz-gaplar (§112-1115);
3. Soʻroq soʻz-gaplar (§1116);
4. Emotsional baho ifodalovchi soʻz-gaplar (§1117);
5. Qoʻzgʻash-undash soʻz-gaplar (§1118);
6. Bir soʻzdan iborat boʻlgan koʻrishish, minnatdorchilik, iltifot, iltimos va uzr soʻz-gaplar (§1119).

Oʻrganalivotgan soʻz-gaplar 60-yillargacha oʻzbek tili darsliklaridan oʻrin olmagan. Bu atamani, maʼlum boʻlishicha, birinchi marta “*Boʻlamlarga ajralmaydigan gaplar*” ostida prof. A.Gʻulomov koʻrsatib oʻtgan edi (91). Mohiyatan bir xil maʼnoli har ikkala atama (“**Soʻz-gap**” va “**boʻlamlarga ajralmaydigan gap**” atamalari) ni fanimizga olib kirgan A.Gʻulomov “soʻz-gap” atamasini ishlatmaydi. Bizningcha, bunga sabab bunday gaplar faqat bir soʻz, baʼzan esa turgʻun birikmalar (Chunonchi, *assalomu alaykum, xayrli tun, xayrli oqshom, qadamlariga hasanot* kabilar) bilan ham ifodalanishi mumkinligi boʻlsa kerak. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, “**Soʻz-gap**” yoki “**Boʻlamlarga ajralmaydigan gap**” lar terminlari ostida birlashtirilgan hodisalar talqini oʻzbek tilshunoslari (33; 60; 63; 66; 73; 77; 92; 141) tomonidan ham turlicha talqinlarni – lingvistik terminlarning xilma-xilligini yuzaga keltirib chiqargan edi va bu uzoq yillardan buyon tortishuvlarga sabab boʻlib kelmoqda. A. Gʻulomov dastlabki tadqiqotlarida “soʻz-gap” atamasi oʻrnida “undash gap” atamasini qoʻllaydi. E. Shodmonov “*Soʻz-gaplarning baʼzi xususiyatlari*” maqolasida “**bu, bizningcha, soʻz-gap tabiatiga mos emas. Bu termin soʻz-gapning bir turi boʻlmish vokativ gap tushunchasiga mos kelishi mumkin**” (80,54) degan eʼtirozni bildiradi va unda “soʻz-gap” bilan “**boʻlinmas gap**” atamasini teng qoʻllash mumkinligini qayd etadi.

Olimlar o'rtasida, jumladan, yana bir masala — **so`z-gaplarning sintaktik qurilishi bilan aloqador muammo** ham chetda qolmagan edi. Prof. S.Usmonov so`z-gaplarning bir turi “*undov-gap*” (77,3-25) tadqiqida A.G`ulomovning “undash-gap”, “bo`laklarga ajralmaydigan gap” iga o`z munosabatini bildirib, **“bunday gaplarni sintaksisda bir tarkibli gaplarga kiritish kerakmi, yoki alohida turadigan gap sifatida qarash ma`qulroqmi?”** degan masalani o`rtaga tashlaydi. Olim o`z taklifini A.A.Shaxmatovning undovlarni bir tarkibli gaplarning “**Egasiz kesim gaplar**” guruhiga kiritganini yoqlash bilan asoslaydi va shunga muvofiq “**Egasiz undov gaplar**” deb nomlashni ma`qullaydi: **“Bunday gaplarning “kesimi” sub`ektni ham ifodalaydi. Sub`ekt tinglovchi — ikkinchi shaxsdir. Egasiz undov gaplar boshqa gaplarsiz ham, boshqa gaplar bilan ham ishlatiladi. Egasiz undov gaplar xuddi fe`l bilan ifodalangan bir sostavli gaplar kabi o`ziga qarashli undalmaga ham ega bo`lishi mumkin”**(140,247).

So`z-gaplar bilan aloqador yana bir jiddiy muammo — bunday gaplarning lison//nutq ixtilofi nuqtai nazaridan qarash edi. E.Shodmonov “*Hozirgi o`zbek tilida so`z-gaplar*” (141) nomzodlik ishida bir oz bo`lsa-da, ta`kidlaydi: **“Bir so`zli gaplarni, jumladan, so`z-gaplarni ham, aloqa vositasi — gaplashish prosessi jihatdan nutq birligi deb, ularning leksik-morfologik asosini esa til birligi deb qarash lozim bo`ladi... So`z-gaplar, gapning boshqa turlari kabi nutqda ma`lum kommunikativ funksiyani bajaradi: unda so`zlovchining ob`ektiv borliqqa munosabati o`z ifodasini topgan”** (Q.: 141, 5-10). Darhaqiqat, bu tadqiqot so`z-gaplar tadqiqi bo`yicha amalga oshirilgan yirik va unumli natija edi. Biroq undan anglashiladiki, “**so`z-gap**” atamasi, uning sintaktik qurilishi va lison//nutq ixtilofi bo`yicha bunday bir yoqlama fikrlash, albatta, hozirgi tilshunosligimizda bahs-munozaraga sabab bo`lmoqda. Nima uchun deganda R.Sayfullayeva (66) bu haqda quyidagilarni to`g`ri ta`kidlaydi: **“An`anaviy grammatikada undov, buyruq va emotsional baho bildiradigan gaplarning, tasdiq va inkorni, muomala odatlarini bildiradigan gaplarning hammasi bir guruhga — bo`laklarga ajralmaydigan gaplarga mujassamlash-**

tiriladi. Baʼzi adabiyotlarda bunday gaplar soʻz-gap deb ham yuritiladi. Formal-funksional nuqtai nazaridan yondashilganda bunday soʻzlarda soʻz turkumlarining bir-biridan ajralmagan qorishiq, yaʼni diffuz holatlarining qoldigʻi oʻzining aksini topgani va ular bir tarkibli qorishiq soʻz-gaplarni tashkil etishi koʻzga tashlanadi. Bunday soʻz-gaplar soʻz turkumlari doirasida ham sodda va qoʻshma gaplar tarkibida ham qator oʻziga xos xususiyatlarga egadir. Shu kabi hosilalar gap tarkibida kelganda **darak, soʻroq va buyruq gaplar shaklida qoʻllanilishi** uchraydi. Chunonchi: « — *Yaxshi keldingizmi?* — *Rahmat, shukur.*» gapining ikki qismi ham bir sostavli, darak mazmunidagi sodda gaplardir. Mana shunday qorishiq soʻz-gaplarning oddiy atov birliklari bilan shakldoshligi, bunday soʻz-gaplarning maʼno va vazifasiga koʻra turlari kabi masalalar hanuzgacha oʻz yechimini kutmoqda” (Q.: 66, 61; yana qarang: 92, 137-139; 89, 4-53; 102).

Oʻzbek tili sintaksisini oʻrganish chuqurlasha boʻlgan sari unda yangi va yangi muammolar, anʼana qabul qilgan shakllarga — mezonlarga mos kelmaydigan hodisalar birin-ketin koʻzga tashlanaveradi. Darhaqiqat, soʻz-gaplarning tavsifiga bagʻishlab bajarilgan qator ilmiy ishlar (10; 33; 77; 94; 102; 116; 139; 141) va ilmiy adabiyotlarda (6; 10; 61; 89; 97; 104; 107; 108; 109; 112; 117; 118; 119; 122) ularning quyidagi belgilari ajratiladi:

1. Maxsus intonasiya bilan shakllanadi.

2. Koʻpgina monologik va dialogik nutqda uchraydi.

3. Bu gaplarning shakllanishida kontekst va situatsiya ahamiyatlidir.

4. Soʻz-gaplarda shaxs, zamoni koʻrsatadigan maxsus grammatik koʻrsatkichlar boʻlmaydi, bu tushunchalar intonasiya va nutq vaziyatida maʼlum boʻladi.

5. Soʻz-gaplar, boʻlinadigan gaplar kabi tasdiq, inkor, soʻroq, hishayajon maʼnolarini ifodalaydi.

6. Soʻz-gaplar modal soʻzlar, undov soʻzlar, bosh kelishikdagi ot, taqlidiy soʻzlar, yuklamalar bilan ifodalanadi” (10, 55-75).

Xulosa qilib aytganda, S.Usmonov, E.Shodmonov, B. O`rinboev, A.G`ulomov va boshqa ayrim tadqiqotchilarning ishlarida (77; 82; 83; 91; 92; 141) so`z-gaplar nutq bosqichida tahlil etilib, ularning umumiy lisoniy qolipi ochib berilmagan.

O`zbek tilshunosligida so`z-gaplar sirasiga quyidagi turdagi so`zlar kiritiladi:

1. Tasdiq-inkor so`zlar (*Ha, yo`q, mutlaqo*) [133,4-15; 85,196; 92,138].
2. Undovlar (*Eh, oh, voh, beh-beh, hay-hay*) [77,3-25; 92,65].
3. Modallar (*Albatta, shekilli, chog`i, ehtimol*) [72; 370-371; 96,345; 116,9-22; 133,4-15].

4. Hech bir lug`aviy guruhga qo`shilmaydigan so`zlar (*Marhamat, qani, menimcha, shunday qilib, baxtga qarshi, aytmoqchi*) [67, 130; 72, 371].

Shuni ta`kidlash lozimki, yuqorida sanalgan guruhlardan ikkitasi – undov va modal so`zlar o`zbek tilshunosligida maxsus tadqiq manbai ham bo`lgan. Jumladan, undov so`zlar S.Usmonov tomonidan (77), modal so`zlar S.Saidov (133), R.Komiljonova (116), G`.Zikrillayev(111)lar tomonidan maxsus o`rganilgan va ularning qo`llanilishi atroflicha tavsiflangan. Bunday maxsus tadqiqotlardan tashqari B.O`rinboev (147)ning vokativlik muammolariga bag`ishlangan qator tadqiqotlarida (83; 139,10), A.Hazratqulovning nomzodlik dissertasiyasi, monografiya va bir qator tadqiqotlarida (94; 95), shuningdek, ko`pgina tilshunoslarning (62; 67; 68; 74) ilmiy maqolalarida so`z-gaplarga doir muhim ma`lumotlar berilgan. Shuning uchun biz qat`iy ishonch bilan ayta olamizki, so`z-gaplarning turlari va ularning leksik materiali tavsifi, qo`llanilish xususiyatlari o`zbek tilshunosligida yetarlicha tavsiflangan va ularni davom ettirish hodisalar sonini ko`paytirishdan bo`lak hech narsa bermaydi: empirik kuzatishlar, faktlar, hodisalar tavsifi yakunlangan.

**Navbatdagi vazifa bu hodisalar ostida yotgan mohiyatni – so`z-gaplarning umumiylik, mohiyat sifatida va yuqorida sanalgan ishlarda o`z tavsifini topgan nutqiy qo`llanilish sabablarini, ya`ni ularning lisoniy tabiatini ochishdir.** So`z-gaplar tavsifi va tadqiqi sohasida turgan bunday holat

o'zbek tilshunosligining butun taraqqiyot holati bilan uyg'undur (7; 11; 12; 13; 14; 15; 16; 17; 24; 29; 30; 31; 33; 35; 45; 50; 53; 56; 64; 69; 70; 103; 111; 116; 121; 125; 127; 128; 132; 133). Shuning uchun ushbu band boshida qo'yilgan ikkinchi muammo — so'z-gaplarning lisoniy qolipini aniqlash tahlili masalasiga o'tamiz. Buning uchun dastlab, yuqoridagilardan xulosa chiqarib, bo'laklarga ajralmaydigan gaplar yoki so'z-gaplar umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan gaplarning leksik va morfologik jihatdan xilma-xilligini, ularning o'zida birlashtiruvchi belgilarini birma-bir ko'rib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Bular quyidagilar:

a) mustaqil holda gap bo'la olish belgisi;

b) gap tarkibida qo'llanilganda, shu gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqalarga kira olmaslik belgisi;

c) o'ziga xos g'ayri oddiy leksik ma'noga ega bo'lish belgisi;

d) bog'lamalar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl/zamon, shaxs/son shakllariga ega emasligi belgisi.

So'z-gaplarning mohiyatini belgilab beruvchi xuddi shu to'rt umumiy **integral (birlashtiruvchi) belgilar** asosida voqelanuvchi gaplar - mohiyatan bir-biridan keskin farq qiluvchi hodisalar majmui, ularning lison//nutq bo'linishi nuqtai nazaridan tabiati, ya'ni lisoniy tabiati va nutqiy voqelanishini tavsiflashga formal-funksional tahlil usullari asosida yondashish ishimizning asosiy tadqiq manbai bo'lib xizmat qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, tilshunosligimiz 40-90 yillar davomidagi taraqqiyotida bu majmua mohiyatini ochib berolmadi, ikkinchi tomondan, bu majmua funksional sintaksis tadqiqotchilari ilgari surgan sodda va qo'shima gaplarning minimal qoliplari [W $\overline{P}$ m] va [W $\overline{P}$ m, W $\overline{P}$ m] talablariga ham javob bermaydi. Demak, an'anaviy sintaksis tahlilida bo'lganidek, formal-funksional tahlilda ham bu *heterogen* (tabiatan xilma-xil bo'lgan) hodisalar majmui so'z-gaplar mohiyatini ochishga to'g'anoq bo'lib qoldi. Shu sababli ham, bu majmuani *s o' z - g a p l a r* yoki *s e m a n t i k - f u n k s i o n a l t a h l i l a n g a n s o' z - g a p l a r* (SFSHSG) *atamasi* bilan nomlash maqsadga muvofiqdir. Ularning mohiyatini o'zbek tili gap oldiga qo'yadigan va oddiy gapning minimal qolipida o'z aksini topgan [W $\overline{P}$ m] talablari asosida baholash mumkin.

### 1.6. Semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplar

Soʻz-gaplar deganda, yuqorida qayd etilgan toʻrt asosiy belgi bilan bir majmuuga birlashuvchi hodisalar tushuniladi. Bu belgilar quyidagilardir:

1. **Mustaqil holda alohida gap boʻla olish belgisi.** Bu belgini toʻrtinchi belgi bilan birga izohlash zarur, chunki shunday olgan taqdirdagina soʻz-gaplarning tom mohiyatini ochish ancha osonlashadi.

Oʻzbek lisoniy tizimi gapda maʼlum bir axborotni tashuvchi tasdiq//inkor, mayl//zamon va shaxs//son maʼno va munosabatlarini ifodalovchi tarkibiy qismlar zarur boʻlishini talab etadi. Soʻz-gaplarda bu tarkibiy qismlarni alohida-alohida ajratish mumkin emas. Lekin ularda ham gap boʻla olish “qobiliyati” mavjuddir va ular ham **GShG**lar bilan ziddiyatda turadi.

**GShG**da [**Pm**] kesimlik koʻrsatkichlari barqaror boʻlib, u gapning umumiy grammatik maʼnosini yuzaga chiqishiga xizmat qiladi (127, 2-10; 128, 3-8). [**Pm**] ning oʻzbek tilida minglab yuzaga chiqish shakllari mavjud. Bu [**Pm**] tasdiq//inkor, shaxs//son, mayl//zamon maʼnolari uchun bir butunlikdir. M.Abuzalovanning taʼkidlashicha, [**Pm**] maʼnolari 1) yigʻiq – a) feʼl-kesimlarda: *YOz, yozgin, yozay*; b) ot-kesimlarda: *Oʻqituvchiman, oʻqituvchimiz ...* 2) tavsifiy-analatik – a) feʼl [**W**] gaplarda: *Oʻqisa boʻladi*, b) ot [**W**] li gaplarda: *Bahor boʻlsa* tarzida namoyon boʻladi ( 100, 67-68; 13, 10-36).

Semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplarda bunday koʻrsatkich ifodalanmaydi, yaʼni bu gaplar [**Pm**] ga xos boʻlgan har xil maʼnolarni qabul qila olmaydi. Masalan, “*Albatta edi*”, “*Albatta boʻlsa...*” kabi shakllarni hosil qilish mumkin emas. Buning asosiy sababi bunday gaplarda mayl//zamon, tasdiq//inkor, hatto shaxs//son maʼnolari gap sifatida vaqelanuvchi soʻzning leksik maʼnosida mujassamlashganligidadir. Bu gaplarda kesimlik kategoriyasi maʼnolari va kesimlik – gap markazi vazifasida kelish – fikrni shakllantirish, uni ifodalash yoʻq emas, bor. Demak, soʻz-gaplarda kesimlik mavjud, ammo kesimlik shakli yoʻq. Oʻz-oʻzidan xulosa anglashiladiki, bunday maʼno va munosabatlar shu gaplarning oʻzida mujassamlangan va ularning ichki mohiyatini tashkil qiladi.

2. Boshqa gap tarkibida qo'llanilganda shunday gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik aloqalarga kira olmaslik belgisi. SFSHSGlar mustaqil gap bo'la olish "qobiliyatiga" ega. Shuning uchun so'z-gaplarga nisbatan "so'z-gap"lar atamasidan ko'ra "**semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar**" atamasini qo'llash o'ng'aydir. Bu qulaylik, jumladan, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Bu atamadagi semantik (ya'ni ma'noviy) tarkibiy qism hodisaning lug'aviy-ma'noviy tomoniga ishora qilib turadi va gap markazi mavqeida kelishi esa, bunday leksemalarning ontologik (ikki tabiiy) xususiyati ekanligini belgilab beradi. [WPm] qolipi asosida hosil qilinadigan GShGlar [W] tarkibiy qismining semantik-strukturasida kesimlik ma'nolari yo'q va [W] ga kesimlik ma'nolari va vazifasi [Pm] vositasida beriladi. So'z-gaplarda esa [Pm] ning morfologik belgilari istalgan sharoitda ham hamroh bo'lolmaydi. Lekin uning ma'no va vazifasi grammatik shakllangan gaplarning [W] qismi mavqeida keladigan lisoniy birlik — so'zning semantik strukturasida mujassamlanganligiga shubha yo'q. "**Semantik-funksional shakllangan gaplar**" atamasida **semantik tarkibiy qismi** mana shu xususiyatni o'zida ifoda etadi.

2. Bu atamaning "**funksional**" tarkibiy qismi esa, so'z-gaplarning sintaktik vazifasini ham — gap yoki gap markazi vazifasida kela olishi bilan chegaralanganligini ham bo'rtib turadi.

An'anaviy sintaktik tahlilda kesimlik ma'nolarining sintaktik mavqe bilan ifodalanishi, G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.G'ulomov va boshqa sintaksisshunoslar (9; 14; 89; 43; 91; 92) asarlarida qayd etilgan. Lekin bu ishlarda ko'pincha [Pm] = (morfemaga to'g'ri kelish holatlari (Chunonchi, *Otam o'qituvchi*) yoki *har xil* paradigmalariga mansub **omonimik** shakllarning farqlanish holatlari (Chunonchi, *Yozgan bola kelgan*) nazarda tutilgan. Bu o'rinda esa, "**funksional**" atamasini tamoman boshqa ma'noda, **zotiy ontologik** ma'noda qo'llanilmoqda. "**Semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar**" atamasi tarkibida **funksional** tarkibiy qismi bu guruhga mansub bo'lgan lisoniy birliklarning sintaktik vazifasi gap yoki uning markazi mavqeidan o'zga



vazifada kela olmaslik ekanligiga ishora qilib turadi. Natijada, **semantik-funksional** tarkibiy qismlari bir-birini to'ldirib, gaplarning shakllanish usuli [W] ning unda mujassamlangan semantikada va chegaralangan sintaktik funksiyada ekanligini belgilaydi. Shuning uchun ularni mohiyatan ikkiga ajratish maqsadga muvofiqdir:

### 1. Grammatik shakllangan gaplar,

### 2. Semantik-funksional shakllangan gaplar

Bular o'zbek tilida gapni shakllantirishning o'ziga xos paradigmasini tashkil etib, bu paradigma ikki a'zodan iborat ekanligiga ishoradir. Gaplarning bir turida [W] kesimlik ma'no va vazifalariga nisbatan neytral bo'lib, bu ma'no va funksiya ularga [Pm] tomonidan kiritiladi – **grammatik shakllangan gaplar** hosil qilinadi. Ikkinchi turida kesimlik ma'no va vazifalari [W] ning o'zida mujassamlangan bo'ladi va ularning shunday lisoniy birliklarini tashkil etadiki, gap (yoki gap markazi) vazifasida kelish ham, kesimlik kategoriyasi ma'nolarini ifodalash ham ularning ontologik tabiatida mujassamlangan bo'ladi. Shu sababdan grammatik shakllangan gaplarning minimal qurilish qolipini [WPm] sifatida bersak, **SFShSG**ning eng kichik qurilish qolipi ramzini [Wp] sifatida berish ma'qul. Bu ramz kesimlik ma'no va vazifasini [W]ning ichida, uning tarkibiy qismi sifatida mavjudligiga ishoradir. Shu bilan birga, bu ramz xuddi shunday gaplarda kesimlik qo'shimchalari (markerlari) ning bo'lolmasligiga, shuning uchun bunday gaplarda [WPm] qurilishli sodda gaplarda bo'ladigan kesimlik ma'nolarining rang-barangligi ham xos emasligiga ayni bir zamonda ishora qilib turadi. Shunga muvofiq o'zbek tilshunosligida **“bo'laklarga ajralmaydigan gaplar”**, **“so'z-gaplar”** atamaları ostida tushuniladigan hodisalarni **“SFShSG”** atamasi va ular hosil qiladigan gaplarning eng kichik qurilish qolipini [Wp] tarzida berish ancha qulaydir.

**3. Semantik-funksional shakllangan so'z-gaplarning o'ziga xos g'ayrioddiy leksik ma'noga ega ekanligi belgisi.** Til va uning birliklari fikri shakllantirish, ifodalash vositasi bo'lganligi sababli bizning ongimizda ikki tomonning – shakl va mazmun (ma'no, vazifa) tomonlarining birikmasi sifatida

mavjud bo'ladi (43, 20-30). Til birliklarini, jumladan, leksemalar tashkil etadi. Leksema til birligi sifatida jamiyat a'zolari uchun tayyor va umumiydir (38; 56; 135). Sistem tilshunoslikda leksemaning shakl tomoni "**nomema**" deyiladi va u leksemaning moddiy qobig'i, tashqi tomoniga nisbatan ishlatiladi. Leksemalarning ma'noviy qobig'i, ichki tomoni esa "**semema**" hisoblanadi (123). Bundan xulosa shuki, **leksema** nomema va sememani o'zida birlashtiruvchi mujassamlashtiruvchi ramzdir. **SFSHSG**larni ham shu mohiyatdan kelib chiqib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash joizki, bunday leksik birliklar ham nutqda muayyan so'z sifatida namoyon bo'ladi. Ammo ularning voqelanishi, ro'yobga chiqishi — **aniq shakl, mazmun va vazifa** kashf etishi g'ayrioddiy hodisadir. Bularning sabablari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Ma'no imkoniyatlari chegaralangan.

2. O'zida grammatik shakllarni talab etmaydi.

3. Har qanday so'zlar bilan birikish qobiliyatlaridan mahrum.

4. Gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan. Shuning uchun ham bu

leksemalar boshqa leksemalarga nisbatan g'ayri oddiy, biroq ma'no va vazifa jihatidan alohida barqaror til birligi hisoblanadi. Shunga ko'ra bunday birliklarning mazmuniy tizimida har doim alohida bir sememasi ajralib turadi. "*Rahmat, barakallo, ofarin, qani, ha, yo'q*" kabi so'zlar shular jumlasidan bo'lib, ularni yangicha talqin etish sistem tilshunosligimizning muhim vazifasidir (20; 21; 22; 123).

Barcha leksemalar tilimizda sintaktik funksiyaga nisbatan neytral bo'lganligi, shuning uchun **[WPm]** tarkibidagi marker - (m)ning minglab ko'rinishlari asosida, minglab xilma-xil nutqiy ma'nolarga ega bo'la olishi, nutqiy ma'nolarni kashf eta olishi fonida **[Wp]** mohiyatli so'z-gaplarning chegaralangan sintaktik funksiya va chegaralangan kesimlik kategoriyasi ma'nolariga ega ekanligi, tabiiyki, g'ayrioddiydir. Shu sababdan bunday so'z-gaplar sememasi ham, sintaktik vazifasi ham g'ayrioddiy bo'lgani uchun ularning sememasida kesimlik ma'nolari mujassamlangan bo'ladi. Boshqa leksemalarda esa, kesimlik ma'nolari **[Pm]** vositasida kiritiladi.

4. **Bog`lamalar bilan birika olmasligi, mayl-zamon, shaxs-son shakllariga ega emasligi belgisi.** Yuqoridagi ta`kidlarga muvofiq an`anaviy tilshunoslikda qayd etilgan bu xususiyatning sabablarini endi sharhlash shart va muhim emas. Zero, bu belgini mustaqil holda alohida gap bo`la olish belgisi bilan birga tushunish kifoyadir. O`zbek tilida so`z-gaplar yoki **SFShSG** lisoniy qolipi [Wp] bo`lib, bu qolip va “**semantik-funksional shakllangan so`z-gaplar**” atamasi ularning lisoniy mohiyatini ochib beradi. Tashqi tuzilishi – **nomemasiga ko`ra ma`lum bir denotativ** (*atash, nomlash, ifodalash*) ma`nosidan tashqari o`zining lug`aviy ma`nosida kesimlik kategoriyasi ma`nolarini ham mujassamlashtirgan bo`ladi. Ularning lisoniy tizimdagi o`ziga xos ma`noviy xususiyatlarining barchasi mana shu xislati bilan tushuntiriladi. Shu bois tilning leksik va grammatik sathlari birliklari orasida ularning o`rni o`ziga xosdir. Bu xoslik shundaki, tilimizdagi leksemalarning juda ko`pchiligi xoslangan sintaktik funksiyaga ega emas. Chunonchi, **ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe`l, taqlidlar** kabi so`z turkumlari sintaktik qobiliyati gapning istagan bir bo`lagi vazifasida kela olishi bilan belgilansa, **bog`lovchi, ko`makchi**, qisman **yuklamalarning** sintaktik mohiyati sintaktik aloqani ifodalashda ko`rinsa, **so`z-gaplar** shunday leksemalar guruhini tashkil etadiki, ular **gap** (yoki uning markazi) **vazifasida** kelishida xoslangan. Shuning uchun o`zbek tilida so`z turkumlarini (Q.: J.D.Eltazarov. *So`z turkumlari haqidagi lingvistik nazariya*. Samarqand, 1988 /ma`r. matni, 128-bet) **mustaqil so`zlar, yordamchi so`zlar** va **so`z-gaplar** sifatida uch katta guruhga ajratish ma`qul.

**2-bo`lim: SFShSG larning leksik-semantik turlari va sintaktik xususiyatlari**

### **2.1. [Wp] qolipli gaplarning leksik-semantik turlari**

“O`zbek tili izohli lug`ati”da alohida lisoniy birliklar sifatida qayd etilgan

[Wp] tabiatli so`z-gaplarni

- 1) *modallar (modal so`zlar),*
- 2) *undovlar (undov so`zlar),*
- 3) *tasdiq-inkor so`zlar,*

4) *taklif-xitob soʻzlar* kabi maʼnaviy guruhlar tashkil etadi. Soʻz-gaplarning modallar va undovlar kabi maʼnaviy guruhlarini farqlash va ajratish hech qanday izohni talab etmaydi. Bundan tashqari modallar (51; 111; 116; 130; 133) va undovlarga bagʻishlab (70; 76; 95; 139) yozilgan oʻnlab maxsus ilmiy ishlar mavjud<sup>1</sup>.

Soʻz-gaplarning uchinchi maʼnaviy turkumi tasdiq-inkor soʻzlardir. Tilshunosligimizda bu soʻzlar (asosan, *Ha, Yoʻq, Xoʻp, Xoʻsh* soʻzlari) koʻpincha modal soʻzlar tarkibida (51; 83; 86; 92; 111; 116; 133), baʼzan esa soʻz-gaplarning alohida bir guruhi sifatida (10; 14; 25; 120; 121) koʻrib oʻtiladi. Ularni quyida koʻrib oʻtiladigan oʻziga xos maʼnaviy xususiyatlari asosida SFShSG larning alohida bir guruhi sifatida ajratish mumkin.

Toʻrtinchi turkum maʼnaviy guruhiga taklif-xitob soʻzlari kiradi. Bu guruhga biz qoʻllanilishi tana aʼzolarining maxsus harakatlari bilan (Q.: 64) uzviy bogʻliq boʻlgan *Ma, Mang, Qani, Xoʻsh?* kabi soʻzlarni kiritamiz.

[Wp] qurilishida soʻz-gaplarning yuqorida koʻrsatilgan toʻrt ichki guruhiga mansub soʻzlarning har birining xususiyatlarini alohida-alohida tahlil etishga kirishishdan oldin, biz tilimiz uchun umumiy qoida boʻlgan **darajalanish** (*gradatsiya*) (24,25-51), xususan, nutqiy hodisalarning lisoniy birliklarga oʻtish (47,30-36; 49,42-46) hodisasining soʻz-gaplarda voqelanish xususiyatlari ustida toʻxtalib oʻtmoqchimiz. Zeroki, soʻz-gaplar tizimida qadimdan beri hozirgi kungacha keng taʼsir kuchiga ega boʻlgan bu qonuniyatni hisobga olmaslik koʻpgina hollarda tilshunosni juda qiyin ahvolga tushurib qoʻyadi. Shuning uchun dastlab shu masala ustida toʻxtalamiz.


Til doimiy taraqqiyotdadir. Bu isbot talab qilmaydigan hodisa va buni har bir tilshunos toʻla-toʻkis tan oladi. Afsuski, konkret lisoniy tahlil jarayonida tilshunoslar koʻp holatlarda tilning rivojlanuvchanlik va oʻzgaruvchanlik

---

<sup>1</sup> Biroq bu yerda bitta atamaviy sharh berish zarur. Oʻzbek tilshunosligida modal soʻzlar va modallar, undov soʻzlar, undovlar va undov-gaplar uzaro baʼzan sinonimlar sifatida qoʻllaniladi. Bizningcha, ularga nisbatan modal (modallar), undov (undovlar) atamalarini qoʻllash maʼqul, chunki biz soʻz turkumlarini nomlagan paytda ularni ot soʻzlar, feʼl soʻzlar, bogʻlovchi soʻzlar deb nomlamaymiz. Balki toʻgʻridan-toʻgʻri ot, sifat, son, bogʻlovchi, koʻmakchi deb atayveramiz. Bu tizimda modal soʻzlar, undov soʻzlar ortiqchadek koʻrinadi.

xususiyatini esdan chiqaradi. Til tizimini qotib qolgan holatda tahlil qiladi. Soʻz turkumlari va guruhlarning tarkibini aniqlashda ham xuddi shu yoʻldan boradi. Chunonchi, soʻz turkumlarining tarkibini aniqlashda soʻz turkumlari tarkibi haqida 20-yillarda A.M.Peshkovskiy tomonidan ruscha “Мороженое” va “Больной” tipidagi sifatlarning otlarga oʻtish jarayoni haqida aytgan soʻzlarini esdan chiqarmaslik zarur. Jumladan, A.M.Peshkovskiy bu haqda shunday deydi: **“Ayrim sifatlar sifatlardan uzilib toʻla - toʻkis otlarga oʻtib ketgan boʻlsa, ayrim sifatlar otlarga oʻtishning yarim yoʻlida turibdi”** (129, 257). Demak, ular sifatlardan batamom uzilmagan. Shu bilan birga, bir qism sifatlar otlar turkumiga toʻla-toʻkis oʻtib, ularning grammatik kategoriyasiga ega boʻlgan; soʻz-gaplarni tavsiflashda shuni hamisha nazarda tutish kerak boʻladi.

Soʻz-gap shunday soʻzlar guruhiki, ularning juda koʻpchiligi boshqa soʻz turkumlari soʻzlaridan tarixiy taraqqiyot jarayonida oʻziga xos nutqiy qoʻllanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Shuning uchun soʻz-gaplarning ham toʻrtala leksik-semantik guruhi shu guruh uchun xos boʻlgan, lekin soʻz-gaplarning tizimi uchun umumiy boʻlgan qurilishga egadir. Bu qurilishni (strukturani) quyidagicha berish mumkin:



Bu markazdan, lingvistik lisoniy taʼbir bilan aytganda, sof (modallar, undovlar, tasdiq-inkorlar yoki taklif-xitoblar) soʻzlar, yaʼni *Albatta, alhamdulillah ; Eh, hoy, oh, uh ; Ha, yoʻq, mutlaqo ; Ma, mang* kabi soʻz-gaplar oʻrin oladi.

Soʻz-gaplarning leksik-semantik turlarining markaziy soʻzlarida shu guruh soʻzlari uchun xos boʻlgan maʼnaviy va sintaktik xususiyatlar yorqin namoyon boʻladi. Bu markaziy soʻzlar oʻzlarining xususiyatlari bilan soʻz-gaplar guruhi ichida ham, soʻz-gaplar sifatida boshqa soʻz turkumlaridan ham keskin ajralib turadi. Bu markaziy qurshov atrofidagi ikkinchi qurshovni boshqa soʻz

turkumlaridan o`ziga xos nutqiy sintaktik qo`llanishi natijasida so`z-gaplarning u yoki bu guruhiga xos ma`no va vazifani kashf etgan so`zlar tashkil etadi. Biz bu qurshov so`zlarini “-lashgan” (*modallashgan, undovlashgan, tasdiq-inkorlashgan, taklif-xitoblashgan*) so`zlar deb ataymiz. Bunday so`zlar o`z semantik-funksional xususiyatlari bilan har bir guruhning markaziy leksemalariga juda yaqin turadi, lekin o`z aloqasini boshqa so`z turkumlari (ot, sifat, ravish va boshqa)dan to`la-to`kis uzmagan. Bu qurshovdan keyingi navbatdagi qurshov so`zlarini “-lashayotgan” (*modallashayotgan, undovlashayotgan, tasdiq-inkorlashayotgan, taklif-xitoblashayotgan*) so`zlar tashkil etadi. Bu qurshov so`zlari so`z-gaplarga to`la o`tgan emas va A.M.Peshkovskiy ta`biri bo`yicha so`z-gaplarga o`tishning yarim yo`lida turgan so`zlardir. Navbatdagi qurshovni biz “-simon”lar (*modalsimon, undovsimon, tasdiq-inkorsimon, taklif-xitobsimonlar*) atamasi bilan ataymiz va bu guruhga **modallar, undovlar, tasdiq-inkorlar va taklif-xitoblar** uchun xos bo`lgan sintaktik pozisiya va nutqiy qo`llanilish holatlaridagi so`zlarni kiritamiz. Shu bilan biz so`z-gaplarning ichki guruhlarning har biri uchun o`ziga xos sintaktik va nutqiy qo`llanilish o`rni va mavqei bor ekanligini e`tirof etamiz.

## 2.2. [Wp] qurilishli so`z-gaplarning sintaktik xususiyatlari

SFShSG larning yuqorida ko`rib o`tilgan to`rt leksik-semantik turi o`ziga xos sintaktik xususiyatlari bilan bir guruhga – so`z-gaplar guruhiga birlashadi. [Wp] qurilishli gaplarni ajratishda sintaktik omil asosiy va hal qiluvchidir. [Wp] qurilishli gaplarning, fanimizda ko`pincha ta`kidlanadigan bir so`zdan iborat ekanlik omili – asosiy omil sanalishi mumkin emas, chunki so`z-gaplar kengaygan yoyiq bo`lishi mumkin<sup>2</sup>. Chunonchi,

1. *-Usta olamdan o`tibdi.*

*Xudo rahmat qilsin.* (S.Abdulla)

2. *“Himmatigizga balli, ota”*(Ch.)

<sup>2</sup> Modomiki so`z-gaplar o`z kengaytiruvchilariga ega bo`lar ekan, ularning tabiatiga xosliklarini inobatga olib, “so`z-gap” atamasining nisbiyligini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

3. “*Qani ayvonga*” (A.Qod.)
4. “*Labbay taqdir?*” (A.Qod.)
5. “*Ha bola, senga nima kerak?*” (K.Y).

Ko`rinib turibdiki, so`z-gaplar tarkibidagi tasdiq-inkorlar va undovlar o`ziga tobe bo`lakni ergashtirib kela oladi. Shu asosda, hatto “*Dastingdan dod, falak!*” (Hamza) turg`un birikmasi ham shakllangan. Qiyoslang:

<i>Falakning</i>	<b>DASTIDAN DOD!</b>
<i>Zolimning</i>	
<i>Nomardning</i>	
<i>Poraxo`rning</i>	

“*Cho`lni o`zlashtirgan mardlarga ofarin!*” gapida ham “ofarin” gapning markazi, ya`ni kesimi mavqeidadir. “*Mardlarga*” esa uning to`ldiruvchisi-adresati mavqeidir. Albatta, ayrim tadqiqotchilar bunday hosilalarni nutqiy to`liqsiz gaplar sifatida baholab, uning to`liq shakli “*Cho`lni o`zlashtirgan mardlarga ofarinlar bo`lsin*” deb talqin etib, bu erda bog`lama ellipsisini ko`radilar (23; 70; 75; 97; 114). Lekin “*Dastingdan dod!*” “*Barakalla sizga*”, “*Buncha ham*”, “*Mana sizga*” kabi kengaygan yoyiq so`z-gaplarda bog`lama yoki kesimlik qo`shimchasining ellipsisini haqida gap-so`z bo`lishi mumkin emas. Shu tufayli so`z-gaplar faqat bitta so`zdan iborat degan omil faktik jihatdan asoslanmagan. Haqiqatan ham, so`z-gaplarning katta qismi bir so`zdan ham iborat bo`ladi, lekin bu zotiy ontologik xususiyat emas. Shu sababdan “*Cho`lni o`zlashtirgan mardlarga ofarin*” singari gaplarda ham bog`lama (kesimlik qo`shimchasi) ellipsisini ko`rish shart bo`lmasa kerak: **undov, modal** va boshqa so`z-gaplar nutqda kengayish qobiliyatiga ega.

O`zbek tilshunoslari ham, rus tilshunoslari ham so`z-gaplarda kesimlik kategoriyasining zaruriy ma`nolari tasdiq//inkor, so`zlovchining munosabati (ya`ni mayl va zamon) ma`nolari mavjudligini tasdiqlashgan. Lekin bu ma`nolar so`z-gaplarning semantik strukturasi mujassamlangan bo`lib, kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismlari paradigmasiga xos bo`lgan ma`noviy tur va ko`rinishlarga ega bo`la oladi. Chunki [WpM] strukturali gaplarda kesimlik kategoriyasi va ma`nosi [W] ga [Pm] orqali kiritiladi, **m** ning esa o`zbek tilida

mingdan ortiq ko'rsatkichlari mavjud. Shaklning o'zgarishi bilan kesimlik kategoriyasining ma'no turlari ham o'zgaradi. (Qiyoslang: *Bo'ladi. Bo'lmaydi. Bo'ldi. Bo'lsa va h.z.*). Ammo so'z gaplarda bunday emas. Har bir so'z-gap shunday gapga xos bo'lgan ma'nolarni ifodalashga xoslashgan. Chunonchi, "Ha" so'zi tasdiq (bo'lishlilik) ma'nosini ifodalaydi. Uning bo'lishsizligi "Ha emas" bilan emas, balki alohida so'z "Yo'q" bilan ifodalanadi. "Albatta" yoki "Shubhasiz" modal so'zi qat'iy ishonch va tasdiqni ifodalaydi. Inkor ma'nosi esa, "mutlaqo", "aslo" so'z-gaplarda ifodalanadi.

So'zlovchining munosabati (mayl ma'nosi ham so'z-gaplarning "ichida", ya'ni semantik strukturasi) mujassamlangan. «Albatta» so'zi tasdiq, qat'iylik, ishonchni, "Ehtimol" gumon, taxminni, "Rahmat" so'zi minnatdorlik va ijoiylikni, "Hayf sizga" salbiy munosabatni, "Dastidan dod", "Padariga la'nat" turg'un birikmalari ham salbiy munosabatni o'zining ichki ma'nosida ifodalaydi.

So'z-gaplarda zamon, shaxs-son ma'nolari ham yashiringan. Lekin ulardagi zamon va shaxs-son ma'nolari o'ziga xosdir va so'z-gaplarning boshqa sintaktik xususiyatidir. Keling, ularni kontekstual bog'liqliklari bilan izohlaylik.

So'z-gaplar [WPm] strukturali grammatik shakllangan gaplarning [W] tarkibidan farqli o'laroq kontekstual bog'langan so'zlardir, ya'ni ular hamisha kontekst bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababdan A.Hazratqulov va boshqa tadqiqotchilar (14; 33; 122; 134; 100) dialogik nutqda so'z-gaplar bilan ifodalangan javob nutqni so'roq nutqidan ajratib olgandan keyin kerakli ma'no anglatmasligini va bunday savol-javob nutqi birgalikda yaxlit fikrni ifodalashini takror va takror aytadilar. Shuning uchun so'z-gaplarda zamon va shaxs-son ma'nolari, umuman olganda neytral ko'rsatkichli bo'lib<sup>3</sup>, matn asosida

<sup>3</sup> Lisoniy oppozitsiyalarda neytral (kuchsiz, belgisiz, mo'tadil) a'zoning zaif, kuchsiz a'zodan ma'noviy va funksional imkoniyatlari haqida qarang: R. Yakobson. Крyовопор индивидиальных терминов (142); H.Ne'matov. Fe'lda mayl va zamon kategoriyalarining munosabati (39); He'matov, R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari /38/; D.Nabiyeva. O'zbek tilida lisoniy birliklarning invariant-variant munosabati /Fonologik sath/ (36); D.Nurmonova. O'zbek tilida paradigma a'zolari o'rtasidagi zidlanishlarning mo'tadillashuvi /Fonologik sath (45); A.Abduezizov. O'zbek tilining fonologiyasi va morfologiyasi (12).



muayyanlashadi. Matn xususiyatiga mos ravishda bu soʻzlar qaysi shaxs-gapga mansub ekanligini ifodalab keladi. Lekin bunday soʻz-gaplar va shaxs-son maʼnolari yoʻq emas. Chunki oʻzbek tilida gap (kesimlik) va shaxs-son maʼnolaridan xoli boʻla olmaydi. Soʻz-gaplarda zamon va shaxs-son maʼnolarining kontekstual aniqlanish xususiyati bunday soʻzlarning sintaktik xususiyati — kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmay gap (kesimlik markazi) boʻlib kela olishi bilan sharhlanadi. Maʼlumki, konkret gapning hosilidir. Muayyan zamon, mayl, tasdiq-inkor, shaxs-son maʼnolari gap vositasida, nutqiy hosila sifatida ifodalay oladi: gapning minimal qoligida tasdiq//inkor, mayl//zamon, shaxs//son maʼno va koʻrsatkichlarini qoʻllanish qilishiga faqat imkoniyat bor, xolos. Muayyan shakl va mazmuni ifodalangan, belgilangan emas. Ular nutqda kontekst asosida muayyan Soʻz-gaplarning kontekstual bogʻlangan sintaktik xususiyati ham bogʻliq. Shuning uchun ayta olamizki, soʻz-gaplarda taʼsir mayl//munosabat maʼnolari qatʼiy belgilangan; aniq zamon va shaxs-son maʼnolari moʻʼtadil — neytraldir.

Soʻz-gaplarning yana bir sintaktik xususiyati (tilshunoslarimizning fikri) hamisha taʼkidlanadigan ularning alohidalik (gap tarkibida boshqa gap bilan bogʻlanmaslik xususiyatidir. Biroq bu sintaktik xususiyatining izohlanishga muhtoj. Zeroki, soʻz-gaplar yoyiq gaplarni ham taʼsir mumkin va bu alohida tadqiqni talab etadi:

- *Zolimlar dastidan dod. Mushtumzoʻrlarning padariga lazzat sizga, maydonda mardman deb yurgan hakkalar!* - Hamza. Yoki:

*“Ey Qoʻqon boyonlari, sizlardek insonlarga tuf,*

*Taltayib faytonda surgan davru davronlarga tuf.”* (Furqat) va gap tarkibida boʻlaklar soʻz-gaplarga tobelanib keladi. Chunonchi, *insonlarga tuf* gapida yoki *“Hayf sizga”* gaplarida **insonlarga**, **siz** vositali toʻldiruvchi mavqecida boʻlib, *tuf*, *hayf* soʻz-gaplar ularni

keladi. Shuning uchun soʻz-gaplar oʻzi bilan yondosh gaplarning boʻlaklari bilan bogʻlanmaydi.

Ikkinchidan, tilshunoslikda sodda-gap tarkibidagi modallar, kirish soʻz va kiritma, shuningdek, undalmalarni gapning tobe boʻlagi sifatida qarashlar mavjuddir. Jumladan, A.Sayfullayev, A.G.Rudnevlar ularni uchinchi darajali boʻlaklar deb sanaydilar. Lekin bunday gaplarning gap tarkibidagi boshqa boʻlaklar bilan aloqasi tamoman oʻzgachadir. Bunday aloqa sintaktik emas, balki maʼnoviy (semantik)dir. Ularning lisoniy, maʼnoviy va sintaktik strukturasi alohida gaplik mujassamlangan va ular boshqa gap tarkibiga uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida singib ketolmaydi, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qoladi.

[Wp] strukturali soʻz-gaplarda gaplik va kesimlik kategoriyasi maʼno va vazifalari ularning “ichida” ontologik xususiyat sifatida mujassamlanganligi soʻz-gaplarning leksik-semantik turlaridan har biri oʻziga xos maʼno va vazifasi bilan gap tuzishga xizmat qiladi. Bu jihatdan modallar ham soʻzlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatini sof holda ifoda etadi. Dialogik nutqdan ikki parchani qiyoslab koʻraylik:

1. A. — *Ertaga kelasizmi?* — *Kelaman.*  
B. — *Otasiga aytmadimi?* — *Bilmadim.*
2. A. — *Ertaga kelasizmi?* — *Albatta.*  
B. — *Otasiga aytmadimi?* — *Qaydam.*

Har ikkala parchadagi javob nutqlarining maʼnosi oʻzaro yaqin, lekin axborot turi va ifodalanish taʼsirchanligi tamoman oʻzgachadir. Buni qisman olmoshlar bilan qiyoslash mumkin. Chunonchi, *Karimjon kecha keldi. U xushxabar olib keldi.* Bu mikrotekstda u olmoshining informativ qiymati *Karimjon* atoqli oti bilan tengdir (Q.: 74,17). Lekin bu tenglik faqat matn doirasidadir. Bu oʻrinda kishilik olmoshi takrordan qochish va alohida-alohida shakllantirilgan gaplarning bir mikrotekstda bogʻlashga xizmat qilyapti. “*Qaydam*” modal soʻzi va “*Bilolmadim*” toʻliqsiz gapi bilan ifodalangan axborot ham oʻzaro yaqin, lekin gumon maʼnosini ifodalanish usuli “*Qaydam*” soʻz-

gapida “*Bilolmadim*” to’liqsiz gapidan ko’ra kuchli va ta’sirchan. “*Bilmoq*” leksemasi va uning grammatik shakllarining “*Bilolmadim*” gapida gumon ma’nosi rang-barang ma’nolaridan hosilaviy nutqiy hodisa sifatida voqelangan. “*Qaydam*” javob nutqida esa, gumon ma’nosi gumonni sof holda ifodalashga xizmat qiluvchi maxsus lisoniy birlik — soʻz-gap bilan ifodalangan. Shu sababdan bu yerda gumon boʻrttirilgan va birinchi daraja mavqeiga koʻtarilgan. Shu tufayli soʻzlovchining munosabatini birinchi oʻringa qoʻyib, tasdiq//inkor, zamon//shaxs ma’nolarini ikkinchi planga koʻchirilgan holatda [WpM] strukturali gaplardan koʻra [Wp] strukturali modal gaplardan foydalanish tilimizda meʼyorlashtirilgan. Bu qonuniyat kommunikativ munosabatni belgilovchi omil boʻlib xizmat qiladi (Q.: 19, 54-57). Demak, aytish mumkinki, soʻz-gaplar soʻzlovchining munosabatini sof “yalangʻoch” holda ifodalovchi gaplardir. Bundan anglashiladiki, undovlar ham soʻzlovchining his-tuygʻusini sof “yalangʻoch” holda ifodalovchi, boʻrttirib koʻrsatuvchi soʻz-gaplardir. Yana ikki nutqiy parchani qiyoslab koʻraylik:

1. — *Komandamiz gʻolib chiqdi. — Juda yaxshi boʻldi.*
2. — *Komandamiz gʻolib chiqdi — Urra!*

Ikkinchi parchada his-hayajon, maʼqullash, mamnunlik boʻrttirilgan. Bundan tashqari, undovlarda momentallik, (nutq paytida kuchli ehtiros) oʻta kuchlidir. Yuqoridagi misolda “*Urra!*”ning soʻzlovchisida oldingi axborot kuchli psixik taʼsir etganligi, soʻzlovchi gʻayrioddiy, oʻzini boshqarishi, tiyishi qiyin boʻlgan holatdagina oʻz aksini topadi. Vaholanki, “*Juda yaxshi boʻldi*” javobida nutq momentida soʻzlovchining nutqida uning ruhiy holati neytral (beparq) sifatida oʻz aksini topgan.

Undovlarning har ikkala turini (27,16-28; 77,3-25) umumlashtiruvchi mohiyat shundaki, soʻzlovchi oʻz his-hayajonli fikrini kimgadir qaratadi. Shuning uchun birovga qaratilganlik (murojaat undov soʻz-gaplarda etakchilik qiladi)<sup>4</sup>. Tasdiq-inkor soʻz-gaplarni boʻlishli va boʻlishsiz gaplar bilan

---

<sup>4</sup> Qiyoslang: **Koʻngilda dard koʻp aytarga bir mahram topolmasman** (Mashrab).

qiyoslaganda, bunday soʻz-gaplar oʻziga xos tasdiq-inkor maʼnosi bilan alohida boʻrttirilgan mazmun va shakl ifodalovchi gaplar sifatida ulardan ajralib turadi. Qiyoslang:

1. A. — *Ertaga kelasizmi?* — Kelaman. B. — *Ertaga kelasizmi?* — Ha.

2. A. — *Ertaga kelasizmi?* — Kelmayman. B. — *Ertaga kelasizmi?* — Yoʻq.

Juda koʻp tilshunoslar tasdiq-inkor soʻzlarni modallar tarkibiga kiritadilar (10, 55-98; 14, 117; 95, 90-108; 111, 5; 116, 9-10). Bu bejiz emas. Haqiqatan ham tasdiq-inkor soʻzlari, xususan, “*Ha*” va “*Yoʻq*” soʻzlari soʻzlovchi nutqidagi neytral maʼnoning tasdigʻi yoki inkorini ifodalaydi. Lekin modal soʻzlarda asosiy belgi soʻzlovchining munosabatini belgilash boʻlganligi sababli soʻzlovchining munosabati neytral boʻlgan “*Ha*”, “*Yoʻq*” soʻzlarini modallar guruhiga qoʻshish toʻgʻri emas. Chunki tasdiq-inkor soʻzlarni modallar guruhiga kirituvchi olimlar (10; 14; 95; 111; 116) ham ularni modallar ichida alohida guruh sifatida ajratadilar. Modallarda birinchi oʻrinda soʻzlovchining munosabati - modal maʼno turadi. Shu sababdan “*Albatta*” soʻzida tasdiq emas, balki soʻzlovchining qatʼiy ishonch maʼnosi turadi. “*Ha*” soʻzida esa aksincha, tasdiqni ifodalash birinchi oʻrinda turib, soʻzlovchining munosabati ikkinchi oʻringa koʻchadi.

**Taklif-xitob soʻzlari.** Bu soʻzlar guruhiga biz, “*ma*”, “*qani*”, “*marhamat*” kabi soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan taklifini va unga xitob-buyrugʻini ifodalovchi “*Poʻsht -poʻsht*”, “*kisht-kisht*”, “*qurey-qurey*” kabi soʻzlarni kiritamiz. Tilshunosligimizda, odatda, ikkinchi guruh suzlari buyruq-xitob deb tavsif etiladi va undovlar tarkibiga kiritiladi (6; 14; 76; 77; 84; 96).

“*Ma*” va “*Poʻsht-poʻsht*” turdagi soʻzlarni bir guruhga birlashtirishga asos, bu soʻzlarning bevosita tinglovchiga qaratilgan murojaatni ifodalashda boʻlsa, ular orasidagi farq “*Ma*”, “*qani*” turidagi soʻzlarning qoʻllanilishi, albatta, paralingvistik vositalar soʻzlovchi tana aʼzolarining maxsus harakatlari

---

Kuchli ruhiy holat insonda, albatta, tashqariga chiqishga intiladi va u, albatta, kimgadir qaratilgan boʻladi.

bilan hamroh bo'lishidadir (q.: 64). Shuning uchun bunday so'zlarni taklif-ishora so'zlari deb nomlash mumkin. "Beh-beh", "kisht-kisht" kabi so'zlar ham tinglovchi (yoki ikkinchi mavqedagi ob'ekt)ga nisbatan taklif-xitobni buyruq-farmoyish shaklida ifodalaydi va ularning nutqiy qo'llanilishida paralingvistik vositalar (jest, mimika) shart emas: hamroh bo'lishi ham mumkin, bo'lmazligi ham. Shuning uchun ham bunday so'zlarni **xitob-buyruq** so'zlari deb atash ma'quldir. Demak, bundan xulosa qila olamizki, taklif-xitob so'zlari 1) **taklif-ishora** va 2) **xitob-buyruq** so'zlari guruhlari - "**jest bilan hamrohlik**" belgisi asosida o'zaro **privativ** (noto'liq) **oppozitsiyada** bo'lib, bu ziddiyatda taklif-ishora so'zlari kuchli a'zoni, xitob-buyruq so'zlari esa kuchsiz a'zoni tashkil etadi.

Taklif-xitob so'zlarining tabiatini yorqinroq ochish uchun yana ikki nutqiy parchani qiyoslaymiz:

1. A. – *Kitobni bering.* – *Oling.* B. – *Yo'lni bo'shating, shohim kelmoqdalar* (Ertakdan).

2. A. – *Kitobni bering.* – *Ma (mang).* B. – *Po'sht-po'sht, shohim kelmoqdalar.*

Har ikkala parchada ham ifodalangan axborot miqdori deyarli bir xil. Ammo "*Oling*", "*Yo'lni bo'shating*" kabi [WPm] qurilishidagi gaplarda ikkinchi shaxsga qaratilgan ikkinchi shaxs qo'shimchasi (murojaat-buyruq shakli qo'shimchasi) buyruq mayli shakli bilan tinglovchi bajarishi kerak bo'lgan harakat mazmuni *olmoq* so'zi va *yo'lni bo'shatmoq* so'z birikmasining lug'aviy ma'nolari bilan ifodalanadi. *Ma, po'sht* so'zlari shunday ma'nolarni ayrim-ayrim vositalar bilan emas, sinkretik ravishda o'z semantik strukturasi mujassamlangan holda, hech qanday qo'shimchasi ifodalaydi. Shu bois taklif-xitob so'zlari bilan ifodalangan mazmun matn (kontekst) bilan uzviy aloqador va ta'sirchan, chunki tilimiz uchun keng tarqalgan me'yoriy vositalar asosida emas, g'ayrioddiy vosita va usullarni ifodalamoqda. Taklif-xitob so'zlari faqat bo'lishli (shaklda) ma'noga ega.

### 2.3. [Wp] qurilishli soʻz-gaplarning mustaqil va nomustaqil kesimlik xususiyatlari

Biz yuqorida, [Wp] qurilishli gaplarning leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari haqida axborot berish bilan bir qatorda, soʻz-gaplarning har bir leksik-semantik turi oʻziga xos maʼnoli gaplarni hosil qilishga ixtisoslashganligini koʻrib oʻtdik. Ulardan maʼlum boʻldiki, soʻzlovchining munosabati ham, ikkinchi shaxsga qarata ifodalangan his-hayajon va buyruq ham, neytral tasdiq va inkor ham, biror harakatni bajarishga undash ham, [Wp] qurilishli gaplar bilan ifodalanishi mumkin. Lekin soʻz-gaplarning oʻziga xos xususiyati shundaki, soʻz-gaplarning har bir turi (**Wp** tarkibiy qismlari: **N (tasdiq-inkor)**, **M (modallik)**, **T (zamon)**, **R (shaxs-son)**) dan ayrim-ayrimlarini boʻrttirib ifodalashga xizmat qiluvchi sinkretik (qorishiq) – alohida kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmagan va qilolmaydigan gaplarni tuzishga ixtisoslashgan. Bunday tasdiq-inkor soʻzlari [Pm] tarkibidagi **N** ni, modallar [Pm] tarkibidagi **M** ni, undovlar [Pm] tarkibidagi **P** ni, taklif-xitob soʻzlari [Pm] tarkibidagi **T** ni boshqalariga nisbatan boʻrttirib koʻrsatishga harakat qiladi. Biroq bu leksik-semantik turlarning har birida [**M+N+T+P**] zarralari yoʻq emas. Ular bu leksik-semantik turlarning har birida mavjud boʻlib, har xil darajada yuzaga chiqadi. Bularni biz, yuqoridagi bandda alohida-alohida koʻrib oʻtdik. Lekin soʻz-gaplarning yana bir sintaktik xususiyatini qayd etib oʻtish lozim. Shundagina oʻrganilayotgan hodisa mohiyatini aniqlash mumkin. U ham boʻlsa,

1) oʻzbek tilida mustaqil kesim shakli (**MKSh**) va

2) nomustaqil kesim shakli (**NKSh**) kabi soʻz-gaplarni ikki turga ajratish va bularning **SFShSGL**lar tizimida voqelanishi bilan bogʻliq boʻlgan hodisadir.

Oʻzbek tilshunosligida kesimning **MKSh** va **NKSh**ga ajratilishi endi ommalashmoqda. L.Raupovanning bu masalaga bagʻishlangan maxsus dissertasiyasining mavjudligi bizni oʻzbek tili qurilishi talqinini takroran yangi asoslarda bayon qilish va bu muhim omilni batafsil yoritish zaruriyatidan ozod qiladi (Q.: 54:). Bundan tashqari, hozirgi kunda oʻzbek tilida kesimning

mustaqil va nomustaqillarga ajratish “*Ona tili mazmuni*” (98)dan ham, darsliklaridan ham o`rin olmoqda. Shuning uchun biz **MKSh** va **NKSh** deganda nima tushunilishini qayd etish bilan cheklanib qolamiz va bu bo`linishning so`z-gaplar tizimida voqelanishiga to`xtalamiz.

**MKSh** deganda, erkin kontekstda mustaqil, alohida gapning kesimi bo`la oladigan [Pm] shakllari tushuniladi (Q.: 28; 36; 45; 54). **NKSh** deganda esa, me`yoriy erkin kontekstda qo`shma gap tarkibida tobe gap kesimi mavqeida kelishi mumkin bo`lgan [Pm] shakllari tushuniladi. **NKShar** maxsus qurshovda – xususiy bir kontekstda, qo`shimcha kontekstual vositalar ta`siridagina mustaqil ravishda yuzaga chiqadi. Shuningdek, **MKShlar NKSh** mavqeida, **NKShar** esa **MKSh** mavqeida qo`llanila oladi.

[Wp] qurilishli so`z-gaplar o`zbek tilida [Pm] ning xususiyatlari bilan bog`liq bo`lganligi sababli kesimlik shakllarining **MKSh** va **NKSh**ga ajratilishi so`z-gaplarda o`z ta`sirini ko`rsatishi zarur, chunki kesimlik kategoriyasining ma`nolari so`z-gaplarning ontologik tabiatida (semantik strukturasi) mujassamlangan. Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, o`zbek tilida [Wp]ning **MKSh** va **NKSh**ga ajratilishi so`z-gaplarda, xususan, modallarda o`zining yorqin aksini topadi; modal so`zlar **mustaqil qo`llanila oladiganlar (MQM)**ga, **mustaqil qo`llanila olmaydigan (nomustaqil)lar (NQM)**ga ajraladi. Qiyoslang:

1. – *Engil tortdingmi, qizim?* – **Shukur** (A.Q.).

2. – *Ehtimol, urush bo`lmas* (Ch.Ayt.).

Bu misollardagi “*Shukur*” va “*Ehtimol*” so`z-gaplarining leksik-semantik va sintaktik xususiyatlarini sharhlab o`tirmasdan ham qay biri mustaqil va qay biri nomustaqil oppozitsiyada turishini anglab olish qiyin emas, albatta. SFSHSG larning tipik ko`rinishlariga “*Albatta*”, “*Shekilli*” yorqin misoldir.

“*Albatta*” modal so`z-gapi MKShning tipik vakilidir. U yakka o`zi to`liqsiz gap hosil qilmagan holda alohida gap bo`la oladi(20):

– *Ertaga kelasizmi?* – **Albatta** (O`.U.).

*Shekilli*” modal soʻzi esa faqat bogʻliq qurshovdagina qoʻllanila oladi. Yakka holda qoʻllanilmaydi (19; 21). Chunonchi, *Bola sizga kerak emas edi. shekilli* (Oʻ.H). NKSharning ayrimlari maʼlum bir kontekstda mustaqil qullanilganda ham toʻliqsiz gapni tashkil etadi:

1. Mansur: *Pirim gulob ichmoqchi edilarmi?* Navoiy: *Darvoqe, gulob.* (M.Sh. )

2. “*Menimcha, kerakmas. Menga xalal berma*”.

Soʻz-gaplarning mana shunday mustaqil va nomustaqillarga boʻlinishini ularning boshqa leksik-semantik guruhlarida ham, u yoki bu darajada koʻrish mumkin. Shunday qilib, kesimlik kategoriyasi maʼnolari ontologik tabiatida mujassamlangan soʻz-gaplarning umumiy sintaktik xususiyati kesimlik qoʻshimchalarini qabul qilmagan holda gap (SFShSG) yoki uning markazini tuza olish boʻlib, uning toʻrt leksik-semantik turida, yaʼni 1) modallar, 2) undovlar, 3) tasdiq-inkor va 4) taklif-xitob soʻzlarda kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi maʼnolar alohida boʻrttirilgan “yalangʻoch” holda yuzaga chiqarilgan tarzda ifodalanadi. Bunda modallar soʻzlovchining munosabatini [Pm] dagi maylni, taklif-xitoblar shaxsga qaratilganlik maʼnosini [Pm] dagi shaxs-sonni, tasdiq-inkorlar tasdiq-inkorni [Pm] dagi boʻlishli-boʻlishsizlikni va undovlar boʻlgʻusi harakatni nolisoniy hodisalar bilan bogʻlik holda [Pm] dagi zamoni ifodalashga xizmat qiladi. Shular bilan birga, oʻzbek tilida kesimning MKSh va NKSh larga boʻlinishi ham soʻz-gaplarning ichki boʻlinishida oʻz aksini topadi.



## II qism: Semantik-funksional shakllangan soʻz-gaplarning leksik-semantik guruhlari va ularning nutqiy voqelanishi

SFShSG larning lisoniy mohiyati [Wp] ramzida mujassamlangan boʻlib, soʻz-gaplarning toʻrt asosiy leksik-semantik turida [Pm] tarkibiy qismlari N – tasdiq-inkor, M – modallik, mayl, T – temporallik-zamonga munosabat, R – shaxs-sondan har biri, yaʼni bu jihatdan **modallik** maʼnosi modal soʻzlarda, **tasdiq-inkor** maʼnosi tasdiq-inkor soʻzlarda, **temporallik** – nutq momenti bilan uzviy aloqadorlik undov soʻzlarda, **personallik** – shaxsga qaratilganlik taklif-xitob soʻzlarda yetakchilik qilishini taʼkidlab oʻtdik. Endi soʻz-gaplarning bu toʻrt leksik-semantik turida [Pm] tarkibiy qismlari u yoki bu komponentda etakchilik qilsa ham, ularning har birida [Pm] ning qolgan maʼnolari mavjudmi? degan savolga mumkin qadar aniqroq javob izlaymiz.

[Pm] maʼno va funksiyasi (vazifasi)ning barchasi soʻz-gaplar leksik-semantik turlarining har birida namoyon boʻladi, lekin ulardagi boʻrtirilish, ifodalanish nisbati (darajasi) turlichadir. Bu jihatdan soʻz-gaplar leksik-semantik turlarini [Pm] tarkibiy qismlari maʼno va vazifalari yorqinligiga koʻra quyidagi toʻrt qismga ajratish mumkin:

### 1. [Mod]. – modallik maʼnosiga koʻra:

Modallik maʼnosining kamayib borishi →

Modallar → undovlar → taklif-xitoblar → tasdiq-inkorlar.

← Modallik maʼnosining oʻsib borishi

### 2. [Neg.] – tasdiq-inkor maʼnosiga koʻra:

Tasdiq-inkor maʼnosining kamayib borishi →

Tasdiq-inkorlar → modallar → undovlar → taklif-xitoblar.

← Tasdiq-inkor maʼnosining oʻsib borishi

### 3. [Pegs] – shaxs maʼnosiga koʻra:

Shaxs maʼnosining kamayib borishi →

Taklif-xitoblar → tasdiq-inkorlar → modallar → undovlar.

← Shaxs maʼnosining oʻsib borishi

#### 4. [Temr.] -zamon ma`nosiga ko`ra:

*Zamon ma`nosining kamayib borishi* →

Undovlar → taklif-xitoblar → tasdiq-inkorlar → modallar.

← *Zamon ma`nosining o`sb borishi.*

Shulardan kelib chiqib, so`z-gaplarning leksik-semantik turlarida [Pm] ma`nolarining ifodalanishi yorqinligiga ko`ra ma`noviy tarkibini N ([Neg.] – tasdiq-inkor), M ([Mod.] – modallik-mayl), T ([Temr.] – zamon), P [Pegs.] – shaxs) shartli qisqartmalari bilan quyidagicha (ma`noviy tarkib topishiga ko`ra) berish mumkin:

1. **Modallarda** – {[MNPT] (MPTN, MPNT, MNPT, MNTP, MTNP, MTPN)}.

2. **Undovlarda** – {[TMNP] (TNMP, TNPM, TPMN, TPNM, TMPN, TMNP)}.

3. **Tasdiq-inkorlarda** – {[NPTM] (NTPM, NTMP, NMTP, NMPT, NPTM, NPMT)}.

4. **Taklif-xitoblarda** – {[PTMN] (PMNT, PMTN, PTNM, PTMN, PNMT, PNTM)}.<sup>1</sup>

O`zbek tilida kesim-[Pm] ning mustaqil MKSh va nomustaqil NKSh kabi ikki turga bo`linishi SFShSGlarda ham o`z aksini topadi va bu jihatdan so`z-gaplarning har bir leksik-semantik turi mustaqil va nomustaqil qo`llanila oladigan turlarga bo`linadi. Shunday bo`linish asosida modallar, undovlar, tasdiq-inkor va taklif-xitob so`zlarining har biri ikkiga ajraladi.

#### **Birinchi guruhga:**

1. Mustaqil qo`llaniladigan modal so`zlar;
2. Mustaqil qo`llaniladigan undov so`zlar;
3. Mustaqil qo`llaniladigan tasdiq-inkor so`zlar;

<sup>1</sup> So`z-gaplardagi bu xususiyatlarni o`zbek tilida erkin so`z birikmalarida, so`zlarning o`zaro boulanishida shakliy, ma`noviy, joylashuv omillarini har bir so`z birikmasi turida o`zaro nisbiy teskari proporsionallikda turishi, bir omilning kuchayishi, ikkinchi omilning zaiflashishi asosidagina voqelanishi bilan qiyoslash mumkin. Bu hodisa S.A.Nazarova tomonidan tadqiq va tavsif etilgan edi (37; 103, 139): Yana qarang: (128, 3-8).

4. Mustaqil qo'llaniladigan taklif-xitob so'zlar.

**Ikkinchi guruhga:**

1. Nomustaqil qo'llaniladigan modal so'zlar;
2. Nomustaqil qo'llaniladigan undov so'zlar;
3. Nomustaqil qo'llaniladigan tasdiq-inkor so'zlar;
4. Nomustaqil qo'llaniladigan taklif-xitob so'zlar

Lisoniy tizimning, jumladan, leksik tizimning nisbiy yaxlitligi uning har bir bo'g'ini doimiy taraqqiyotda (boshqa so'z turkumlaridan o'ziga qo'shib olish va boshqa guruhlariga o'tish jarayonida) bo'lganligi sababli bu jarayon so'z-gaplarda ham o'z aksini topadi. Shu sababdan ularning yuqorida ko'rsatilgan guruh va guruhchalari, o'z navbatida har bir leksik-semantik guruhning markaziy so'zlariga ma'no va vazifasi jihatdan yaqinligi darajasiga ko'ra to'rt ichki guruhchalarini beradi:

1. Sof [Wp] leksik birliklar;
2. [Wp] lashgan leksik birliklar;
3. [Wp] lashayotgan leksik birliklar;
4. [Wp] simon leksik birliklar.

[Wp] larning bunday bo'linishini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin: (I-jadvalga qarang).

Mazkur jadvalda o'z aksini topgan so'z-gaplarning har bir guruh va guruhchalari, so'zlarning nutq sharoitida voqelanishi va guruhlarga mansub leksik birliklar tavsifiga o'tamiz.

1- jadval. O'zbek tilida [Wp] qurilishli SFShSGlarning ichki guruhlari

Ma'naviy turlari	Modallar [MNPT]	Tasdiq-inkorlar [NPTM]	Taklif-xitoblar [PTMN]	Undovlar [TMNP]
1 Qo'llanishi	<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">M u s t a q i l</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">N o m u s t a q i l</div>			
2 [Wp] lik darajasi	<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">“S O F”</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">“- l a s h g a n”</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">“- l a s h a y o t g a n”</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">“- s i m o n”</div>			
3 Manbaiga ko'ra	<div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">O t d a n</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">O l m o s h d a n</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">S i f a t d a n</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">F e l d a n</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">S o n</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">R a v i s h</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">Y o r d a m c h i s o ' z l a r d a n</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">R a v i s h</div> <div style="border: 1px solid black; padding: 5px; text-align: center;">Ф о р с и й в а а р а б и й б и р и к м а л а р - д а н</div>			
4 Ma'naviy guruhlari	Gumondan qat'iylikkacha bo'lgan xilma-xil ma'nolar	1. Tasdiq 2. Inkor	1. Taklif-ishora 2. Xitob-buyruq	1. Undash-chaqirish 2. His-hayajon
5 Lug'aviy namunalari	Albatta Ehtimol Qaydam Shekilli	Ha Xo'p Xo'sh Bo'pti Mayli Yo'q Aslo Aksincha	Ma Mang Qani Po'sht Kisht Marsh	A A-ha Bay-bay Urta Olg'a Yo xudoyo tavba

Qisqartmalar: 1. Modallar-/MNPT/; 2. Tasdiq-inkorlar-/NPTM/;

3. Taklif-xitoblar - /PTMN/; 4. Undovlar - /TMNP/;

1-bo'lim. [Wp] qurilishli modal so'z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari

Modallarning ma'noviy tarkibini MNPT deb belgilash mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, modallarda so'zlovchining bayon etilgan fikrga munosabatini ifodalash yetakchilik qiladi va bu munosabat tasdiq-inkor (bo'lishli-bo'lishsizlik) ma'nolari bilan hamroh bo'ladi. So'zlovchining bayon etilgan fikrga munosabati ifodalangan modal ma'nolar behad rang-barang bo'lib, inson ongida va tilimizda, ular ishonch, gumon, taxmin, mayl, xohish kabi sub'ektiv munosabatlarning o'nlab darajalarida o'z aksini topadi. Shu boisdan modal so'zlarning ma'nolari ham juda ko'p hollarda darajalangan bo'ladi. Qiyoslang:

**I Gumon-taxmin ma'nosining o'sib borishi**→

*"Mabodo → Hoynahoy → Shekilli → Chamasi"*

Xuddi shunday qatorlarda modal so'zlarni ko'plab misollarda ko'rish mumkin.

1. *"Chap tarafingiz bilan turmadingizmi, mabodo?"* (U.).

2. *"Hoynahoy, menikiga tushmasdan ketmassan"* (U.).

3. *O'rmonjon bu soatning to'g'riligiga shubhalandi shekilli, o'z soatiga qaradi* (A.Q.).

4. *"Bu haqda kelishib olgan edik, chamasi"* (O.YO.)

**II Fikrni umumlashtirish ma'nosining o'sib borishi**→

*"Xullas → Demak → Umuman → Ishqilib"...*

1. *"Xullas, uning uyida allaqanday yangi gaplar ko'paymoqda edi"* (A.Q.)

2. *"Demak, mendan ham qo'rqmaydi. Demak, mening esim sog'."* (T.M.)

3. *"Umuman, siz haqsiz"* (O.Y.).

4. *"Ishqilib, kelgindini tinchitmayman"* (A.Qod.).

**III Fikrni asoslash ma'nosining o'sib borishi**→

*"Chunonchi → Binobarin → Masalan → Xususan → Jumladan..."*

1. *Chunonchi, biz ko'ramizki, odamlar boyni mulladan ziyoda izzat qiladurlar"* (B).

2. **Binobarin**, Hamjamiyat yoki Ittifoq va uning davlatdan yuqori nuvchi tuzulmalari tashkil topgani bilan har bir alohida ishtirokchi mamlakat o'z suvereniteti yoki mustaqilligini to'la saqlab qoladi deb ishontirmoqchi bo'lsalar yoki va'da bersalar, buni jiddiy qabul qilib bo'lmaydi" (I.K.).

3. "Maqtashga loyiq kishilar yo'q emas bizda, **masalan**, Tansiq Ahmedov" (O).

4. "**Xususan**, mana banklar ko'paydi" (B).

5. "**Jumladan**, respublikada sodir etilayotgan jinoyatlar yildan-yilga kamayib bormoqda" (I.K.).

6. "Eng asosiy ijtimoiy institut bo'lgan mulkka, asosan, xususiy mulkka munosabatning o'zgarishi butun jamiyatni va **xususan**, iqtisodiy hayotni demokratiyalashning bosh bo'g'ini bo'ldi"(I.K.).

#### **IV Afsuslanish (achinish) ma'nosining o'sib borishi**→

"**Esiz**→ **Attang** → **Taassuf (ki)** → **Afsus (ki)**..."

1. "Pushaymon ohangi bilan:

—**Esiz**... Zap odamidan xolis xizmat so'ragan ekanman-ku...- dedi juvon" (G'.G'.).

2. "Eh, **attang**, shuncha mehnat qilsang-u, mehnating ko'kka sovirlisa" (Sh.R.).

3. "**Taassuf**, amirzodam, inongan beklar xoinlik qilib, yog'iy tarafga dast berdilar" (P.Q).

4. "**Afsus**, ming **afsuski**, dunyoga juda erta kelganman" (O.).

#### **V Ishonch ma'nosining o'sib borishi**: →

"**Albatta** → **Shubhasiz** → **Shak-shubhasiz**→ **Darhaqiqat** ..."

1. Yengur zulmatni nur, **albatta**, **shaksiz**"(U. va I.S.).

2. "Bu, **shubhasiz**, haqiqat edi"(A.Q.).

3. "XXI asr, **shak-shubhasiz**, xalqaro munosabatlarda butun dunyorni qamrab oladigan asr bo'ladi"(I.K.).

#### **VI Fikr tartibi ma'nosining o'sib borishi**→

"**Avvalo** → **Dastavval** → **Dastlab** → **Avvalambor**→ **Birinchi**dan..."

1. "Avvalo, Toshkentda kim ko`p, soch qo`ygan ko`p" (P.Q.).
2. "Dastavval, shu haqda o`ylab ko`raylik: kim haq-u kim nohaq" (I.K.).
3. "Dastlab, bu fikrni Farobiy aytgan edi" (B.A.).
4. "Avvalambor, ochiq ko`rinib turgan bir haqiqatga e`tiboringizni qaratmoqchiman" (I.K.).
5. "Mendan: "Sizga nima kerak?"-deb so`rganlarida, **birinchidan**, "Xalqimning omonligi - Tinchlik kerak!"- deb javob bergan bo`lardim" (I.K.)

#### **VII Shodlik (mamnunlik) ma`nosining o`sib borishi**→

«Xayriyat → Shukur → Nihoyat → Ishqilib ...»

1. "Xayriyat, YUlduzxon churq etmadī" (U.).
2. "Shukur, el qatori eshigimizga nomer qoqilgan" (A.Q.).
3. "Nihoyat, reja amalga oshadigan bo`ldi" (U.).
4. "Ishqilib, har kim o`ziga yarasha ish topib oldi" (Oydin).

"Ishqilib" modal ma`noli so`z shodlik (mamnunlik) ma`no sidan tashqari orzu-istak, fikrni umumlashtirish ma`nolarini ham ifodalaydi. Shunday sababdan boshqa ma`noviy qatorlardan ham joy oladi.

#### **VIII Hayrat (ajablanish) ma`nosining o`sib borishi**→

• "Ajab (-ki) → Ajabo → Taajjub (-ki) → Nahot (-ki)..." •


1. "Ajab, bu gal ma`ruzaga qo`shimcha qilib nima demoqchi ekan" (A.Q.).
2. "Ajabo, bu odam nega kulayotibdi?" (A.Q.).
3. "Taajjub, yangicha aza, yangicha bazm" (U. va I.S.)
4. "Nahotki, shunday go`zal kelinchak o`zini olovga tashlasa?!" (P.Q.).

#### **IX Eslash ma`nosining o`sib borishi**→

"Vaholanki → Holbuki → Voqean → Aytganday..."

1. "Vaholanki, o`qimoq qarz va ham ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdir" (B.).
2. "Holbuki, alarni ishi tushganlar izzat qilur, mulloni esa barcha xalq izzat qilur" (B.).
3. "Aytganday, bu ishni ertaga qo`yib bo`lmaydi" (M.M.Do`st.).
4. "Voqean, sizga bu xaqda gapirib bergan edim" (O.).

Ko'rinadiki, modallarning ma'noviy xususiyati o'sib boruvchan va xilma-xildir. Modal so'zlardagi ma'nolar kontekst bilan bog'liq holda darajalanadi va ular ham ma'no jihatidan fe'lning mayl kategoriyasi ma'nolariga yaqindir. Zeroki, mayl, bu – fe'lida ifodalangan modallik hisoblanadi (29,10-24; 92,37-42; 99,40-76). Fe'llardagi mayl ma'nosi o'ta umumlashgan grammatik tabiatga ega bo'lib (Q.: 79,5-24), modallarda bu ma'no muayyanlashgan, aniqlashtirilgandir. Shuning uchun tilshunoslar (jumladan, 24, 5-8; 39,31-34; 99, 280-303; 131, 456) aniqlik maylining modal ma'nolarini neytral deb baholashadi. Shu sababdan bu mayl shakli istagan turdagi modallar bilan birika oladi, yuzlab modal ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. Qiyoslang:



Vaholanki, qat'iylikni ifodalovchi buyruq mayli shaklida bunday birikish o'ta cheklangan. *Albatta yoz*, *shubhasiz yoz* birikmasi qo'llanilishi mumkin. Lekin *Ehtimol yoz*, *yoq shekilli* kabi birikishlar nutqda bo'lishi mumkin emas. Chunki bunday modallarning lug'aviy ma'nosi buyruq maylining grammatik ma'nosi bilan ziddiyatga kirishadi va o'zaro birika olmaydi.

Modallar ma'nolarining [Pm]dagi mayl ma'nosi bilan o'zaro bog'liqlikni o'zbek tilshunosligida yana bir hodisa bilan aniqlash mumkin. Odatda, gapda boshqa bo'laklar bilan bog'lanmaydigan – kiritma va kirish bo'lak vazifasida keladigan (6; 8; 14; 25; 60; 63; 73; 91; 97; 118) modallarni fe'l kesim o'ziga tortib oladi va kirish bo'lak vazifasida keladigan modal so'zlarni ravish holdan farqlash qiyin bo'ladi. Masalan:

1. "*Rejani albatta to'ldiramiz*" (Ch.Ayt.).

2. *Rejani, albatta, to'ldiramiz.*

Shu sababdan ayrim tilshunoslar modal so'zlarni o'ziga xos gap bo'lagi (134, 31), ayrim tilshunoslar esa, qo'shma gap tarkibidagi bosh gap sifatida talqin etadilar (102). Shuning uchun kirish bo'lak va kiritmalar mavqeida



keladigan modallar gap tarkibida gapning boshqa tarkibiy qismlariga bog'langan deyish mutlaqo noto'g'ridir. Ular [Pm] da mujassamlangan mayl ma'nosi bilan uzviy bog'langan va ularni aniqlashtirib keladi. Shu sababdan modallar ega [Pm] dagi shaxs ma'nosini muayyanlashtiruvchi, o'rin va payt hollari [Pm] dagi zamon ma'nosini muayyanlashtiruvchilar bilan o'xshash bo'lib, ularning o'zidagi xususiy ontologik tabiatida kesimlik ma'nolari mujassamlanganligi bois gapning boshqa bo'laklaridan ajralib turadi va boshqa bo'laklar bilan sintaktik jihatdan bog'lanmaydi. Lekin shu bilan bir qatorda "*Koshki, barcha orzular amalga oshsa edi*" turidagi gaplarda "*Koshki*"ni bosh gap deb, "*amalga oshsa edi*" ni ergash gap deb baholash (Qarang: 102) ham munozarali bo'lsa kerak. Shuning uchun biz ko'pchilik tilshunoslarning (8,105-117; 25,170-175; 32,232; 92,154-157) izidan borib, tarkibida modal so'z ishtirok etgan gaplarni murakkablashgan sodda gaplar sifatida baholash tarafdorimiz. Ma'lumki, so'zlovchining bayon etilgan fikriy munosabati nafaqat mayl shakllarida va modal so'zlar bilan, balki juda ko'p miqdordagi modal shakllar, modal qurilmalar bilan ham ifodalanadi. Biz bunday nutqiy hosilalarni modalsimonlar deb baholash tarafdori bo'lar edik. *Menimcha, senincha, aytishlaricha, fahmlashimcha, uning gaplariga ko'ra, kitoblarda tadqiqotchilar ta'kidlab o'tganlaridek* kabi hosilalar shundaylar jumlasidandir. Bunday hosilalar nutqda qo'llanish miqdoriga ko'ra (xususan, ilmiy adabiyotlarda) modal so'zlardan ko'ra ko'proq uchraydi. Masalan:

1. "*Menimcha, unda oz deganda yarim yillik ish bor, ishchi kuchini qaerdan topamiz-u, xarajatni qaerdan olamiz*" (Sh.R.).
2. "*Fikrimizcha, to'liqsiz gaplarda ham intonasion tugallik mavjud bo'ladi*" (A.H.).
3. "*Shunday qilib, biz dialogik nutq tarkibidagi to'liqsiz gaplarni ko'rib chiqdik*" (A.H.).
4. "*Aytishlaricha, mehmonlari bilan yozlik bog'iga kelib, sayohat qilib yurgan emish*" (M.Ibr.).

Bundan anglashiladiki, modal soʻzlar tizimining bir bugʻini markazini “*Albatta*”, “*shekilli*” kabi **sof modallar** sifatida qaraydigan leksik birliklar tashkil etsa, uning chekkasini soʻzlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatini ifodalovchi modalsimon hosilalar (soʻzlar, soʻz shakllari, Shuningdek, sintaktik qurilmalar) tashkil etadi. Shu zanjirning ikki chekkasi oraligʻida *modallashgan, modallashayotgan* birliklar oʻrin oladi.

Modallashgan birliklar deganda, oʻzining tarixiy etimologik, funksional-semantik aloqalarini boshqa soʻz turkumlaridan, asosan, ot sifat, son, olmosh, ravish, feʻldan uzil-kesil uzmagani (ajralmagan) *Ehtimol, soʻzsiz, shubhasiz, shaksiz* kabi hosilalarni tushunish mumkin.

Modallashayotgan vositalarda esa boshqa soʻz turkumlariga yaqinlik yanada ham yorqinroq namoyon boʻlib turadi. *Birinchidan, ikkinchidan, taxminan, avvalo* kabi hosilalar ularning misoli boʻla oladi. Shu boisdan, yuqorida aytib oʻtganimizdek, kirish boʻlak va ravish holi vazifasidagi soʻzlarni bir-biridan ajratish qiyin. Qiyoslang:

1. *Taxminan, keladi* (gumon, taxmin maʼnosi);

2. *Taxminan keladi* (moʻljalni olib maʼnosi - ravish holi vazifasida).

Albatta, “**taxminan**” soʻzining modal soʻz yoki ravish holi vazifasida kelishida urgʻu va ohangning ahamiyati katta. Lekin zotiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan “*taxminan*”- modallashayotgan kirish boʻlak va “*taxminan*”- ravish holi bir manbadan, yaʼni ravish soʻz turkumiga mansub “**taxminan**” holat ravishidan shakllangan.

Modallarning boʻlinishidagi yana bir holat ularning mustaqillik va nomustaqillik xususiyatlaridir. Bir qator modallar nutqda, nutq sharoiti bilan bogʻliq ravishda yakka oʻzi bimalol nutqiy gap vazifasida kela oladi. Bunday modallarni biz mustaqil modallar deymiz. Mustaqil modallar sof (*Chunonchi, Albatta, attang*), modallashgan (*Shubhasiz, shak-shubhasiz, shaksiz*), modallashayotgan (*soʻzsiz, afsus*), modalsimon (*baxtga qarshi, juda qiziq, ajoyib*) koʻrinishlarida boʻlishi mumkin. Mustaqil modallar sodda gap tarkibiga bimalol kirib ketishi va uni murakkablashtirishi mumkin. Nomustaqil modallar

(*shekilli, xullas, darvoqe*) mustaqil holda alohida gap mavqeida kela olmaydi, faqatgina boshqa gaplar tarkibida qo'llaniladi.<sup>1</sup>

Ular ham sof modallar (*masalan, mabodo, xullas*), modallashgan (*chamasi, chog'i, ehtimol (-ki), mazmuni*), modallashayotgan (*hatto (-ki), balki, aftidan*), modalsimon (*menimcha, bilishimcha, shunday qilib*) so'zlariga bo'linadi.

Yuqorida tavsiflangan modal so'zlarning 8 guruhidagi so'zlar shakllanish tarkibiga ko'ra tarixan otlardan (*haqiqatan, darhaqiqat, chamasi, aftidan, afsus* kabilar), sifatlardan (*shubhasiz, so'zsiz, shekilli* kabilar), sonlardan (*birinchidan, ikkinchidan...*), ravishlardan (*taxminan, albatta, avvalo, ayniqsa, asosan, xususan...*), fe'llardan (*demak, demoqchi, aytmoqchi, aytganday...*), hatto ba'zi yordamchi so'zlardan (*balki, koshki, hattoki, nahotki, haytovur...*) ham rivojlangan bo'lishi mumkin.

Modallar ma'naviy xususiyatlariga ko'ra so'zlovchining turli darajadagi 1) ishonchini; 2) taxminini; 3) shubhasini; 4) chamasini; 5) gumonini; 6) ajablanishini; 7) xursand-mamnunligini; 8) afsuslanishini; 9) fikrning tartibini: *umumlashtirish, xulosalash, dalillash, ta'kidlash* kabi xilma-xil ma'naviy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Shubhasizki, bu ma'naviy guruhlarning har biri mustaqil va nomustaqil, Shuningdek, sof modallar, modallashgan, modallashayotgan, modalsimon leksik birliklarni o'z ichiga oladi.

Modallarning qo'llanilishiga e'tibor beramiz.

## 1. Mustaqil modal so'zlar (2 -jadvalga qarang).

### 1.1. Sof modal so'zlar.

1.1. A. So'zlovchining qat'iy ishonchini bildiruvchi sof modal so'z:

a) "Qo'chqor: *Gap mundoq, Olimtoy, ukammisan?*

Olimjon: *Albatta*" (Sh.B.).

b) "- *Osh qilib bergandir?* - *Albatta*" (A.Qod.).

---

<sup>1</sup> Nomustaqil modallar ko'pincha dialogik nutqlarda "shunday" tasdiqlashgan leksik birlik bilan birgalikda kelishi ko'p uchraydi va ular "modal-tasdiq" qorishiq ma'nolarni anglatadi. Chunonchi, *Xullas shunday, chamasi shunday, shunday chog'i* kabilar.

v) "Anvar kuldi: - Men mehmonmi?"

Ra`no jiddiy ravish bilan: - **Albatta**, siz bizga mehmonsiz" (A.Qod.).

g) "**Yo`qsa, albatta**, sizni zeriktirmas edim" (A.Qod.).

Kontekstlarda "**albatta**" so`zi turli qurshovlarda uchrashi mumkin. Jumladan, modallar bilan uyushib kelishi hodisasi oxirgi misolda kuzatilmoqda. Bu nutqiy qurshovda "**yo`qsa**" so`zi ham nomustaqil modallashganlardandir.

2-jadval:

**I. Mustaqil modal so`zlar**

	Guruhlar	Misollar	Ma`noviy xususiyatlari
1.	Sof [Wp]	1. Albatta ✓ 2. Attang 3. Xayriyat 4. Koshki 5. Shoyad 6. Qaydam 7. Balkim 8. Zora	qat`iy ishonch achinish mamnunlik orzu-istak umid-istak istihola, tushunmaslik gumon
2.	"[Wp] -lashgan"	1. Shubhasiz 2. So`zsiz 3. Shaksiz 4. Shak-shubhasiz 5. Qulluq 6. Shukur 7. Rahmat 8. Alhamdulliloh 9. Afsus 10. Taassuf 11. Ajab 12. Ajabo 13. Taajjub	ishonch ishonch ishonch qat`iy ishonch minnatdorlik, mamnunlik rozilik, minnatdorchilik kuyinish, afsuslanish ajablanish hayrat ajablanish
3.	"[Wp] -lashayotgan"	1. Nahot (-ki) 2. Qarang-a 3. Qo`ysang(iz)-chi 4. Boring-e 5. Qo`ying-e	hayrat, ajablanish ehtiros: ishonmaslik ehtiros: uyalish ehtiros: e`tiroz
4.	"-simon[Wp]"	1. Qiziq 2. Tavba 3. Zo`r (-ku) 4. Ajoyib	ajablanish, shubhalanish hayrat, shubha olqish, kesarish olqish, mamnunlik

### 1.1. B. Soʻzlovchining achinishi maʼnosini ifodalovchi sof modal soʻz:

a) “- *Attang* ...

-*Nimasiga achinasiz? Hozir bunaqa duolar hech kimga kerak emas*  
(Ch.Ayt.).

b) “-*Eh, attang, bu yogʻi necha pullik ish boʻldi, uka?*” (Oʻ.Us.)

Baʼzi ilmiy adabiyotlarda (masalan, q.; 96,336) *Attang* soʻzini undovlar tarkibida uchratamiz. Holbuki, bu – modal soʻz. Chunki unda soʻzlovchining bayon etilgan fikriga munosabati kuchli. Shu sababdan uni undovlar tarkibiga qoʻshish, bizningcha, toʻgʻri emas. Shuningdek, kontekstlarda bu soʻzning “*Eh*” “*Eh*” undovlari bilan birga qoʻllanilishi (yaʼni *E attang*, *Eh attang*) variantlar ham badiiy adabiyotlarda koʻplab uchraydi. Bu birikmalarni alohida ajratish mumkin emas, bunga sabab zotiylik nuqtai nazaridan kuchli aʼzoning kuchli aʼzo bilan munosabatga kirishishi deb baholanishidir.

### 1.1. C. Soʻzlovchining mamnunligini ifodalovchi sof modal soʻz:

a) “- *Xayriyat*, - *dedi Doʻsmat nafasini oʻnglab*” (P.T.).

“*Xayriyat*” soʻzining undov va koʻmakchilar bilan kengayish xususiyatlari mavjud. Masalan, “*E xayriyat*”, “*Xayriyat - e*” kabi.

b) “*E xayriyat, bor ekansiz - ku?!*” (O.Y.)

v) “*Xayriyat-e. Bulutlar tarqaldi, endi yomgʻir yogʻmaydi.*” (O.Y.)

Kontekstual tahlillardan maʼlum boʻldiki, mazkur modalda kesatish piching maʼnolari ham mavjud. Masalan: “*Oʻ xayriyat, yorildingiz!*” (U.).

### 1.1. D. Soʻzlovchining orzu-umidini ifodalovchi sof modal soʻz:

a) “-*Ha, koshki. Urush olovi tezroq oʻchsin edi, bolam!*” (R.F.)

b) “- *Koshki, akasi Yoʻlchi boʻlsa edi*” (O.).

### 1. 2. D. Soʻzlovchining istihola qilishini ifodalovchi sof modal soʻz:

a) “-Qayin otangiz koʻnsa, koʻchingizni olib kelsangiz ham maʼqul edi qatnab yurgandan ...

- “*Qaydam*” (A.Qod.).

“*Qaydam*” soʻzi gumon maʼnosini ham ifodalaydi: Masalan: “- *Hali yigir bor edi. - Qaydam*” (T.M.).

## 1. 2. Mustaqil modallashgan soʻzlar.

### 1.2. A. Ishonch maʼnosini ifodalovchi modallashgan soʻzlar:

a) "Bilar edim, muqaddas jangda, **shak-shubhasiz**, borishinglozim" (U.).

b) "**Shubhasiz**, toptalar, yanchilar gʻanim,

Oʻlsam ayrilmasman quchoqlaringdan." (U.)

c) "Soʻzsiz, rejani bu yil ham ortigʻi bilan bajaramiz" (Matbuotdan).

Nutqimizda "**shak-shubhasiz**", "**Shubhasiz**" soʻzlarining kengay tiruvchilari bilan kelishi ham uchraydi. Masalan, "Ishga kechikib kelishi **shubhasiz**" kabi.

### 1.2. B. Mamnunlik (shodlik, minnatdorchilik) ni ifodalovchi soʻzlar:

a) "Ibrohim: *YAngi mehmon muborak boʻlsin. Mana endi ota ham boʻldingiz.*

*Qodirjon: **Qulluq**" (K.Y.).*

b) "**Rahmat**, mirzo, sizning bu sadoqatingizni janobga yetkazaman" (A.Q.).

c) "- Domlangiz salomatmi? - **Shukur**" (A.Qod.).

**Shukur** ning kengaytiruvchilar bilan kelishiga misol:

1. "**Xudoga shukur**, hamma erda toʻkinchilik.

2. "**Ming marta shukur**, hamma narsa serob" (A.N.).

Kontekstlarda modallashgan soʻzlarning serunum foydalanilishiga misol:

"**Xoʻp**, salomatmisiz mirzo, qahor?

— **Shukur**. Oʻzlaridan soʻrasak?

— **Alhamdulillah**" (A.Qod.).

Bu kontekstda "**Xoʻp**" tasdiq soʻzi ham modal maʼno kashf etgan. Modal maʼno tasdiq maʼnosidan oʻta kuchli va undan soʻzlovchining biron-bir voqea-hodisani tasdigʻi uchun emas, balki unga munosabat bildirish uchun foydalanilgan. Bu holat soʻz-gaplarning funksiyadoshlik qobiliyatidan dalolatdir.

### 1.2. Afsuslanish maʼnosini ifodalovchi modallashgan soʻzlar:

a) "**Zamon ham, turmush ham oʻzgaryapti, mulla, ruschadan bilasizmi?**

**Afsus**, aslo bilmayman, -javob berdi Umarali mehmon qarshisida chordana qurib." (O.).

b) “–*Taassuf, amirzodam, bir qoshiq qonimdan keching! Yana bir shum xabar*” (P.Q.). “*Afsus*” “*taassuf*” modallashganlari “-ki” bogʻlovchisini qabul qiladi va “*Ming afsus*”, “*Taassuflar boʻlsinkim*” shaklida kengayishi mumkin.

### **I.2. D. Hayrat (ajablanish) maʼnosini ifodalovchi modallashgan soʻzlar:**

a) “*Ajab, zanjirband sher, engaman der*” (U. va I.S.).

b) “*Bobur kulimsirab:*

– *Ajabo! - dedi endi yoʻgʻonlasha boshlagan oʻsmir ovozi bilan. - Toʻgʻ choʻqqisiga ham zinapoya bilan chiqurlarmi?!*” (P.Q.)

v) “*Taajjub! Odam bolasi shunchalik yovuzlashadimi-a?!*” (T.M.)

“*Ajabo*”, “*Vo ajab*” modallashganlar quvonch maʼnosini ham ifodalashi mumkin. Chunonchi, “*Vo ajab, - deb Bobur quvonib eshikka tomun shoshildi*” (P.Q.).

### **I.2. E. Avf soʻrash maʼnoli modallashgan soʻzlar:**

a) “– *Uzr, domla, lekin sezmay qolibman. Endi, yirik polotno, koʻzdan qochgan shekilli-da ...*” (M.M.Doʻst.).

“*Uzr*”ning “*Ming bor uzr*” kengaytiruvchilari bilan qoʻllanilishi ham uchrab turadi: “*Ming bor uzr, taqdir. Boshqa takrorlanmaydi*” (Gʻ.Gʻ.)

### **I.3. Mustaqil modallashayotgan soʻzlar:**

#### **I.3.A. Hayrat (ajablanish) maʼnosini ifodalovchi modallashayotganlar:**

a) “– *Nahotki?! Nahotki, u uch yildan beri shunday odamga, shunday soxta olim, tekinoxʻr, pastkash bir kimsaga laqqa ishonib, undan najot kutib yuribdi?*” (R.O.)

“*Nahotki*”, “*Nahot*” modallashayotganlar norozilik maʼnosini ham ifodalaydi va koʻpincha dialogik nutqlarda mustaqil soʻroq soʻz-gap sifatida ishlatiladi. Gap tarkibida kelsa, ritorik soʻroq soʻz-gap hosil boʻladi. Bu xususiyat uning soʻroq yuklamasidan tamoman ajralib chiqmaganidan dalolatdir. Masalan: “–*Nahotki, oʻsha kunlar esingizdan chiqqan boʻlsa?!..*” (A.Q.)

#### **I.3.B. Emotsional (his-tuygʻuli) maʼnoli modallashayotgan soʻzlar:**

a) “–*Oh-oh, qoshlarni aytmaysanmi?! Qani oʻsha qoshlarni koʻrsatchi Xadicha?*”

– *Boring-e .... Qarib quyilmagan chol ...*” (S.A.).

b) “–*Bilasanmi, xotin. Tushimda men Amerikada sayohat qilib yurgan emishman...*”

–*Qo`ysangiz-chi. Tunov kungi maoshingiz yaponskiy gazmolga zo`rg`a yetdi-ku.*

–*Ol-a! “Tush o`ng chiqmaydi” deganlari shundan ekan-da, a? (Yumor)*

c) “–*Eshitingizmi, adasi. Anavi qo`shnimiz lotereyada “Damas” yutibdi!*

–*Qarang-a.. Omad deb shuni aytadilar-da” (Jonli so`zlashuv.).*

d) “–*Niyat qildim, olmasangiz bo`lmaydi, - dedi Abdujabbor.*

–*Qo`ying, uka, qistamang...(M.M.Do`st).*

e) “–*Qo`ying-e! - Ozod bepisand qo`l siltadi” (R.O.).*

f) “–*Qo`ysang-chi, biz hali bularni o`tmaganmiz” (A.M.).*

Bu turkum so`zlar jonli so`zlashuv nutqida ko`plab uchraydi va ko`pincha yuklama qabul qilib, semantik xususiyatlari bilan modallashayotganlar qatoriga o`tadi.

#### 1.4. Modalsimon so`zlar:

##### 1.4.A. So`zlovchining hayratlanishini ifodalovchi modalsimon so`zlar:

a) “–*Qiziq. Muzaffar bu yo`ldan shuncha yurib, biror marta bu yodgorlikka sinchiklab qaramagan ekan” (O.Y.).*

b) “–*Qiziq bo`ldi-ku, uka! -dedi Yaxshiboev ensasi qotib” (M.M.Do`st).*

v) “–*Tavba, - dedim men, - jigarning jigardan farqiyam bo`lar ekan-da” (M.M.Do`st.).*

g) “–*Voy tavba! Suluvjonmisan?” (O.Y.)*

“*Voy tavba*” so`z qo`shilmasi ko`pincha kuchli ajablanish ma`nosini anglatadi. Shunga o`xshash hosilalarning turli ma`nolar ifodalashi so`zlovchining nutq imkoniyatlari va uning ruhiyati bilan bog`liqdir. Qiyoslang:

1. “*Bobur joyida o`tirolmay o`rnidan turib ketdi.*

–*Yo alhazar! Toshkent ham qo`ldan ketdimi, a?” (P.Q.)*

2. “–*Bu gal Shayboniyxon Maxmudxonning o`zini ham, yosh o`g`illarini ham ayovsiz qatl ettirmishdir!*



–*Yo alhazar!..Yo rab ...*” (P.Q.)

Matndagi birinchi qurshovda *Yo alhazar* hosilasi ajablanish ma'nosida, ikkinchi qurshovda esa nafrat, g'azab, hayratdan ensasini yo'qotish ma'nolarida qo'llanilgan.

**I.4.B. So'zlovchining e'tiqodi (illohiy kuchga sig'inish: norozilik, ojizlik, shukronalik) ma'nosini ifodalovchi modalsimon so'zlar:**

a) “–*E xudoyim! Dunyo nechuk bunday beomon yaratilgan?*” (P.Q.)

b) “–*Yoppiray-a! -hayratlandi qorovul chol*” (Mirm.).

v) “–*Xudo saqlasin! Shunaqa gap deng?! - dedi hayratlanib Cho'it xola* (Mirm.).

g) “–*Yo Oллоh! - dedi Sheramat yoqasini ushlab*” (O.).

d) “–*Ey parvardigoro, agar bilsang, men bu ishni seni yuz xotir qilib qilgan erdim*” (Hadis).

e) “*Minglab ovozlarning:*

–*Oллоhu akbar!*

–*Oллоhu akbar! - degan hayqirig'i barcha saflar bo'ylab tarqaldi*” (P.Q.).

Shu kabi modalsimon so'zlar nutqimizda ko'plab uchraydi va turli tuman ma'noviy munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

**I.4. V. Olqish ma'nosini ifodalovchi modalsimon so'zlar:**

a) “*Yashang, uka, bor gaplarning to'g'risini yozibsiz*” (G'.G'.).

b) “*Yashavor, azamat! Juda yaxshi ish qilibsang*” (O'.U.).

**I.4. G. Muomala munosabatlarni ifodalovchi modalsimon so'zlar:**

a) “–*Assalomu allaykum, amakijon, keldingizmi?-dedi Momosulu eshikdan mo'ralab.*” (O.)

b) “–*Xayr! Omon bo'ling, Umid aka, – Hafiza qo'l uzatdi.*

–*Xayr*” (Mirm.).

v) “–*E, bormisiz, mirzo Anvar!*” (A.Q.)

**I.4. G. Gumon-tasdiq ma'noli modalsimon so'zlar:**

a) “*Bo'lsa bordir, deb ko'nglidan o'tkazdi Hanifa*” (Mirm.).

b) “*Kim bilsin.. Balkim siz haqdirsiz*” (O'.U.).

2. Nomustaqil qo'llaniladigan modal so'zlar.: (3-jadvalga qarang)

No	Guruhlar	Misollar	Ma'noviy xususiyatlari
1.	Sof [Wp]	1. Shekilli 2. Hoynahoy 3. Mabodo 4. Chunonchi  5. Masalan 6. Binobarin 7. Darvoqe 8. Darhaqiqat 9. Haytovur 10. Axir 11. Xullas(i kalom)	gumon, shubha taxmin gumon.chama,shubha fikir oqimini belgilash, asoslash fikrni asoslash ta'kidlash fikrni eslash fikrni tasdiqlash olqish, hayrat achinish, norozilik fikrni umumlashtirish
2.	"[Wp]- lashgan"	1. Demak 2. Chamasi 3. Chog'i 4. Nihoyat 5. Mazmuni 6. Taqriban 7. Yaxshisi  8. Ayniqsa 9. Ehtimol(-ki) 10. Rosti	fikrni umumlashtirish shubha, gumon gumon taskin topish xulosa chiqarish taxmin fikir oqimini boshqa maqsadga qaratish gumon ishontirish
3.	"[Wp]- lashayot- gan"	1. Hatto(-ki)  2. Balki 3. Aftidan 4. Taxminan 5. Dastlab 6. Dastavval 7. Avval 8. Avvalo 9. Avvalambor	ayirish, ajratib tushunish gumon gumon, shubha gumon, taxmin fikrning tartibi fikrning tartibi fikrning tartibi fikrning tartibi
4.	"[Wp]- simon"	1. Menimcha 2. Fahmimcha 3. Bizningcha 4. Aytmoqchi 5. Aytganday 6. Demoqchi 7. Har holda 8. Baxtga qarshi 9. Ta'kidlagani- mizdek 10. Ishqilib 11. Shunday qilib	voqea-hodisaga munosabat voqea-hodisaga munosabat voqea- hodisaga munosabat ta'kid, eslash ta'kid, eslash ta'kid, eslash betaraflik norozilik esga solish mamnunlik xulosa xulosa

## 2.I. Sof modal soʻzlar:

### 2.I. A. Gumon (shubha, taxmin, chama) maʼnosini ifodalovchi sof modal soʻzlar:

a) “Oʻrmonjon, bu soatning toʻgʻriligiga shubhalandi **shekilli**, oʻl soatiga qaradi” (A.Q.).

b) “Bu sayohat juda maʼqul keldi, **shekilli**, Umarali bortga yonboshlab, allaqanday bir kuyni xirgoyi qila boshladi” (A.Q.).

v) “–**Hoynahoy, kep qolar**” (O.Y.).

Nutqimizda “**shekilli**” soʻzi olmoshlar bilan birga tasdiq-gumon maʼnosini anglatadi. Jonli soʻzlashuv nutqidan misollar: 1.“ – *Anavi Ergashmi? (Oʻsha **shekilli**.” 2.“ (Sanobar oʻqishga kiribdimi? (Shunday **shekilli**.” 3. “– *Qarindosh-urugʻlari kelibdimi? - Shunaqa **shekilli**. Shuningdek, nutqimizda Shundaydir **shekilli**, Shunaqadir **shekilli** hosilalari ham uchrab turadi.**

### 2.I. B. Soʻzlovchi fikrini asoslash maʼnosini ifodalovchi sof modal soʻzlar:

a) –*Soʻnggi vaqtlarda Qobus mendan shaʼnimga yarashmaydurgan ishlarni talab qila boshlagan edi.*

–*Chunonchi, qanday ishlarni?– deb soʻradi Abu Nasr sergaklanib (M.O).*

b) “**Masalan, Musulmonqulni kim xolis odam deb oʻylaydir?!**” (A.Qod.)

Bu turkum hosilalar badiiy adabiyotlarda nisbatan kam, ilmiy va publisistik asarlarda esa koʻproq uchraydi.

### 2.I. C. Soʻzlovchi fikrini umumlashtirish (xulosalash) maʼnosi:

a) “–**Xullas, boʻlgan gap shu.**” (O.Y.)

**Xullas** soʻzining kengaytiruvchilariga eʼtibor bering. Uning forsiy izofa qabul qilishi badiiy uslubga xosdir:

1. “–**Xullasi, gap shu yerda qolsin.**” (A.Q.)

2. “...**Xulasi kalom, natija shunday boʻldi**” (R.O.).

### 2.I. D. Taʼkid (eslash) maʼnosini ifodalovchi sof modal soʻzlar:

a) “**Darvoqe, Olmaota poezdiga chiqish uchun Boʻronlidan bir qadam orqaga yurishga toʻgʻri keladi**” (Ch.Ayt.).

b) "*Darhaqiqat, Xushruyning bu ishdan ham toymasligini aniq bilib, vig'lay-yig'lay bolalarini o'zi bilan birga olib ketadir*" (A.Qod.).

c) "*Modomiki, masala o'zi shu qadar ravshan va aybdorning o'zi o'z og'zi bilan iqror bo'lib turibdi, mayli, muzokara ochib o'tirmasak ham bo'ladi*" (Ch.).

d) "*Binobarin, qalbaki do'stlik, qardoshlik qo'li ostidagi dushmanlik olovlari yong'inga aylanur*" (O.).

e) "*Filhaqiqat, insoni komil bo'lmoq uchun ilmdan o'zga yana bir ko'p sifatlar kerak emish*" (O.).

Ta'kid ma'nosini ifodalovchi sof modallar badiiy adabiyotlardan ko'ra publisistik asarlarda, Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda ko'proq uchraydi....

### 2. I. D. Orzu-istak ma'noli modal so'zlar:

a) "*Shoyad, shunday bo'lsa! Ammo meni hozir qizilboshlar tashvishga solmoqda*" (I.K.).

*Shoyad* so'zi - ki bog'lovchisini qabul qiladi:

b) "*Shoyadki, shifo bersa*" (A.Q.).

v) "*Zora, bir kun boy bo'lib ketsa...*" (O.)

### 2. I. E. Olqish ma'nosi:

a) "*Xaytovur, omadingiz keldi. Siz yutdingiz*" (U.).

### 2. I. F. Norozilik ma'nosi:

a) "*Axir, men uni unutilmay yuribmen-ku? Unga ham men kerak bo'lsam-chi?*" (P.Q.)

### 2. 2. Nomustaqil modallashgan so'zlar.

#### 2. 2. A. Gumon ma'nosini ifodalovchi modallashganlar:

a) "*Tog'am hozir xiyla badavlat bo'lgan, chamasi*" (P.Q.).

b) "*Ehtimol, bundan hech narsa chiqmas, Shunday bo'lsa ham sizga aytgimiz keldi.*" (A.Q.)

Dialogik nutqda *Ehtimol* so'zi mustaqil so'z-gap vazifasida qo'llanilishi mumkin. Chunonchi: "*Ezgu ishimizga rahna solmoqchilar deng? - Ehtimol* (O.Y.). Bog'liq qurshovlarda bu so'z "-ki" bog'lovchisini ham qabul qiladi:

“*Ehtimolki, bu qo`lingdan kelar ham, lekin ko`ngilchanlik qilib, vijdondan ayri tushmoq shartmi?*” (M.M.Do`st.)

## 2.2. B. Ta`kid (eslash) ma`nosi:

a) “*Holbuki, biz yaqindagina eshon to`poloni bo`lib o`tgan joydan uncha olisda emasmiz*” (Ch.).

b) “*Ayniqsa, 1916 yil rabochiy olish masalasidan keyin umuman Turkiston ishchilarida uyg`ongan istibdodga nafrat menda ham kuchli edi*” (A.Qod.).

c) “*Zotan, buning nima ahamiyati ham bor?*” (Ch.)

## 2. 2. V. Fikrni umumlashtirish (xulosalash) ma`nosi:

a) “*–Demak, o`sha so`zlaringizni isbot qilish uchun hujjatingiz yo`q*” (A.Qod.)

## 2. 2. G. Fikr maqsadi (oqimi) ni boshqa tarafga burish ma`nosi:

a) “*Yaxshisi, shuy haqda gaplashmaylik, o`rtoqjon!*” (U.)

## 2. 3. Nomustaqil modallashayotgan so`zlar:

2. 3. A. Ayirish- chegaralash ma`nosini ifodalovchi modalla-shayotganlar:

a) “*Hatto, tinglashga ham etmaydi kuchim*” (S.Z.).

b) “*Hattoki, osmonlar ham yig`lar men bilan.*” (M.Y.)

## 2. 3. B. Gumon-taxmin ma`noli modallashayotgan so`zlar:

a) “*Balki, gapingiz chindan ham haq*” (M.Sh.)

Dialogik nutqda *balki* so`zi mustaqil so`z-gap vazifasida keladi:

b) “*–Shunday qilib, senga ishonsa bo`ladi-ya?*

–*Balki... . Lekin men harakat qilib ko`raman*” (Ch.Ayt.).

*Balki* modallashayotgan so`z va “*balki*” bog`lovchining ma`noviy va vazifaviy xususiyatlari farqlanadi. Qiyoslang:

Modallashayotgan so`z	Bog`lovchi
“ <i>Balki, siz aytarsiz nima bilganini?</i> ” (R.O.)	“ <i>Nafsi uchun emas, balki qadri uchun yig`laydi-da</i> ” (E.Us.)
Gumon ma`nosini ifodalaydi.	Grammatik vazifa bajaradi.

c) "*Sharofat...yerga qaragancha o'tirar, aftidan* , bu savolga javob bermoqchi emas edi." (A.Q.)

## 2. 2. G. Fikr tartibini bildiruvchi modallashayotgan so'zlar:

a) "*-Dastlab, o'zingiz bunga qarshi chiqqan edingiz o'shanda*" (O'.U.)

b) "*-Avvalo, La'linisa, bu bolalarning hammasini o'z bolalarim deb qarang* (H.G'.).

c) "*-Avvalambor, va'da bergan siz, sizning gumashtalaringiz*" (T.M.).  
*Avvalo* so'zi *Eng avvalo* shaklida ham nutqda qo'llaniladi: "*Eng avvalo, tarixiy haqiqatni qaror toptirishimiz kerak*" (I.K.).

## 2.4. Nomustaqil modalsimon so'zlar.

### 2.4. A. Voqea-hodisalarga munosabat bildirish ma'nolari:

a) "*Menimcha, har bir narsani o'z nomi bilan aytishga fursat etdi*" (I.K.).

b) "*Fikrimcha, ekologik masala bugungi kunda umuminsoniy masalalardan eng muhimi*" (I.K.).

c) "*Bizning bilishimizcha, g'arb mamlakatlarida ham mamlakat byudjetidan bir yilda shuncha mablag' xalq maorifi uchun sarflanishi belgilab olinmagan*" (I.K.).

Bunday turkum so'zlar o'zbek nutqida son-sanoqsiz miqdorda uchraydi.

### 2. 4. B. Chamalash ma'nosini ifodalovchi modalsimon so'zlar:

a) "*-Har holda, bu haqda chuqurroq o'ylab ko'rish kerak*" (I.K.).

*Har holda* so'z qurilmasi *chog'i, chamasi* nomustaqil modallashganlarning chetki qatlamini tashkil etadi.

### 2. 4. V. Ta'kidlash (esga tushirish) ma'nosi:

a) "*Aytmoqchi, go'sht esdan chiqmasin*" (A.Q.).

b) "*Aytganday, Matyusuf Xarratov telefon qildi*" (.Sh.X.).

c) "*-Aytganicha, qaytishda Qozi domlani chaqirish esdan chiqmasin.*" (A.Qod.)

### 2. 4. G. Imkonsizlik (nochorlik) ma'nosi:

a) "*Baxtga qarshi, kecha yomg'ir yog'di*" (I.Rahim.)

b) "*Menga qolsa, ishdan haydab yuborar edim*"(N.A.).

#### 2. 4. D. Mamnunlik ma`nosi:

a) "*Baxtimizga, bugun telefonda ovoz juda yaxshi eshitilardi*" (A.Q.).

b) "*Baxtinga, sen bor ekansan, bolam*" (O`H. ).

v) "*Ishqilib, har kim o`ziga yarasha ish topib oldi*"(Oydin.).

Tilimizda modallarning leksik qurshovlaridan joy olgan va joy egalashi mumkin bo`lgan son-sanoqsiz so`zlar tarixan ot, sifat, ravish, fe'l, son, olmosh, shuningdek, yordamchi so`zlardan o`sib chiqqan va o`tish bosqichida turgan leksik birliklardan iboratdir. Tadqiqotchilar modal so`zlar umumiy qamrovini 40 dan ortiqroq deb e`tirof etishadi (133; 81). Holbuki, bunday emas: ularning soni cheksizdir. Biz mazkur bo`limdan modal so`zlarning mustaqil turlari nutqda, ya`ni mustaqil qurshovlarda so`z-gap – SFShSG larning yuzaga chiqishini ta`minlaydi va nomustaqil turlari kabilar singari bog`li qurshovlarda sodda gaplarni murakkablashtiradi, deb tamoman asosli xulosa chiqarishga haqlidirmiz.

## II bo`lim. [Wp] qurilishli tasdiq-inkor so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.

Modallar so`zlardan farqli o`laroq tasdiq-inkor so`zlarning ontologik, semantik va funksional tabiati uning [NPTM] kabi strukturasi o`z aksini topadi. Tasdiq-inkor so`zlari [Pm] tarkibidagi tasdiq-inkor (bo`lishli-bo`lishsizlik)ni maxsus ifodalashga “ixtisoslashgan” so`zlar ekanligi hech qanday shubha tug`dirmaydi. Chunki ularning semantik strukturasi [N] ning birinchi o`rinda turishi izoh talab qilmaydi. Ikkinchi o`rinda [P] ning (ko`pincha va nisbiy) turishiga sabab shuki, tasdiq-inkor so`zlari javob nutqida ikkinchi shaxsga qaratilgan bo`ladi. Shu sababdan [P] bu tarkibda [N] dan keyin turadi va shaxsga qaratilganlik birinchi o`rinda emas. Masalan:

*-Ertaga kelasizmi?*

*-Ha.*

Ikkinchi gapdagi *Ha* tasdiq so`zi *Ertaga kelasizmi?* so`rog`ini bergan shaxsga qaratilgan bo`lib, faqat shunday shaxsga nisbatan va uning savoliga nisbatangina nutqiy informativ mohiyat kashf etadi. *Ha* ning o`zida tasdiqdan o`zga – shunda ham nutq akti ishtirokchisi bergan savolga ijobiy javobdan o`zga muayyan axborot yo`q. Shuning uchun tasdiq-inkor so`zlariga [NP] dan keyin, uchinchi o`rinda [T] nutq-momenti turadi, chunki bu so`zlar muayyan shaxsning muayyan javobiga nisbatangina mohiyat kasb etadi. So`zlovchining munosabati tasdiq-inkor so`zlarida mo``tadil (neytral)dir. Shu tufayli u xilma-xil modallik ma`nolariga ega bo`la olmaydi. Chunonchi: 1. “*Ha, radio orqali e`lon qilindi*” (Ch.Ayt.). 2. “*To`g`ri, O`ktam menga yoqadi*” (Oybek) kabi. Kesimlik ko`rsatkichi [NP] tarkibiy qismi esa, bu so`zlarda ko`p hollarda to`rtinchi o`ringa chiqadi. Shu o`rinda yana bir jihatni ta`kidlash joizki, tilimizda qat`iy ishonch, qat`iy tasdiq, qat`iy inkor ma`nolari faqatgina tasdiq-inkor so`zlari bilan emas, balki modallar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan:

1. *-Kelasizmi?*

2. *-Kelasizmi?*

*-Albatta.*

*-Aslo.*



Ko`rinib turibdiki, bir xil *Kelasizmi?* so`rog`iga tasdiq va inkor mazmunidagi javoblarning birinchisi modal bilan, ikkinchisi inkor so`z bilan ifodalangan. *Albatta* javobi o`rnida *Ha* ishlatilganda edi, qat`iy ishonch ma`nosi birinchi planga ko`chmagan bo`lar edi. Shuning uchun ba`zi bir modallar tasdiq inkor so`zlariga funksiyadoshlik jihatidan ham ancha yaqin turadi. Ba`zan ularni chegaralash qiyin va ko`pgina tilshunoslari (63; 141) shu sababdan ularni modal so`zlar qatoriga kiritadilar.

Tasdiq-inkor so`zlarining so`z-gaplar tizimidagi o`ziga xos bir xususiyati shundaki, tasdiq-inkor [Wp] lar, asosan, mustaqil qo`llaniladi; ular gap tarkibida uni murakkablashtiruvchi mavqeda bimalol kela oladi, lekin nomustaqil qo`llanilishida biz [Wp] larni uchratmadik. Shunday bo`lsa-da, tasdiq-inkor [Wp] larda nutq momenti bilan, nutq jarayoni ishtirokchisi va uning bergan muayyan savoli bilan uzviy bog`liqlik ulardagi nomustaqillik in`ikosidir.

Tasdiq-inkor [Wp] lar **1) tasdiq [Wp] lar va 2) inkor [Wp] lar**ga ajraladi. Tasdiq [Wp] markazini "*Ha*" so`z-gap, inkor [Wp] lar markazini "*Yo`q*" so`z-gap tashkil etadi. Bu markaz tasdiqlashgan (*Bo`pti, Ma`qul*) tasdiqlashayotgan, (*Durust, to`g`ri, rost*), tasdiqsimon (*Xuddi shunday, boq gap*), Shuningdek, inkorlashgan (*Aksincha, mutlaqo*), inkorlashayotgan (*Asla hargiz*), inkorsimon (*Hech qachon, noto`g`ri*) lardan iborat bo`lishi mumkin. Bu so`zlar tarixan ot, sifat, ravish, fe`l, olmoshlardan o`sib chiqqan. Ta`kidlaganimizdek, tasdiq-inkor so`zlarining asosiy qismi mustaqil qo`llaniladi. Biroq, tasdiqlashayotgan ayrim so`zlar qatorida, chunonchi, *durusti, to`g`ri, rosti* kabi so`z shakllari borki, bu so`zlar ma`noviy xususiyatlari bilan modallarga juda yaqin turadi va modallar qurshovidan bimalol joy olishi mumkin. Shuning uchun ham biz ularni tasdiq-inkor so`zlar qatoriga qo`shmaymiz (Masalan, "*Rosti, tanimabman*". "*Rosti*" da ishtirish ma`nosi bor, xolos.).

Tasdiq-inkor so`zlarining asosiy ma`noviy xususiyatlari tasdiqlarda tasdiq va inkorlarda inkor ma`nosining bo`rttib turishidir. Chunki bunday so`zlar boshqa ma`noviy xususiyatlarni talab etmaydi. Boshqa ma`noviy xususiyat kashf

Shundan bunday shakldagi soʻzlar tasdiq-inkor soʻzlari qurshovidan oʻrin qoplamaydi. Shundan kelib chiqib, bu turkum soʻzlar qatorining maʼnaviy oʻsib borishini ikki qismga ajratish kifoyadir (4- jadvalga qarang):

**I. Tasdiq maʼnosining oʻsib borishi**→

a) tasdiqlashgan: *Boʻpti* → *Maʼqul* → *Balli* → *Shundoq...*

b) tasdiqlashayotgan: *Durust* → *Toʻgʻri* → *Rost....*

v) tasdiqsimon: *Xuddi shunday* → *Xoʻp* → *Xoʻp boʻladi* → *Haq gap* → *Juda*

soʻz...

4-jadval: [Wp] qurilishli tasdiq-inkor soʻz-gaplar hosilalari

No	Turi	Tasdiq maʼnoli	Inkor maʼnoli
1.	S o f [Wp]	I.1. Sof tasdiq Ha. Xoʻp. Xoʻsh.	2.1. Sof inkor Yoʻq
2.	“[Wp]- lash- gan”	I.2. Tasdiqlashgan Boʻpti Mayli Maʼqul Yaxshi Shunday (Shundoq, Shundoqʻ)	2.2. Inkorlashgan Aslo Aksincha Mutlaqo Bas Boʻldi Hech Hecham Hechamda Hech-da
3.	“[Wp] - lashayo tgan”	I.3. Tasdiqlashayotgan Toʻgʻri Toʻppa-toʻgʻri Rost Tuzuk Toʻppa-tuzuk Durust Bemalol	2.3. Inkorlashayotgan  Tomom Hargiz
4.	“[Wp] - simon”	I.4. Tasdiqsimon Xuddi shunday(-doq) Judda soz Haq gap Judda yaxshi Xoʻp boʻladi Koʻp yaxshi Xuddi oʻzi	2.4. Inkorsimon Shartmas Bekor(-chi) gap Mumkinmas Zarurmas

## **2. Inkor ma`nosining o`sb borishi:**

- a) inkorlashgan: “*Aksincha* → *Hechamda* → *Aslo* → *Mutlaqo*”
- b) inkorlashayotgan: “*Hargiz* → *Noto`g`ri* → *Hech qachon....*”
- v) inkorsimon: “*Mumkinmas* → *Bo`lishi mumkinmas* → *Nega endl...*”

Bu ma`noviy qatorlarning har birini badiiy adabiyotlardan olingan misollarda ko`rib o`tamiz.

### **I. Tasdiq so`zlar .**

#### **I.I. Sof tasdiq so`zlar.**

I.I. A. So`zlovchining fikriga tinglovchining tasdiq javobi ma`nosi:

- a) “–*Shirmon bilan yarashdinglarmi?*”

–*Ha*” (Mirm.)

#### **I.I. B. So`zlovchi (yoki tinglovchi)ning shaxsiy mulohazasi tasdiq`i**

- a) “*Ha, bu haqda o`ylab ko`rmagan ekanman*” (U.).

Biz bu o`rinda “*Ha*” tasdiq va “*Ha*” undov so`zlarining farqli jihatlarini e`tibor o`tishimiz zarur. Chunonchi, 1. “–*Ha, bu gapingiz haq*”. 2. “*Ha Eshma bo`sh kelma*” gaplaridagi “*Ha*” bir lug`aviy birlikning ikki ko`rinishidir. Ya`ni shuningdek, “*Ha*” so`zi ayrim modallar va tasdiq-inkorlar bilan ham bir qurshovda keladi. Masalan, 1. “–*Ishni qayta ko`rishadimi? –Ha albatta*” (tasdiq ishonch ma`nosida). 2. “–*Xayol surib qoldingiz? (Ha yo`q, shunchaki o`tin*” (tasdiq-inkor ma`nosida).

#### **I.I. V. Tinglovchining samimiy tasdiq javobi ma`nosi:**

- a) “–*Qizaloqqa ham rahming kelsin.*”

–*Xo`p, dam olsak, olaylik.*” (Mirm.)

#### **I.I. G. Tinglovchining o`zidan ulug` kishi fikriga tasdiq javobi ma`nosi:**

- a) “–*Ko`chaga chiqib-chi, to`polon qilib, changga botib yurmagan bolam!*”

–*Xo`sh, buvijon* (X.S.).

Shu o`rinda “*Xo`sh*” tasdiq va “*Xo`sh*” so`roq leksemalarini bir-biriga farqlab olishimiz lozimdir. Qiyoslang: 1. “*Xo`sh, va`da bajarildimi?*” (so`roq)

ma'nosi). 2. "**Xo'sh**, siz aytganchalik bo'la qolsin" (ma'qullash ma'nosi). Shuningdek, "**Xo'p**" so'zida ham xuddi shunday hodisani kuzatish mumkin. Yana qiyoslang:1. "*–Ertaga keling. –Xo'p* (tasdiq ma'nosi). 2. "**Xo'p**, xizmat uka? *–Shefir kerak edi*" (so'roq ma'nosi). Biroq bu hodisalar har doim bir xil ahamiyat (mazmun) kasb etadi, demoqchi emasmiz. Ya'ni, qurshovlarda "**Xo'sh**?" so'roq shakl ko'p hollarda "**Xo'sh**" tasdiq javobini talab etmagan holda, "**Xo'pmi**?" so'rog'i nuqul tasdiq javob talab qilishga majbur etishni taqozo qilib turadi. Darhaqiqat, nutqimizda bunday so'zlarning uslubiy jihatlari ham ravshan namoyon bo'ladi. Chunonchi, *Ha-da, Ha-ha, Xo'p-xo'p, Xo'sh-xo'sh* kabi. "**Xo'sh**" so'zining undovlar qabul qilish holatlari ham mavjud : "*E xo'sh-e, endi biz gunohkor bo'ldikmi?*" kabi

## 1.2. Tasdiqlashgan so'zlar.

### 1.2. A. Tugal tasdiq ma'noli so'z:

" *Balki menga ham ruxsat berarsan yoningda tursam? –Bo'pti, yuring*" (Ch.Ayt.).

### 1.2. B. So'zlovchi fikrini ma'qullash ma'nosi:

a) "*Mayli, sen aytgancha bo'la qolsin.*" (Ch.Ayt.)

b) "*Hozir, bir uyga borib kelmaysizmi?*

*–Mayli.*" (N.Saf.)

v) "*Yuzimga bir shapaloq uring, lekin saj` va qofiyasi oson bo'lishi sharti bilan?*

*Ma'qul!* - *deb kuldi Anvar va Ra'noga qaragan holda o'ylandi*"(A.Qod.).

g) "*Azizbek yo'l ustida hojiga qaradi:*

*Ruxsat, ertaga choyni o'rdaga kelib iching!*

*Yaxshi, taqsir*" (A.Qod.).

d) "*Bu so'zdan Homid nima uchundir ajablangan edi:*

*Qulingiz?*

*Shundog*" (A.Qod.).

“Shundoq”, “Shundoq” “Shunday” soʻzining arxaik shaklidir. Undan badiiy adabiyotlar (jumladan, Abdulla Qodiriy asarlarida)da unumli foydalanilgan.

### 1.3. Tasdiqlashayotgan soʻzlar.

#### 1.3.A. Soʻzlovchi fikrini tasdiqlash maʼnosi:

a) *Ziyo shohichi: (Bizning bu holga tushishimiz oʻz feʼli badimizdan! Akram hoji: — Toʻgʻri* (A.Qod.).

b) “—Qayerga borish, kimga uchrashishni u yaxshi biladi.

—*Toʻppa-toʻgʻri*” (Ch.Ayt.).

c) “*Rost, xotin, gapning poʻstkallasini aytasan*” (Ch.Ayt.).

d) “—*Rost, deb uning gapini tasdiqladi Alisher*” (M.O.).

e) “—*Mayda-chuyda gaplarning menga keragi yoʻq. Masalaning mohiyatini ayting, - dedi qorovullar boshligʻi. —Yaxshi!*

—*Qisqa va tartib bilan soʻzlang.*

—*Yaxshi, qisqa va tartib bilan soʻzlayman*” (Ch.Ayt.).

f) “—*Vaqt qochirmay uni hozir qoʻlga olish kerak-da.*

—*Boʻlmasa-chi, - dedi “tunqotor” elkasini qisib, - men hozir arz qilay Rahmat sizga!*” (A.Qod.)

j) “—*Men bu toʻgʻrida ering bilan ham soʻzlashib qoʻydim, tuzukmi?*

—*Tuzuk*” (A.Qod.).

h) “—*Oʻzimizning gazetga kelishtirib bitta javob yozamiz...Shunday bax!*

—*Ha, mayli.*

—*Durustmi? - deb yana qaytarib soʻradi Miryoqub.*

—*Durust!- dedi Mingboshi*” (Choʻlpon).

u) “—*Savdo ochdingmi?*

—*Ha, bir barkash sotdim.*

—*Durust* (Mirm.).

### 1.4. Tasdiqsimon soʻzlar.

#### 1.4.A. Qatʼiy tasdiq maʼnosini ifodalovchi tasdiqsimon soʻzlar:

a) “—*Bu, ilmiy tadqiqot institutimi?*

–**Xuddi shunday**” (Mirm.).

b) “–**Po`latjon akamga salom aytib qo`ying!**

–**Xo`p bo`ladi, - dedi Nafisaxon**” (Mirm.).

v) “–**Siz qayerdan, mehmon?**

–**Toshkentdan.**

–**Juda yaxshi, qani yuqoriga chiqing!** (A.Qod.)

g) “–**Rostdan Temir Malikmisen yoki boshqa odammisen? - deb so`radi**

Uloq quyon tutaqib.

–**Xuddi o`zi... - deb yubordi u**” (M.O.).

d) “–**Ayni muddao. Munozaralar vaqtida ko`p mushkul tugunlar echilib, muaniq mushkullar hal etilgay, - dedi alloma boshini ko`tarib**” (M.O.).

e) “–**Ko`p yaxshi, - dedi Saidiy xatni o`qib bo`lgach, uni buklab.**” (A.Q.)

yo) “–**Juda soz, aka, - mamnuniyat bilan ma`qulladi O`roz.**” (O.)

j) “–**Haq gap! Bular bilan tortishib o`tirishdan foyda yo`q.**” (O.)

z) “–**Xo`sh, o`g`lim, hisoblik do`st ayrilmas degan gap bor.**

–**Haq gap, boy ota!**” (Hamza.)

## 2. Inkor so`zlar.

### 2. 1. Sof inkor so`zlar.

2. 1. A. So`zlovchi fikrini rad qilish ma`nosi:

a) “–**Meni eslay olasizmi, bek?**

–**Yo`q, amaki!**” (A. Qod.)

b) “–**Sizing ham ichganingiz bormi? –Yo`q.**” (A.Qod.)

### 2. 1. B. **Hukm (natija) ni inkor qilish ma`nosi:**

a) “**Yo`q. Sening qiliching singan bo`lsa ham, hali qalqoning teshilmagan! Bu qalqon panohida sen hali ko`p ishlar qilishing mumkin**” (A.Q.).

b) “**Yo`q-yo`q, - deb yozg`irdi u. - Men Shoqosim akamlarni o`zim olib ketaman**” (O.YO.).

### 2. 2. Inkorlashgan so`zlar.

2. 2. A. So`zlovchi fikrini rad qilib, o`z fikrida qolish ma`nosi:

a) “–*Aksincha, qanchalik ustomon bo`lsang, shunchalik qudrat kush boraverasan*” (R.O.).

## 2. 2. B. Qat`iy inkor ma`nosi:

a) “–*Bu bilan men sizni bezovta qilmaymanmi? To`g`risini ayting?*  
–*Aslo! Buni mulohaza qilishingizning hojati yo`q, - dedi Abasi muloyimlik bilan*” (Mirm.).

b) “–*Demak, hujumga o`tish kerak. Shundaymi?*  
–*Mutlaqo! Unda pistirmaga tushish hech gap emas*”(K.S.).

## 2. 2. V. So`zlovchi gapini bo`lish (ta`qiqlash) ma`nosi:

a) “–*Men sizni aqlli odam deb yurardim. Ziyoli kishisiz. Bizlar o`yin olmadi, yig`itligimiz to`polon vaqtga to`g`ri keldi...*  
–*Bas!*” (Mirm.).

“*Bas*” modallashgan so`z *Bas qil, E bas-e* shakllarida ham nutq namoyon bo`ladi. Shuningdek, ba`zan so`zlovchining gapiga emas, uning holatiga ham munosabat bildirishga xizmat qiladi. Qiyoslang:

1. “–*Bas! Diydiyo qilma!*” (Ch.Ayt.). Bu qurshovda “yig`lama!” ma`nosida.
2. “–*E bas-e! Mo`tabar zotlarga til tegizmang!*” (O.).

Bunda “haqorat qilmang” ma`nosini kuchaytirish maqsadida.

b) “–*Bo`ldi, Saidqul, asabni buzavermang*” (M.M.Do`st.).

Bog`liq qurshovlarda “*Bo`ldi*” so`zi tasdiq ma`nosini ham ifodalashi mumkin

1. “–*Bo`ldi. Siz aytganча bo`la qolsin.*” Bu kontekstda “*Bo`ldi*” so`zi “*Mayli, Xo`p*” so`zlari bilan vazifadoshdir.

v) “–*Shu gapga toqat qilib o`tiraverdingizmi?*

–*Hechamda, o`zing muttaham, poraxo`r, -deb, do`q qildim*” (S.S.).

g) “–*Tamom! Boshqa gapga o`rin qolmadi*” (A.Q.).

d) “–*Siz bundan afsuslanmaysizmi?*

–*Hargiz. Boshqa nima ham qila olardim*” (A.Q.).

## 2.3. Inkorsimon so`zlar.

### 2.3. A. Inkor ma`noli inkorsimon so`zlar:

a) “ - *Shartmas*, - dedi Yaxshiboev bilagini bo`shatib olarkan. - *Yurak uzoqda joyida*” (M.M.Do`st).

b) “-*Vijdonli odamsan-da*, - dedi Yaxshiboev, -*Eslasang, biz u paytlarda u uchun ham yozardik.*”

*Bekor gap!* - dedi *Oshno*. - *Ko`ngul uchun ham yozgan paytimiz bo`lgan*” (M.M.Do`st).

Tasdiq-inkor ma`noli ko`rib o`tilgan so`zlar guruhi tavsifidan ma`lum bo`ldiki, ularning miqdori modallarga qaraganda ancha kam. Bunday so`zlarning ma`noviy xususiyati esa faqat tasdiq va inkorni ifodalash bilan kifoyalanadi. *Zero*, ta`kidlab o`tganimizdek, modallarning ma`noviy xususiyati xilma-xil va rang-barangdir. Bu hodisa modal va tasdiq-inkorlarning o`ziga xos farqli jihatiga dalil bo`la oladi. Ularning o`xshash tomoni sintaktik vazifasida bilinadi: Tasdiq-inkorlar modallar singari yakka holda so`z-gap (SFSHSG) bo`la oladi; sodda gap tarkibida uni murakkablashtiradi. Semantik-funksional jihatdan tasdiq-inkorlarning nomustaqil alohida guruhi yo`q.

### III- bo`lim. [Wp] qurilishli taklif-xitob so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari

Taklif-xitob so`zlarining tarkibi bizning ishimizda, aytib o`tganimizdek, boshqa talqinlardan biroz farq qiladi. Tadqiqotchilar odatda, undovlar tarkibidagi buyruq-xitob deb ataluvchi so`zlar guruhini biz o`zgacha talqin etayotgan mazkur so`zlar majmuasiga kiritishadi (72, 391; 77, 3-25; 96, 363-379). An`anaviy buyruq-xitob undovlaridan tashqari taklif-xitob so`zlariga biz yana bir guruh semantik-funksional jihatlari bilan alohida ajralib turadigan so`zlarni: “*Ala, mang*” so`zi markazida birlashadigan taklif-xitoblashgan (*Qani*), taklif-xitoblashayotgan (*Hor-mang*), taklif-xitobsimon (*Boshlang*) kabi so`zlarni ham kiritamiz. Bu so`zlar guruhining, 1-jadvalda ko`rsatib o`tganimizdek, semantik-funksional mohiyati [PTMN] sifatida berilgan. Chunki, bu so`zlarda shaxsga – ikkinchi shaxsga qaratilganlik etakchilik qiladi. Shu sababdan ularning lisoniy mohiyatida [Rm] ning, ya`ni [PTMN] majmuining tarkibiy qismlaridan [P]



ma'nosi (personallik) birinchi planga ko'chgan. [Rm] tarkibidagi [T] ning bu guruh so'zlari lisoniy mohiyatida ikkinchi o'rinda turishi esa, bu so'zlar anglatgan ish-harakatning aniq bir zamonga (kelasi zamonga yo'nalganligi bilan belgilanadi. Hatto, taklif-xitobsimon qo'llanishga ega bo'lgan *Qani, boshladik* nutqiy hosilasida ham o'tgan zamon shakllari qo'llanishiga qaramasdan harakatning haqiqiy (real zamon ma'nosi kelasi zamon bilan ifodalangan.

[PTMN] strukturasi [M] ma'nosi ham mavjud. U biror ish-harakatni bajarishga da'vat so'zlovchining erki, istagi, xohishi ekanligi bilan bog'liq. [N] tasdiq-inkor (bo'lishli-bo'lishsizlik) ma'nosi va uning [PTMN] tarkibida oxirgi o'rinda turishi taklif-xitob so'zlari, asosan, da'vat, undash va bo'lishlilik ma'nosi bilan bog'liqligidadir. "*Kisht-kisht*", "*Beh-beh*" kabi xitob so'zlarida bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosi yo'qdek ko'rinadi. Vaholanki, bunday emas. "*Beh-beh*"ning lug'aviy ma'nosi "yaqinlash" bo'lsa, "*Kisht-kisht*" ning lug'aviy ma'nosi "yaqinlashma" emas, balki "uzoqlash"dir. Shuning uchun har ikkala holatda ham ma'no bo'lishlidir. Demak, shunday sababdan taklif-xitob so'zlari [PTMN] sifatida berilgan mohiyat ularning lisoniy semantik tabiatini aks ettiradi.

[Wp] qurilishidagi boshqa so'z-gaplar singari taklif-xitob so'zlari mustaqil qo'llanishli va nomustaqil qo'llanishli turlarga bo'linadi. Bu oppozisiya mohiyatan privativ bo'lib, "oppozisiya" belgisi nomustaqil qo'llanilishdir; bu oppozisiyada "*Ma*" atrofida birlashuvchi so'zlar, so'z-gaplar kuchli belgilidir. Buyruq-xitob undovlari esa, belgisiz a'zoni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu oppozisiyani quyidagicha berish mumkin:



1. Taklif-ishora soʻzlarining “nomustaqil”ligi shunda namoyon boʻladiki, ular hamisha alohida bir **jestʻ**, **mimika**, **tana aʻzolarining** harakati bilan uzviy bogʻliqdir.

2. Xitob-buyruq soʻzlarining bu belgiga nisbatan moʻʼtadilligi shundaki, birinchidan, bu soʻzlarning qoʻllanilishi jarayonida **mimika** xamroh boʻlishi ham mumkin, boʻlmazligi ham. Chunonchi, a) “- **Beh-beh**, - *deb tovuqlarni chaqirdi Oysara*” (Ert.).

b) “*Qoravoy: Chuh - chuh, hay!... “deb uzun qamchini koʻtardi” (O.)*

Ikkinchidan, xitob-buyruq soʻzlari orasida “*Ey, Hoy, E, Hu, Huy*” kabi soʻzlar borki, ular undalmalar bilan hamisha bogʻlanib keladi.

Taklif-ishora soʻzlari oʻz navbatida sof (*Ma*), taklif - ishoralashgan (*Qani*), taklif-ishoralashayotgan (*Hormang*), taklif - ishorasimon (*Bu yoqqa, Shunday yoqqa*) larga boʻlinadi. Ularning shakllanish manbai feʼllar (*Boshladik*), otlar (*Marhamat*) va bir qism olmoshsimon ravishlardan oʻsib chiqqan (Q.: 44).

Xitob-buyruq soʻzlarida bunday boʻlinishni aniq ajratish qiyin. Zero, biror harakatni bajarishga undash maʼnosidagi har qanday feʼllar (“*Qoch, ket, kel*”)da xitob-buyruq maʼnosi shunday feʼllarning semasida mavjud. Bundan tashqari, xitob-buyruq soʻzlari hamma vaqt ikkinchi shaxsga qaratilgani va ulardan bir qismi undalmalar bilan birikib, bir yaxlitlik hosil qilishi sababli nutqiy qaratilganlik manbaini ifodalovchi undalmasimonlar taklif-xitob soʻzlarining eng chekka nuqtasi sanalishi mumkin.<sup>1</sup> (5 - jadvalga qarang).

<sup>1</sup> Oʻzbek orfografiyasida undalmalar bilan kelgan “*Ey, Hoy, Huy*” soʻzlarini undalmadan ajratmaslik qoidalashtirilgan edi va bu toʻgʻri edi. Afsuski, keyingi davrlarda, masalan, “*Ey, yaxshilar, bir-birimizga mehr oqibatli boʻlaylik*”, “*Hoy, qizim, qayoqda qolding*” bunday soʻzlarni undalmadan vergul bilan ajratish ommalashtirilmoqda va bu nutqiy intonatsion jihatdan notoʻgʻri. Bizning otsiliografik tadqiqotlarimiz “*Hoy Ahmadjon*”, “*Hoy ukalar kabi undalmalar talaffuzida boʻlinish “Ho - yodamlar”, “Ho-yukalar”, “Ho-y.Ahmad*” shaklida ekanligini koʻrsatmoqda. shuning uchun bunday undalmalar tarkibidagi “*Hoy, hey*” ni ajratish mumkin emas. Lekin ayrim oʻrinlarda bu undovlar mustaqil ham qoʻllanilishi mumkin.

Sarlavha: [Wp] qurilishli taklif-xitob soʻz-gaplar hosilalari

Turi	Taklif-ishora maʼnoli	Xitob-buyruq maʼnoli
1. Sof [Wp]	1.1. Sof taklif-ishora soʻzlar	2.1. Sof xitob-buyruq soʻzlar
	Ma Mang	Poʻsht (poʻsh-poʻsht) Kisht (kish-kisht) Chip (chip-chip) Beh-beh Kuch-quch Mah (mah-mah) Mosh-mosh Pisht Pish-pish Ishsh Xix Qur-rey Qurhayt Hayt Chuh (chu, chu) Trr (Drr)
2. [Wp]-lashgan	1.2. Taklif-ishoralashgan Qani Allo (Al-l-o-o) Labbay (Lab-bey) Marhamat Marhabo Xoʻsh? Xoʻp	2.2. Xitob-buyruqlashgan Marsh Stop Ofarin Barakallo Salom (Assalomu aleykum) Xayr Koʻrishguncha
3. [Wp]-lashayotgan	1.3. Taklif-ishoralashayotgan Mana mundoq (jest) Ana mundoq (jest) Hormang (Bormisiz) Mana (Hu mana) Ana (Hu ana)	2.3. Xitob-buyruqlashayotgan  Uchramadi.
4. [Wp]-simon	1.4. Taklif-ishorasimon Bu yoqqa (jest) Shunday yoqqa (jest) Xush kelibsiz (jest) Xush koʻrdik (jest) Qadamlariga hasanot Yoqimli ishtaha	2.4. Xitob-buyruqsimon Boʻsh kelmang (mimika) Qimirlang (qistash) Xudo deng (mimika) Hammasi xudodan Boshlang Sogʻ boʻling

Ma`no jihatdan taklif-ishora so`zlari guruhlarga bo`linadi (shu qatorida ularni badiiy misollarda ham ko`rib o`tamiz).

### I. Taklif-ishoralar.

#### I.1. Sof taklif-ishoralar.

##### I.1. A. Taklif-ishora ma`nosi:

a) “–*Ma, doya xolangga ber...*” (O`.H.)

##### I.1. B. Hurmat-taklif ma`nosi:

a) “–*Mang! - Dadam parvo qilmadi.*” (O`.H.)

##### I.1. V. Taklif-qistash ma`nosi:

a) “–*Ma, ich! Odam bo`lasan!*

–*Voy o`laqolay! Aroq ichamanmi?*” (Cho`lpon)

Ba`zi qurshovlarda “*Mang*” so`zi “*endi*” kengaytiruvchisi bilan kelib, “taklif-iltimos” ma`nosini ifodalaydi. Masalan: “*Mang endi, Zamiraxon.. Olib keting. Men roziman...*” (A.M.)

### I.2. Taklif-ishoralashgan so`zlar.

#### I.2. A. Taklif-iltifot ma`nosi:

a) “–*Qani, ayvonga!*” (A.Qod.)

“*Qani + endi*” yordamchi so`z bilan birgalikda orzu-istak ma`nosini ifodalashga xizmat qiladi va bular, ya`ni “*Qani endi*”, “*Qaniydi*” hosilalari modallashganlardir. Chunki bunda “*Qani?*” so`roq olmoshining ham taklif-ishora, ham modallar qatori tomon ma`noviy o`sib borishini kuzatish mumkin:

“*Dunyo bir soz qo`shiqdan zavq ololsaydi,*

*Bir cholg`u chalolsaydi, bir tor chalsaydi,*

*Odamiylik shiormas, jon bo`lolsaydi,*

*Qaniydi...*” (Mirt.)

#### I.2. B. Taklif-undash ma`nosi:

a) “*Qani, oyi, ko`rmanani bering - chi!*” (A.Qol.)

b) “–*Allo! Bu - men, Hafizaman...*” (Mirm.)

v) “–*Al-lo-o! Ha, o`zim, - dedi u g`oyatda lanj kaifiyatda*” (Mirm.).

g) “–*A, labbay! - dedi Qilichev uqrayib*” (Mirm.).

d) “–*Labbay taqsir?*”

–*Yoʻl boʻlsin sizga?*

–*Mulla Anvarni ziyorat qilgani, taqsir...*” (A.Qod.)

### **I.2. C. Taklif-hurmat maʼnosi:**

a) “–*Marhabo, mavlono Alisher*” (U. va I.S.)

b) “–*Marhamat, Shohidbek, marhamat!*” (A.Qod.)

### **I.3. Taklif-ishoralashayotgan soʻzlar.**

#### **I.3. A. Ishora-taklif maʼnosi:**

a) “–*le, ana, kelin bolayam kep qoldi.*” (Oʻ. H.)

b) “–*Mana! - dedim gugurtini uzatib. Ammo u qayrilib qaramadi. Yanayam yaqin bordim. - Mang! - Dadam parvo qilmadi.*

–*Dada, mana! - dedim elkasiga turtib.*” (Oʻ. H.)

v) “–*Ana, rasvo boʻldim, - dedi haydovchi yigʻlamsirab.*” (Oʻ. H.)

g) “–*Ana! Oʻzingizga keldingiz, Abu Rayhon, gaplaringiz endi maʼno kasb etdi.*” (M.O.)

#### **I.3. B. Muloqot (muomala) ga taklif maʼnosi:**

a) “–*Hormang, Qoʻchqor aka!...*”(Sh.B.)

b) “–*Iye! Bormisan, Edigey! Qaysi shamol uchirib keldi*” (Ch.Ayt.).

#### **I.3. C. Jest, mimika bilan oʻz holatiga ishora qilish maʼnosi:**

Bunday hosilalar jonli soʻzlashuv nutqida koʻp uchraydi.

a) “–*Topshirib chiqdingmi? Necha boʻldi?*

–*Mana mundoq! Aytgandan ham ziyoda - “besh”.* (P.Q.)

b) “–*Shirinmikan? Menga ham ber-chi?*

–*Oh - oh. Ana mundoq, asalday. Ma, eb koʻr...*” (X.T.)

#### **I.3. D. Ishora - koʻrsatish maʼnosi:**

a) “*Mana, handalak polizi!*..(O.Y.)

### **I.4. Taklif-ishorasimonlar.**

#### **I.4. A. Taklif-undash maʼnosi:**

a) “*Bu yoqqa, dada, bu yoqqa!*” (V.O.)

b) “*Shunday yoqqa! Meni ortimdan, tezroq! Orqada qolmang!* (K.S.)

#### 1.4. B. Taklif-iltifot ma`nosi:

a) “*Xush kelibsiz, safo kelibsiz, ey olimlarning sardori!*”

*Qadamlariga xasanot! - deb allomani qutladi*” (M.O.).

b) “*Yoqimli ishtaha, bolam. Eganing osh bo`lsin*” (R.F.).

#### 2. Xitob-buyruqlar.

##### 2.1. Sof xitob-buyruq so`zlar.

##### 2.1. A. Chorlash ma`nosi:

a) “*Mah, To`rtko`z, mah!*” (A.Qod.)

b) “*Ma, Mosh, pish-pish!* - Mosh “miyov” deb oyog`imga suykaldi” (O`H.).

v) “*Chip-chip, jo`jalarim, pati momiq jo`jalarim!*” (Qo`shiqdan)

g) “*Kuch-kuch-kuch! Kuchukchang zotdor ekanmi? Uni nima deb chaqirasan?*” (S.B.)

d) *Ti-ti-ti! Beh-beh!* - Zumrad tovuqlarni chaqirib, ularga don ulashibdi” (Ertakdan).

##### 2.1. B. Haydash ma`nosi:

a) “*Kisht! Xira bo`lmay o`linglar! - deb qo`ydi*” (Sh.).

b) “*Marayim chaqqon to`rtta issiq choynakni birdan ko`tarib, “po`sh, po` - o` - o` - o`sh” deb yo`rg`alab keladi-yu, derezadan Hojiyaxonga uzatadi*” (As.M.).

v) “*Hayt, chek! - degan hayqiriqdan Sherbek seskanib tushdi*” (S.An.).

##### 2.1. V. To`xtatish ma`nosi:

a) “*Trr! - deb otlarning tizginlarini tortdi*” (M.I.).

b) “*Xo` - o`sh, xo` - o`sh, harom o`lgur!* - Orqa tomondan podachining amirona ovozi eshitildi” (S.An.).

v) “*Ishsh, jonivor!* - eshagini masjid suppasiga yaqin joyda to`xtatib bog`ladi Afandi” (Latifadan).

##### 2.1. G. Yurgizish ma`nosi:

a) “*Keyin yuganni tortib:*

–*Hay! Cho`-cho`!* - deb hayqira boshladilar” (Sh.X.).

b) “*Ammo Sultonmurot darhol o`zini ko`rsatib qo`ydi - jilovni siltab tortganча qichqirdi: — Chu, jonivor!*” (Ch.Ayt.)

v) “*Bolalar eshaklarini tayoq bilan turtib, Xix-xix! Ix-chu! “deya pastlikdan yuqoriga intilar edilar”* (O.).

## 2.2. Xitob-buyruqlashganlar so`zlar.

### 2.2. A. Yurishga xitob qilish ma`nosi:

a) “*Pristuf (amirona): Hayda, turma, marsh (yo`naladur).*” (B.)

b) “*Qani, marsh komissiyaga! - ko`zlari chaqnab buyurdi u Yodgorbekka.*” (O.Y.)

### 2.2. B. To`xtashga xitob qilish ma`nosi:

a) “*—Stop! Menga qisqa va lo`nda qilib tushutiring.*” (X.S.)

### 2. V. Qo`rqitish ma`nosi:

a) “*—Tish! Damingni chiqarma!Bo`lmasa,kallangni uzaman*” (T.M.).

b) “*—Tiss!- Qo`chqor vahimali shivirlab yon veriga qaradi*” (O.Y.).

### 2.2. G. Tahsin, olqishga xitob ma`nosi:

a) “*—Ofarin, qori afandi,-dedi shavqlanib, yonib Jalilxon*” (O.).

b) “*—Barakalla, Ra`no, cen yutding. - dedi Anvar...*” (A.Qod.)

Ba`zan, qurshovlarda bu hosilalar “*Ofarin sizga*”, “*Barakallo senga*” tarzida qo`llanilishi mumkin. Bu holat taklif-xitoblarda shaxs – personallik ma`nosi etakchilik qilishining isbotidir.

## 2.3. Xitob-buyruqlashayotganlar so`zlar:

### 2.3. A. Qistash-buyruq ma`nosi:

Bunday hosilalar jonli so`zlaShuv nutqiga xosdir.

b) “*—Bo`la qol! Bo`lmasa, maktabingga kechikib borasan, bolam.*”

### 2.3. B. Nafrat ma`noli xitob-buyruqlashayotganlar :

a) “*—Tuf! Sendan qo`rqadigan ahmoq yo`q.*” (T.M.)

b) “*—Hayf sizga-e! Sadqai odam keting!*” (U.Us.)

## 2.4. Xitob-buyruqsimon so`zlar.

### 2.4. A. Uyalish ma`nosi:

a) “*Uyalib ketdim. Boring-e!- degancha oshxonaga qarab qochdim.*”

(O.Y.)

#### 2.4. B. Xitob ma`nosi:

a) “*Bo`sh kelmang, yigitlar! Zolimlarga o`lim!*” (O.)

#### 2.4. V. Nochorlikka xitob ma`nosi:

a) “*-Hammasi xudodan, bo`tam!*” (A.Q.)

Sintaktik qurilishlarda taklif-xitoblarning mustaqil qo`llanilishi modallar, tasdiq-inkorlar bilan bir xil ahamiyat kasb etadi. Bu guruh so`zlarida ham tasdiq-inkorlar singari nomustaqil – alohida shakliy ko`rinishlar uchramaydi. Biroq ularning nomustaqil qo`llanilish xususiyati o`zgachalikda va o`ziga xoslikda, ya`ni jest, mimika, Shuningdek, tana a`zolarining harakati bilan bog`liq uzviy vositalarning nutq jarayonida hamroh bo`lishi bilan ifodalanishidir.

### 4-bo`lim. [Wp] qurilishli undov so`z-gaplar va ularning nutqiy voqelanish xususiyatlari.

Mazkur talqinda undovlar miqdori, asosan, undash-chaqirish va his-hayajon undovlari bilan cheklangan.

1-jadvalda [Wp] qurilishli undovlarning lisoniy ontologik (so`zlarning o`ziga xos bo`lgan tabiati) TMNP sifatida ko`rsatilgan edi. [Pm] tarkibiy qism ma`nolarining bu tartibda joylashishi undov so`z-gaplarning quyidagi xususiyatlari bilan bog`liq.

1. Undovlar so`zlovchining nutq momentidagi spontan (birdaniga, kutilmaganda) his-hayajonini, ehtirosini shu momentda yuzaga chiqaruvchi tasviriy vosita bo`lganligi sababli ularning tarkibida temporallik (nutq momentiga aloqadorlik), u bilan bog`liqlik birinchi o`rinda turadi.

2. Modal ma`no, ya`ni so`zlovchining munosabati kuchli ehtiros sifatida yuzaga chiqadi. Shu boisdan undovlarda so`zlovchining munosabati [M] ikkinchi o`rinda turadi.



3. Tasdiq-inkor (bo`lishli-bo`lishsizlik) ma`nolari undovlarda so`zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabati sifatida kuchli voqelanadi. Shuning uchun [N] tasdiq-inkor temporallik va modallikdan keyinda turadi.


4. Eng oxirgi o`rinda shaxsga qaratilganlik ma`nosi turadi. Zeroki, ular ko`p hollarda nutq momentidagi so`zlovchining kuchli ehtirosini yuzaga chiqaradi. Chunki, birinchidan, bu ehtirosning shaxsga qaratilganligi shart emas. Chunonchi:

1. *“- Komandamiz g`ala-ba qildi. –Ura!*

2. *–Komandamiz yutqazib qo`ydi. –Obbo...*

Ikkinchidan, undov so`z-gaplarda nutq momentida so`zlovchining oddiy so`z bilan tasvirlab bo`lmaydigan kuchli hayajoni – xursandligi, bundan uning mamnunligi yoki, ikkinchi misolda ko`rganimizdek, xafaligini ifodalaydi. Tasdiq va shaxsga qaratilganlik ma`nolari ularda o`ta zaiflashgan ko`rinadi.

Undovlar ham boshqa [Wp] qurilishli so`z-gaplar kabi mustaqil va nomustaqil qo`llanilish xususiyatlariga ega. Bu bo`linishda, odatda, bog`liq qurshovda (undalmalar qurshovida), Shuningdek, ba`zan mustaqil qo`llanila oladigan undash-chaqirish undovlari ham privativ oppozisiyaning kuchsiz a`zosi sifatida bu oppozisiyaning kuchli a`zosi bo`lgan va mustaqil qo`llanilishga xoslangan his-hayajon undovlariga zid turadi. Bu privativ oppozisiyani quyidagicha berish mumkin:



Mustaqil qo`llanilishida va nomustaqil qo`llanilishida sof undovlar (*Hoy, oh, voh, hey*); undovlashgan (*Urta, Olg`a, Dod, Voydod*); undovlashayotgan

(*Yashang, Voy o'lay*); undovsimon (Vokativ, erkalash: 21, 119; 22, 44-45), muloqot-vosita, jargon va haqorat soʻzlar; *Hoy mirzaterak, hoy manjalaqi kabi* soʻzlar va undalmalar vazifasida yuzaga chiqadigan leksik birliklar) larga boʻlinadi. Shakllanishiga koʻra undovlar sof undovlardan (*U-hu, A - ha, E - he*), otlardan (*Dod, Faryod*), feʼl (*Voy o'lay, yashang*) va bir qator arabcha birikmalardan (*Ollohu Akbar*), forsiy izofalardan (*Qiblai olam*) lardan tarkib topishi mumkin.

Maʼno xususiyatiga koʻra undovlar ikki katta guruhga boʻlinadi:

### **I. His-hayajon undovlari.**

#### **2. Undash-chaqirish undovlari** (6 va 7-jadvallarga qarang).

Bularning har birini alohida-alohida koʻrib oʻtamiz.

His-hayajon undovlari oʻz ichida quyidagi maʼnoviy guruhlarga boʻlinadi:

#### **I. Ajablanish maʼnosining oʻsib borishi: →**

“*A→Voy→Iye→Yo xudoyo tavba.....*”

1. “*A? Nima deysiz? Qulogʻimga qattiqroq gapirsangiz-chi!*” (Mirm.)

“*A*” undovi choʻchish maʼnosini ham ifodalaydi: “*A? - Siddiqjon choʻchib tushdi*” (A.Q).

2. “- *Voy, ovozidan taniysizmi? - Halimaxon ajablandi*”(R.F.).

3. “-*Iye, qanday qilib bu erga kelib qoldi?*” (Mirm.)

4. “*Yo xudoyo tavba! Odamlarga ham hayronsan*” (Oʻ.Us.)

Misollarda koʻrib oʻtgan undovlarni boshqa maʼnoviy qatorlarda ham koʻrish mumkin. Chunonchi, “*Iye*” (“*Iy-ya*”) undovi norozilik maʼnosini ham ifodalaydi: “*Iye, hali meni savodsiz deb oʻyladingmi?*” (R.F.)

6-jadval [Wp] qurilishli his-hayajon ma`noli undov so`z-gaplar hosilalari

№	Turi	Misollar	Ma`noviy xususiyatlari
1.	Sof [Wp]	A I-e (I-ya) B̂e O Oh Ox  Eh (ex)  Obbo  E O`-o` Bay-bay  Voy-buy Huv Ho I- hi O-ho	ajablanish; anqayish. ajablanish; qiziqib qolish. ishonmaslik; mensimaslik qoyil qolish; hayratlanish, sevinch, zavq; og`rinish sevinch, zavq; achinish; qo`rqish, shavq, sevinish; jirkanish, nafrat; g`azab; taassuf, kesatish; norozilik... anglash, eslash, faxmlash mamnunlik; mensimaslik, olqish; kesatish, mensimaslik; olqish, qo`rqitish, nafrat, g`azab, qizg`anish, kuyinish keminish, og`rinish, achinish, dumog`dorlik
2.	[Wp]-lashgan	Voydod Dod Vo-hay Vo-xey  yo tavba	shikoyat: og`rinish, achinish, norozilik, shikoyat qoyil qolish, havasmandlik; achinish kesatish; achinish qo`rqish, ishonmaslik, ojjizlik
3.	[Wp]- lashayotgan	Voy o`lay!  Voy sho`rim!  yo xudoyo tovba	qo`rqish, uyalish, shoshilib qolish... omadsizlik, baxtsizlik, ko`rgulikdan afsuslanish: hayratlanish, ajablanish, qo`rqish, ishonmaslik, norozilik, ayblash.
4.	[Wp]- simon	1. Erkalash so`zlari 2. Qarg`ish-haqorat so`zlari	Go`zalim, do`mbog`im, arsonim.  Ablah, padarlanat, iblis.

7-jadval: [Wp] qurilishli undash-chaqirish ma`noli so`z-gaplar hosilalari

No	Turi	Misollar	Ma`noviy xususiyatlari
1.	Sof[Wp]	Ha Hay Hey Hoy Hov Huv	undash, harakat-holatga zo`r berish; chaqirish; tinchlantirish. chaqirish; ogohlantirish. chaqirish. chaqirish; undash. chaqirish; nido berish.
2.	[Wp]- lashgan	Ura (urra) Olg`a	undash; shijoat; shavq; quvonch. undash; oldinga intilish.
3.	[Wp]-lashayotgan	Hujumga Yashang Yashang-e	undash. olqish undash. kesatish; norozilik.
4.	[Wp]- simon	Undalmalar: O`rtoqlar! Azizlar! singari yuzlab hosilalar	Vokativ so`zlar: O - yi! Bo - bo - jo - o - n! singari yuzlab hosilalar

**II Sevinch (zavq, shavq) ma`nosining o`sib borishi: →**

“O→Oh→Oh-oh→Eh→Vo -hay ....”

1. “O, quyosh jarchisi, berib xushxabar,

Hayot rubobini sayratuvchisan!” (A.Umariy)

“O” undovi hayrat ma`nosini ham ifodalaydi: “O, taomlarning a`losi kabob emish” (O.).

2. “Oh, qanday so`lim kecha - ya” (O.).

3. “Oh - oh - oh, shunaqangi shirinki, esang labing labingga yopishib qoladi, Robiya” (O` .H.).

4. “Eh, qanday mazza!” (Ch.Ayt.)

“Eh“ undovi achinish, afsuslanish ma`nosiga ham ega bo`lishi mumkin: “Eh, Rasul, Rasul! Nimani ham bilarding sen?” (O.Y)

5. “Vo - hay, o`ldiraman deydi - ya” (U.).

**III Olqish (hayrat) ma`nosining o`sib borishi: →**

“Bay - bay →Voy bo`y →Voy -bo` →E - hey →O - xo...”

1. "Suvni qara - ya ...**Bay - bay - bay** ..." (R.F.)
2. "**Voy - bo`y**, taqsirlar!.. Sizlarni xudoyning o`zi etkazdi" (G`.G`.)
3. "**Voy-bo`**, tirikmisan xumpar, Toshkentga qachon kelding?" (G`.G`.)
4. "**O-ho**, gapda sizga hech kimsa etolmaydi. Dilingiz she`riyat bulog`i" (O.)

#### **IV Achinish (afsuslanish) ma`nosining o`sib borishi:** →

"**E**→**EvoH**→**Eh-voh**→**Oh**→**Ax**→**Voh- voh**→**Obbo...**"

1. "**E**, nimasini aytasiz, otaxon! .. Boylar xo`kizdek semirganidan quturib ketgan." (O.)

